

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

*Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti*

“Moliya” kafedrası

QOBULOV H.A.

# Sug ‘urta asoslari

fanidan

MA’RUZALAR KURSI



Andijon — 2009

Ma'ruzalar kursi bakalavriatning 340000-«Biznes va boshqaruv» ta'lim sohasidagi  
5340600-«Moliya» va 5341700-«G'aznachilik ishi» ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan

Ma'ruzalar kursi OO'MTV tomonidan 2008-yil 23 avgustdagi 263-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va BD-413-4.01. raqam bilan ro'yxatga olingan fanning namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlangan

Taqrizchilar:

Bozorova G.G. - i.f.n., dots., «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasini mudiri, AndMII  
Nasriddinov I.A. - i.f.n., «Moliya» kafedrasini katta o'qituvchisi, AndMII

AndMII «Moliya» kafedrasining majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan  
(«\_\_»\_\_\_\_\_ 2009-yil \_\_-son bayonnoma)

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ dots. M-A.X.Eshonov

«Moliya» fakulteti Kengashi tomonidan ma'qullangan  
(2009-yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_-son majlis bayoni)

Kengash raisi: \_\_\_\_\_ dots. N.To'ychiboev

Institut O'quv-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlangan  
(2009-yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_-son majlis bayoni)

O'quv-uslubiy kengash raisi: \_\_\_\_\_ dots. Xakimov A.

Kelajak asosini qurish bo'yicha ishning maqsadi ertaga nima qilish kerakligi haqida emas, balki "ertaga" shu bo'lishligi uchun bugun nima qilmoqlik haqida qaror qabul qilishdir.

*Piter F. Drakker*

### **So'z boshi**

Keyingi yillarda mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish va tizimni takomillashtirish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda sug'urta xizmati bozorini rivojlantirish, shuningdek aholining keng qatlamlari va xo'jalik subyektlarini sug'urtada ishtiroklarini rag'batlantirish maqsadida sug'urta kompaniyalari va iste'molchilarga qulay sharoitlar, soliq to'lashda imtiyoz yaratilgan. Sohaga bo'lgan e'tibor tarmoqda faoliyat olib borayotgan kompaniyalar soni o'sib borayotganida ham namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda 30dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat olib borayotgani va aholiga 200 dan ortiq sug'urta xizmatlarini taklif etayotgani bunga dalildir.

Sug'urta faoliyati bozor iqtisodiyoti moliyaviy infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiyotning yaxlitlikda barqaror rivojlanishini taaminlovchi muhim omillardandir

Prezidentimiz Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida bozor iqtisodiyoti institutlari, xususan, sug'urtaning zamonaviy shakllarini keng rivojlantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi. Shu asosda hozirgi kunda sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada takomillashtirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug'urta tizimini rivojlantirishda rivojlangan sug'urta tizimiga ega xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz sug'urta tizimini rivojlantirishda bevosita iqtisodchi mutaxassislarining roli kattadir. Bo'lajak iqtisodchilarni oliy ta'lim muassasalarida olayotgan bilimlari orasida «Sug'urta asoslari» fanining ham alohida o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, bu fanni o'rganishda mazkur ma'ruzalar kursining yordami tegadi, chunki ma'ruzalar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat standartlari va o'quv dasturlari asosida qator chet el, ya'ni rivojlangan sug'urta tizimiga ega davlatlar iqtisodchi-olimlari tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlari, respublikamizning sug'urtaga doir qonunchiligi, sug'urta amaliyotida qo'llanilayotgan me'yoriy hujjatlar asosida va ulardan unumli foydalanilgan, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari o'rganilgan holda yozilgan.

«Sug'urta asoslari» fanidan ma'ruzalar kursi sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, vazifalari, roli va rivojlangan jamiyatda qo'llash sohalarini o'rganishni qamrab oluvchi sug'urta nazariyasining asosiy masalalarini yoritib beradi. U sug'urtaning kelib chiqish va O'zbekiston hududida rivojlanish tarixi, muhim sug'urta atamalarining mazmunini, sug'urtaning turkumlanishi va sug'urtani tashkil etishning tamoyillarini va boshqalarni yoritib beradi.

## 1-mavzu. Milliy iqtisodiyotda sug'urtaning o'rni va roli

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urtaning kelib chiqish tarixi*
2. *Sug'urtaning mohiyati, funksiyalari*
3. *Tayanch iboralar*

### 1. Sug'urtaning kelib chiqish tarixi

Sug'urta ijtimoiy munosabatlar tarixiy kategoriyalaridan biridir. U jamiyat qurilishining ilk davrlaridan yuzaga kelib, asta sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas hamroxiga aylandi. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi «qo'rquv» («strax») so'zi bilan bog'liqdir. Mulk egalari bir-birlari bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishar ekanlar, mulkning saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong'in, o'g'irlik va iqtisodiy hayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf-xatarlari natijasida yakson bo'lishi yoki yo'qotilishiga nisbatan qo'rquv xis etganlar.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri – bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun havotirlanishining asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi.

Ko'rilgan zararni qoplashning ancha oddiy shakli natural sug'urta bo'lgan. Don, yem-xashak va boshqa birturdagi oson taqsimlanadigan mahsulotlar hisobidan alohida talofat ko'rgan dehqon xo'jaliklariga moddiy yordam ko'rsatilgan. Bunday sug'urta, albatta, bir qancha chegaralangan bo'lib, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan o'z o'rnini pul shaklidagi sug'urtaga berdi.

Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rnini bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil falokatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obyektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab kuchaya boshladi.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari bilan bevosita bog'langan. Shunday ekan ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatgan tabiiy ofatlar bozor iqtisodiyoti yo'nalishlarini chetlab o'ta olmaydi. Sug'urta ko'p tarmoqli xo'jaliklarning mol-mulkini saqlashda va tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson va tabiiy ofatlar o'rtasidagi qarama-karshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish va lokalizatsiya qilish, hamda yetkazilgan zararni suzsiz qoplash bo'yicha insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obyektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab kolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yigindisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va mustaqillik talablari asosida sug'urta sohasida quyidagi sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi.

*Birinchi*dan, sug'urtani boshqarishda markazlashgan tartib o'rniga markazlashmagan tartib joriy qilindi. Mustaqil sug'urta tizimi barpo qilindi. Sug'urtani boshqarish respublika miqyosida amalga oshiriladigan bo'ldi. Ular O'zbekiston Moliya vazirligi tarkibidan chiqib, davlat bosh islohotchi bo'lgani holda "O'zagrosug'urta", "Kafolat" kabi davlat aksionerlik sug'urta kompaniyalariga aylantirildi. "Madad" sug'urta agentligi, "O'zbekinvest" EIMSKlari tashkil etildi. Hozirda respublikamizda 30 ta (2009-yil 1 avgust holatiga) sug'urta kompaniyasi bor.

*Ikkinchi*dan, alohida sug'urta haqida qonun qabul qilinib, unda respublikamizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olindi.

*Uchinchi*dan, xorijiy mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik qilish kuchaydi, ular ishtirokida qo'shma sug'urta kompaniyalari barpo qilindi. Respublika sug'urta tashkilotlari jahon sug'urta tashkilotlari qatoridan joy oldi.

*To'rtinchidan.* Sug'urta mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish asosida ularning moliyaviy ahvoli yaxshilandi. Xorijiy mamlakatlar mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanishda sug'urta tashkilotlarining vositachilik roli vujudga keldi.

*Beshinchidan,* sug'urta tashkilotlari bilan kredit muassasalarining hamkorligi kuchaydi. Korxonalar tomonidan bankdan olingan qarzlarni o'z vaqtida qaytarishga qaratilgan sug'urta faoliyati kengaya borib, u qishloq xo'jaligi korxonalariga nisbatan ham joriy qilindi.

*Oltinchidan,* oldingi yillarga nisbatan majburiy sug'urta doirasi qisqarib. Ixtiyoriy sug'urta tadbirlari kengaydi. Qishloq xo'jaligida majburiy sug'urta qayta qurilib, sug'urtalashda kreditning roli kuchaydi.

*Ettinchidan,* sug'urtaning xalq farovonligini yaxshilashdagi roliga alohida ahamiyat berila boshlandi. Shu munosabat bilan indeksatsiya tadbirlari o'tkazildi. Ixtiyoriy shaxsiy sug'urtaning shartlari ko'pchilik hollarda qaytadan ko'rib chiqildi, turar joy, uy-ro'zg'or, qo'shimcha pensiya, tomorqa sug'urtasi va boshqa sug'urta xillari o'zgartirildi va yangilari joriy qilindi.

*Sakkizinchidan,* bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda tadbirkorlikning muhim ahamiyatiga alohida e'tibor berilib, sug'urtaning yangi xillarini amalga oshirishga kirishildi.

*To'qqizinchidan,* mustaqillik yillarida javobgarlik sug'urtasining ayrim xillari joriy qilindi, shuningdek garovga qo'yilgan mol-mulk sug'urtasi haqida alohida dasturi amallar qabul qilindi.

*O'ninchidan,* sug'urta faoliyati bilan qimmatli qog'ozlar o'rtasida tegishli munosabat o'rnatildi. Sug'urta tashkilotlari ham o'z qimmatli qog'ozlarini tarqatish huquqiga ega bo'ldilar va shu asosda aksiyadorlarning huquqlari belgilanib, ularning idora qilish usullari aniqlandi.

Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida davlatni aql-idroq bilan boshqarish xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratligini ko'zda tutish lozimligiga amal qilib, sug'urta sohasida faqat mamlakat miqyosida emas, balki tashqi munosabatlarda ham qator tadbirlar amalga oshirilganligi ko'rsatib turibdi. Jumladan chet ellik va mahalliy investorlarga yordam berish maqsadida «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tashkil qilinib, AIG (AQSh) kompaniyasi bilan birga siyosiy xavf-xatarlardan sug'urtalash bo'yicha «O'zbekinvest Interneyshl» qo'shma sug'urta kompaniyasi ta'sis etilgani qayd qilib o'tildi. Shu bilan birga, tashqi sarmoyalarni ko'proq jalb qilish maqsadida sug'urtalashning tayanch stavkalari xalqaro amaliyotda qabul qilinganidan ancha past ekanligi ta'kidlandi.

## 2. Sug'urtaning mohiyati, funksiyalari

**Sug'urta** – ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal takror ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzluksizligi va to'xtovsizligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda ham mavjud ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda hodisalarning (yong'inlar, portlashlar, epidemiyalar va b.) salbiy oqibatlari ta'sirida to'xtasa yoki buzilsa, u holda jamiyat avvalo turli oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u holda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Inson va tabiiy ofatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish hamda yetkazilgan zararni so'zsiz qoplash bo'yicha insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obyektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishni **sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini** tashkil etadi.

Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, moliya to'laligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarinigina qamrab oladi.

Sug'urtaning xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urtada to'satdan, oldindan ko'zda tutilmagan va yengib bo'lmaydigan holatlar, ya'ni sug'urta holatlari ehtimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi qayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi.

2. Sug'urtada ko'rilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar o'rtasida qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli zarar ko'ruvchi xo'jaliklar soni doimo sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bo'lish ehtimoligiga asoslanadi, ayniqsa ishtirokchilar soni yetarlicha katta bo'lganda.

Zararni bunday qoplashni tashkil qilish uchun maqsadga yo'naltirilgan sug'urta fondi tashkil qilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining badallari hisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari faqatgina uni tashkil qilganlar o'rtasida ishlatiladi, sug'urta badalining hajmi esa har bir qatnashchining zararni qoplashdagi ulushini

bildiradi. Shuning uchun, sug'urta qatnashchilarining doirasi qanchalik keng bo'lsa, sug'urta badalining hajmi shunchalik oz va sug'urta ham samarali bo'ladi. Agarda sug'urtada millionlab sug'urtalanuvchilar ishtirok etsa va yuz millionlab obyektlar sug'urtalansa, u holda minimal badallar hisobiga maksimal zararlarni qoplash imkoni paydo bo'ladi.

3. Sug'urta zararlarni qoplashni hududiy birlik va ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda yil davomida sug'urtalanuvchi xo'jaliklar o'rtasida sug'urta fondini hududlar bo'yicha samarali qayta taqsimlash uchun yetarlicha katta hudud va anchagina sug'urtalashga tegishli obyektlar talab qilinadi. Faqatgina mazkur shartga rioya qilish bilangina katta hududlarni qamrab oluvchi tabiiy ofatlar yetkazgan zararlarni qoplash imkoni bo'ladi.

Zararni sug'urta yordamida qoplash ma'lum vaqt davomida amalga oshiriladi, chunki ixtiyoriy sug'urta doimo muddat bilan chegaralanadi.

***Sug'urta – bu ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini uning qatnashchilari o'rtasida badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi.***

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida sug'urtaga quyidagicha ta'rif berilgan:

***«Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi».***

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyatiga uning funksiyalari mos keladi. Ular sug'urtani moliya tizimining bir bo'g'ini sifatida xususiyatlarini oydinlashtirishning tashqi shakllari hisoblanadi.

Sug'urtaning to'rtta funksiyasi mavjud:

1. Tavakkalchilik
2. Oldini olish
3. Jamg'arma
4. Nazorat

Asosiysi tavakkalchilik funksiyasi hisoblanadi, chunki sug'urtaviy tavakkal zarar ehtimolligi sifatida talofat ko'rgan xo'jaliklarga pullik yordam ko'rsatish bo'yicha sug'urtaning asosiy yo'nalishi bilan bevosita bog'liq. Aynan tavakkalchilik funksiyasining amal qilish doirasida sug'urta ishtirokchilari o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisalari oqibatlarini bilan bog'liq pul shaklidagi qiymatning qayta taqsimlanishi ro'y beradi.

Oldini olish funksiyasi sug'urta fondi mablag'larining bir qismi hisobidan sug'urta tavakkalchiligini kamaytirish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Hayot sug'urtasida sug'urta kategoriyasi kredit kategoriyasi bilan hayotni ma'lum muddatgacha sug'urtalash shartnomalari bo'yicha mablag'larni jamg'arishda ancha yaqinlashadi. Hayot sug'urtasi orqali pul mablag'larini jamg'arish oilaviy sharoitda sug'urtaviy himoyaga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqdir. Shu bilan sug'urta jamg'arish funksiyasini ham bajarishi mumkin.

Sug'urtaning nazorat funksiyasi sug'urta fondini qat'iy maqsadli shakllantirilishi va uning mablag'laridan to'g'ri foydalanishdan iborat. Mazkur funksiya yuqoridagi uch spetsifik funksiyalardan kelib chiqadi va konkret sug'urta munosabatlarida ular bilan birga namoyon bo'ladi. Nazorat funksiyasiga mos ravishda qonunchilik va instruktiv hujjatlar asosida sug'urta amallarini to'g'ri bajarilishi ustidan moliyaviy sug'urta nazorati amalga oshiriladi.

### 3. Tayanch iboralar

***Sug'urta*** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

***Sug'urta bozori*** – sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

***Sug'urta summasi*** – sug'urta obyektni haqiqatda sug'urtalangan qismining pul ko'rinishidagi qiymati.

***Sug'urta shartnomasi*** – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi sug'urta turi shartlariga mos ravishda ularning o'zaro majburiyatlarini tartibga soluvchi kelishuv (huquqiy bitm).

***Sug'urta limiti*** – moddiy qiymatliklar va sug'urtaviy mas'uliyatlarni sug'urtalash mumkin bo'lgan maksimal pul summasi.

***Sug'urta himoyasi*** – konkret obyekt tomonidan ko'rilgan zararni bartaraf qilish yoki qoplash bo'yicha munosabatlar.

***Sug'urtalovchi*** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

***Sug'urta qildiruvchi*** – sug'urta badallarini to'lovchi va konkret sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

***Sug'urtalanuvchi*** – hayoti, sog'ligi yoki mehnatga layoqati sug'urta obyekti bo'lgan shaxs.

**Sug'urta obyekti va predmetlari** – sug'urtalashga tegishli bo'lgan moddiy qiymatliklar, inson hayoti, sog'ligi, mehnatga layoqati, javobgarliklar va mas'uliyatlar.

**Sug'urta mas'uliyati** – sug'urtalovchining sug'urta holatlari ro'y berganda sug'urta qoplamalari yoki sug'urta summalarini to'lash bo'yicha majburiyati.

**Sug'urta guvohnomasi (polisi)** – sug'urta amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta fondi** – sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladigan hamda sug'urta holati natijasida sug'urtalanuvchining ko'radigan zararini oldini olish, lokalizatsiya qilish va qoplashga mo'ljallangan sug'urta rezervlari yig'indisi.

**Sug'urta tarifi** – sug'urta summasiga nisbatan foiz stavkasi.

**Sug'urta badali (mukofoti)** – sug'urta summasiga nisbatan belgilangan sug'urta tarifi bo'yicha pul to'lovi.

**Sug'urta muddati** – sug'urta obyektining sug'urtalangan davri.

**Sug'urta holati** – sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi to'lanishi kerak bo'lgan turli salbiy va boshqa kelishilgan oqibatlariga olib keluvchi haqiqatda sodir bo'lgan holatlar.

**Sug'urta dalolatnomasi** – o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladigan va sodir bo'lgan sug'urta holatini hamda sabablarini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta portfeli** – sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan badallar yig'indisi yoki tuzilgan va to'langan shartnomalar soni.

**Sug'urta qoidalari** – ixtiyoriy sug'urta shartlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlardan biri.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sug'urtaning mohiyati nimadan iborat?
2. Qanday munosabatlar sug'urta munosabatlari deyiladi?
3. Sug'urtaning xususiyatlarini qanday belgilar ochib beradi?
4. Sug'urta qanday funksiyalarni bajaradi?



## 2-mavzu. Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada risklarni boshqarish. Sug'urta risklarni boshqarishning muhim usuli

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Risk tushunchasi va tavsifi*
2. *Risklarning turlari va ularning turkumlanishi*
3. *Risklarni boshqarish va sug'urta*
4. *Tayanch iboralar*

### 1. Risk tushunchasi va tavsifi

**Risk** deganda tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalar xususiyatidan kelib chiquvchi yo'qotishlar xavfi ehtimoli tushuniladi. Keng ko'lamli tushuncha sifatida riskni tarixiy, huquqiy, iqtisodiy yoki moliyaviy kategoriya sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Riskning quyidagi ta'rifi alaqancha kengroq hisoblanadi: **risk** – subyekt tomonidan ko'plab (birdan ortiq) natijalarni qamrab oluvchi, konkret natijaning noaniqligi va hech bo'lmaganda natijalardan biri xavfli bo'lgan alternativalar mavjudligi holatida qabul qilinadigan qaror tavsifi.

**Hodisa** – tabiiy yoki ijtimoiy-texnik jarayonlar, tashqi subyektlarning maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlari yig'indisi yoki subyektning o'zini xatti-harakati.

**Subyekt uchun xavf-hatarlar** – amalga oshishi subyektga *zarar (ziyon)* yetkazishi mumkin bo'lgan hodisalar; subyektni yo'q qilinishida yoki subyektning evolyutsiya imkoniyatlarini cheklanishida, yoki subyekt *manfaatlariga* ziyon yetkazilishida namoyon bo'ladi.

**Zarar** – har qanday moddiy yoki ma'naviy talofat, ziyon.

**Manfaat** – naf, foyda.

Shunday qilib, risk alohida holat sifatida risk-menejment nuqtai-nazaridan kelib chiqib ikkita xususiyatga ega – noaniqlilik (ehtimollik) va xavf-hatarlarning amalga oshishi natijasida yuzaga keluvchi zararlilik.

**Iqtisodiy nazariyada** "risk"ni ma'lum ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish natijasida korxona tomonidan daromadlarning bir qismini yo'qotish yoki qo'shimcha xarajatlar qilish ehtimoli (xavfi) sifatida tushunish qabul qilingan.

**Risk omili va uning natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zarurati sug'urtaga bo'lgan extiyojni keltirib chiqaradi. Risk sug'urta mafaatlari va munosabatlarini yuzaga kelish asosi hisoblanadi.**

**Sug'urtada risk qator jihatlari bo'yicha ifodalanadi:**

- *aniq bir hodisa yoki hodisalar yig'indisi* (voqea yoki voqealar yig'indisi), qaysiki ularning sodir bo'lishi bilan ilgari shakllantirilgan sug'urta fondidan to'lovlar amalga oshirilishida;
- *aniq bir sug'urtalangan obyekt bilan bog'liqlikda*, har qanday risk namoyon bo'lish obyektiga ega;
- sug'urtaga qabul qilingan obyektning *shikastlanish (zarar ko'rish) ehtimolligi* sifatida.

Risk sug'urtada obyekt hisoblanadi va uni tasodifiy voqealar va hodisalar natijasida amalga oshishi *sug'urta hodisasini* yuzaga kelishini bildiradi.

Texnologiyalarning yangilanishi, ularning yuqori darajada xavfsizligi, favqulotda holatlarning matematik modellashuvi tasodifiylikni chegaralaydi.

### 2. Risklarning turlari va ularning turkumlanishi

**Risklarning turkumlanishi** deganda oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ularni ma'lum belgilari bo'yicha alohida guruhlariga ajratish tushuniladi. Risklarni turkumlashning quyidagi *mezonlari* mavjud:

- risklar xavf soluvchi obyektlar sinflari;
- riskni yuzaga kelish sabablari;
- risklarga ta'sir etish imkoniyati.

**Risk obyektlarining kompleks sinflari:**

- ✓ ishchi kuchi;
- ✓ mol-mulk;
- ✓ sarmoya;
- ✓ axborot.

**Yuzaga kelish sabablari** bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi:

- ✓ tabiiy hodisalardan kelib chiquvchi – suv toshqini, do'l, yer qimirlashi, epidemiya va sh.k.;
- ✓ ijtimoiy-jamoat muhitdan kelib chiquvchi – aldov, jinoyat, ko'zda tutilmagan ziyon yetkazish;



- ✓ texnikaviy muhitdan kelib chiquvchi – texnikaviy vositaning ishdan chiqishi;
- ✓ xo'jalik jarayonlari va iqtisodiyotning holati bilan bevosita bog'liq bo'lgan - inflyatsiya, bozor kon'yunkturasi, bank foizi, valyuta kurslari va b.

**Riskka ta'sir etish imkoniyati** bo'yicha:

- ✓ *ekzogen (tashqi) risklar*, ularga ta'sir etish qaror qabul qiluvchi shaxs ta'siri ostiga tushmaydi va risklarni amalga oshishi natijasida yuzaga keluvchi zararlarni, oqibatlarini kamayishi bilan cheklanadi;

- ✓ *endogen (ichki) risklar*, qaror qabul qiluvchi shaxs ta'sir doirasida bo'ladi, qaysiki ular uchun risklarni yuzaga kelish ehtimolligi kamayadi va ayrim hollarda butunlay bo'lmaydi.

Iqtisodiy muhitlar uchun xos bo'lgan risklarning tasnifiy tizimi o'z tarkibiga guruhlar, toyifalar, turlar, kichik turlar va xillarni oladi. Ularning chizmasi ko'rinishi 1-rasmda aks ettirilgan.

**Ehtimolli natijasi (riskli hodisa)** bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi:

**Haqiqiy risklar** – salbiy yoki nolli natijani olish ehtimolligi: tabiiy, ekologik, siyosiy, transport va tijorat risklarining bir qismi (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo).

**Spekulyativ risklar** – ham ijobiy, ham salbiy natijani olish ehtimolligi: moliyaviy risklar.

**Risklarni yuzaga kelishining asosiy sabablaridan** kelib chiqib, ular quyidagilarga bo'linadi:

- ✓ tabiiy;
- ✓ ekologik;
- ✓ siyosiy;
- ✓ transport;
- ✓ tijorat.

**Tarkibiy belgisi** bo'yicha tijorat risklari quyidagilarga bo'linadi:

> *mulkiy*, mulklarni o'g'irlik, sovuqqonlik, texnik va texnologik tizimlarda ortiqcha quvvat va b. sababli yo'qotish ehtimolligi;

> *ishlab chiqarish*, turli sabablar bilan ishlab chiqarishdagi to'xtalishlar natijasida zarar ko'rish ehtimolligi;

> *savdo*, to'lovlarning kechikishi, tovarlarni transportirovka qilish jarayonida to'lovlarni rad qilish, tovarlarni yetkazib bermaslik va b. sababli zarar ko'rish ehtimolligi.

**Moliyaviy risklar**, pul mablag'larini yo'qotish ehtimolligi bilan bog'liq. Moliyaviy risklar ikki turga bo'linadi: pulning xarid quvvati bilan bog'liq bo'lgan risklar va sarmoyalarni qo'yish bilan bog'liq bo'lgan risklar (investitsion risklar).

*Pulning xarid quvvati bilan bog'liq bo'lgan risklar* quyidagi xillardan iborat:

- inflyatsion;
- deflyatsion;
- valyuta;
- likvidlik.

*Investitsion risklar* quyidagilardan iborat:

> *boy berilgan naf riski* – bu qandaydir amalni (misol uchun, sug'urtalash, xedjirlash, investitsiya va sh.k.) bajarilmasligi natijasida bilvosita moliyaviy zarar (foyda ololmaslik)ga olib keluvchi risk;

> *daromadlarni pasayish riski* portfelli investitsiyalar, omonatlar va kreditlar bo'yicha foizlar va dividendlar hajmining kamayishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.


*Daromadlilikni pasayish riski* quyidagi xillardan iborat:

◆ *foiz risklari* – tijorat banklari, kredit muassasalari, investitsion institutlar tomonidan jalb qilingan mablag'lari bo'yicha to'layotgan foizlarining taqdim etilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalaridan ko'tarilib ketishi natijasidagi yo'qotishlar xavfi.

◆ *kredit riski* – qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzini va tegishli foizlarni to'lanmaslik xavfi. Shuningdek kredit risklariga qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqargan emitentning ular bo'yicha foizlarni yoki asosiy qarz summasini to'lay olmaslik holatiga kelib qolish riski ham kiradi. Kredit bevosita yo'qotishlar risklariga bo'linishi mumkin

*Bevosita moliyaviy risklar* quyidagi xillarga bo'linishi mumkin: birja riski, selektiv risk, bankrotlik riski hamda kredit riski.

Sug'urtada barcha risklar ikki guruhga bo'linadi: *sug'urtaviy* va *nosug'urtaviy* (sug'urta shartnomasiga kiritilmagan). **Sug'urtaviy risk** – bu sug'urta hodisasini ro'y berish ehtimolligi va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararining miqdoriy hajmi nuqtai nazaridan baholanishi mumkin.



1-rasm. Risklarning tasnifiy tizimi

*Sug'urta riskining asosiy mezonlari:*

- risk tasodifiy xarakter kasb etishi kerak, bunda sug'urta shartnomasida ishtirok etayotgan barcha tomonlarga sug'urta hodisasining ro'y berish aniq vaqti va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararining hajmi oldindan ma'lum emas;
- mazkur riskning namoyon bo'lish tasodifiyligini bir turdagi obyektlar jamlamasi bilan solishtirish mumkin, ya'ni statistik kuzatuvlar olib borish kerak;
- riskni amalga oshishda aks etuvchi sug'urta hodisasining ro'y berishi sug'urtalanuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxsning xohish-irodasi bilan bog'liq bo'lmasligi kerak;
- sug'urta hodisasining ro'y berishi davr va makonda ma'lum emas;
- riskni amalga oshish oqibatlarini pul ifodasida obyektiv o'lchash va baholash imkonini mavjud.

**Nosug'urtaviy risklar** – bu risklar obyektiv mavjud bo'ladi, ammo sug'urtalovchi mas'uliyati hajmiga qo'shib, ya'ni sug'urtaga qabul qilib bo'lmaydi.

**Xavf-xatar manbalaridan** kelib chiqib risklarni quyidagilarga bo'lish mumkin: *tabiiy ofatlar (er qimirlashi, sel, do'l va b.) bilan bog'liq bo'lgan* va *insonning ongli xatti-harakati (o'g'irlik, talonchilik va boshqa g'ayri huquqiy xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek yuqorida sanab o'tilganlarning aralash risklari (misol uchun, mutaxassis-epidemiologning maqsadli harakati bilan yuzaga keluvchi epidemiyalar).*

**Sug'urtalovchining mas'uliyati hajmi** bo'yicha risklar yakka tartibdagi (masalan, tasviriy san'at asarlarini tashish va ko'rgazmasi) va universal (masalan, muntazam uchrovchi mulkiy risk – o'g'irlik) turlarga bo'linadi.

**Risklar natijasidagi yo'qotishlar turlariga** quyidagilar kiradi: moddiy, moliyaviy, mehnat, vaqtli, obro'li (ishonch), ekologik yoki sog'likka ziyon etkazilishi.

### 3. Risklarni boshqarish va sug'urta

*Risklarni boshqarish* o'zining mohiyati bo'yicha har qanday iqtisodiy tizim (jarayon)ning zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Risk hajmi olinadigan daromad bilan bevosita proporsionaldir. Bundan ko'rinib turibdiki, har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning, tizimning faoliyatini samaradorligi to'aligicha risklarni boshqarish jarayonini qanchalik samarali tashkil qilinganligiga bog'liq.


**Riskni boshqarish (risk-menejment)** – ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning maqsadi noqulay holatlar yuzaga kelganda obyektning ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarini kamaytirish yoki kompensatsiyalash hisoblanadi.

Riskni boshqarishning quyidagi **asosiy bosqichlari** mavjud (2-rasm):

- > risk obyektining tahlili;
- > riskni aniqlash;
- > riskni baholash;
- > riskka ta'sir etish usullarini aniqlash;
- > qaror qabul qilish;
- > riskka bevosita ta'sir o'tkazish;
- > boshqarish jarayoni natijalarini nazorat va tahrir qilish.

**Risk tahlili** – boshlang'ich bosqich bo'lib, uning maqsadi obyektning hozirgi vaqtdagi tarkibi, xususiyatlari haqida, kelajakda uning holatini o'zgarishi haqida zarur axborotlarni olish hisoblanadi.

**Riskni aniqlash** bosqichi obyektning mavjud risklarini tavsifini, ya'ni ularning sifat jihatlari va ta'rifini nazarda tutadi.



2-rasm. Riskni boshqarish jarayonining umumiy sxemasi

**Baholash** – bu aniqlangan risklarning miqdoriy tavsiflarini aniqlash: ehtimolligi va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar hajmi. Mazkur bosqichda noqulay holatlarning rivojlanish ssenariylari jamlamasi shakllanadi; zarar ko‘rish ehtimolligini taqsimlash funksiyalari quriladi.


**Aniqlash** va **baholash** o‘zaro uzviy bog‘liq hisoblanadi va har doim ham ularni alohida mustaqil qismlarga ajratish imkoni bo‘lmaydi. Undan tashqari, riskni boshqarish jarayoni qarama-qarshi yo‘nalishda borishi ham mumkin: baholashdan aniqlashga, misol uchun, zarar ko‘rib bo‘lingadan keyin uning sabablarini aniqlashda.

**Riskka ta'sir etish usullarini tanlash** bosqichida kelajakda ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarini minimallashtirish rejalashtiriladi. Buning uchun uni kamaytirishning turli uslub va usullari qo‘llaniladi. Riskka ta'sir etish usullarini tanlash ularning samaradorligini solishtirish orqali, shu jumladan turli usullarning kompleks kombinatsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

**Riskka bevosita ta'sir etish** bosqichi to‘rtta asosiy uslublardan tashkil topadi: *istisno qilish*, *pasaytirish*, *saqlash* va *riskni o‘tkazish* (3-rasm).

**Riskni istisno qilish** deganda mazkur risk bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday xatti-harakatlar va chora-tadbirlarni rad qilish tushuniladi.

**Riskni pasaytirish** - ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarini yoki noqulay holatlarni ro‘y berish ehtimolligini kamaytirishni bildiradi. Bu yo‘nalishda *oldini olish tadbirlari* amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar deganda binolar va inshootlarning xavfsizlini kuchaytiruvchi turli xildagi choralar, nazorat va ogohlantiruvchi tizimlarni, yong‘inga qarshi qurilmalarni o‘rnatish, ekstrimal holatlarda harakatlanish bo‘yicha xodimlarni o‘qitish va sh.k. tushuniladi.



3-rasm. Riskka ta'sir etish usullarining asosiy usullari

**Iqtisodiy muhit risklarini pasaytirish** uchun turli xildagi usullardan foydalaniladi:

- *diversifikatsiya* – mablag'larni (kapitalni) qo'yilmalarning turli obyektlari bo'yicha, foydalanishning turli yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash jarayoni;
- *qo'shimcha axborotlarga ega bo'lish*;
- *limitlashtirish* – xarajatlar, sotuv, kredit va sh.k. limitini (chegasini) o'rnatish.

**Risklarni saqlash** zararlarni kompensatsiyalashga yo'naltirilgan har qanday ta'sirlardan voz kechish yoki noqulay holatlar ro'y berganda zararlarni qoplashga mo'ljallangan maxsus rezerv fondlarini tashkil qilish (o'z-o'zini sug'urtalash). Riskka ta'sir etishning oxirgi usuli *o'z-o'zini sug'urtalash* nomini olgan. Risk saqlanishi holatida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga yana zararlarni kompensatsiyalash va ishlab chiqarishni tiklash uchun *kredit va qarzlar olish, davlat dotatsiyalarini olish va b. kiradi*.

**Risklarni o'tkazish** bo'yicha choralarga mavjud daraja saqlangan holda u uchun javobgarlikni uchinchi shaxslarga o'tkazish tushuniladi. Ularga ma'lum to'lov asosida riskni sug'urta kompaniyasiga o'tkazishni nazarda tutuvchi **sug'urtalash**, shuningdek turli xildagi *moliyaviy kafolatlar, kafilliklar* va b. kiradi. Riskni o'tkazish, shuningdek ko'zda tutilmagan holatlar ro'y berganda o'z javobgarligini kamaytiruvchi yoki riskni kontragentga o'tkazuvchi *maxsus kelishuvlarni* hujjatlar (shartnomalar, savdo bitimlari va b.) matniga kiritib qo'yish bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Aniq bir risklarga ta'sir qilishning optimal usullari tanlanganidan so'ng korxonaning barcha risklari jamlanmasini boshqarish strategiyasini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Bu bosqich **qaror qabul qilish** hisoblanib, unda talab qilinadigan moliyaviy va mehnat resurslari aniqlanadi, menejerlar o'rtasida vazifalarni aniqlash va taqsimlash amalga oshiriladi, tegishli xizmatlar bozori tahlil qilinadi, mutaxassislar bilan maslahatlar o'tkaziladi.

Risk-menejmentning yakunlovchi bosqichi olingan natijalarni hisobga olgan holda va yangi axborotlarning paydo bo'lishi bilan tanlangan strategiyani amalga oshirish **natijalarini nazorat va tahrir qilish** hisoblanadi. Nazorat menejerlardan ko'rilgan zararlar, uni kamaytirish bo'yicha qo'llangan choralar, ularning amaliy samaralari haqida axborot olishdan iborat. Olingan natijalar tahlili va ishlovi muntazab o'tkazilib turilishi lozim.

Riskni boshqarish ko'plab rahbarlarda, avvalo, odatiy sug'urtalash bilan bog'lanadi. Haqiqatdan ham, **sug'urta** azaldan riskka ta'sir etishning dunyoda keng tarqalgan usullaridan hisoblanadi va hozirgi kunda ham shundayligicha qolmoqda. Bugungi kunda AQSh, Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan yirik mamlakatlarda yillik sug'urta mukofotlarining to'lovlari yalpi ichki mahsulotining 7-9%ini tashkil qilmoqda. Horiyda inson faoliyatining deyarli barcha sohalari

sug'urta bilan qamrab olingan: tibbiy sug'urta, hayot sug'urtasi, mulkiy sug'urta, yuklarni sug'urtalash, foyda sug'urtasi, bankrotlik sug'urtasi, fuqarolik javobgarligining har xil turlari. Hech bo'lmaganda sug'urtaning bitta turi amal qilmaydigan soha topilmaydi, undan tashqari sug'urtaning ko'plab turlari turli mamlakatlarda majburiy hisoblanadi.

Biroq, bozor iqtisodiyotiga yangi o'tgan mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham sug'urta bo'yicha holat quvonarli emas. Bu shu bilan izohlanadiki, hali hanuz iqtisodiyotni markazlashgan holda boshqarish orqali noqulay holatlar ro'y berganda korxonalarni qo'llab-quvvatlash va aholiga yordam ko'rsatish uchun sarflanishga mo'ljallangan davlat rezervlarini shakllantirilishi tushunchasining mavjudligidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat qo'llab-quvvatlashlari hajmi ko'm martaga qisqaradi. Korxonalarning o'zlari qiyinchilik holatlarida ko'riladigan zararlarni bartaraf etish mexanizmlarini yaratish "g'adini yeyishlari" kerak. Bu yerda sug'urta eng qulay va bozor nuqtai nazaridan mukammal bo'lgan mexanizmlardan hisoblanadi.

#### 4. Tayanch iboralar

**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**O'z-o'zini sug'urtalash** – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z moddiy va pul rezervlarini yaratish.

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Risk** – tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalar xususiyatlaridan kelib chiqadigan yo'qotishlar xavfi ehtimoli.

**Hodisa** – tabiiy yoki ijtimoiy-texnik jarayonlar, tashqi subyektlarning maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlari yig'indisi yoki subyektning o'zini xatti-harakati.

**Subyekt uchun xavf-hatarlar** – amalga oshishi subyektga zarar (ziyon) yetkazishi mumkin bo'lgan hodisalar

**Zarar** – har qanday moddiy yoki ma'naviy talofat, ziyon.

**Manfaat** – naf, foyda.

**Haqiqiy risklar** – salbiy yoki nolli natijani olish ehtimolligi: tabiiy, ekologik, siyosiy, transport va tijorat risklarining bir qismi (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo).

**Spekulyativ risklar** – ham ijobiy, ham salbiy natijani olish ehtimolligi: moliyaviy risklar.

**Foiz risklari** – tijorat banklari, kredit muassasalari, investitsion institutlar tomonidan jalb qilingan mablag'lari bo'yicha to'layotgan foizlarining taqdim etilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalaridan ko'tarilib ketishi natijasidagi yo'qotishlar xavfi.

**Kredit riski** – qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzini va tegishli foizlarni to'lanmaslik xavfi.

**Sug'urtaviy risk** – bu sug'urta hodisasini ro'y berish ehtimolligi va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararining miqdoriy hajmi nuqtai nazaridan baholanadigan xavf.

**Nosug'urtaviy risklar** – bu risklar obyektiv mavjud bo'ladi, ammo sug'urtalovchi mas'uliyati hajmiga qo'shib, ya'ni sug'urtaga qabul qilib bo'lmaydi.

**Texnogen risklar** – inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi: avariya holatlar, atrof-muhitning ifloslanishi va sh.k. Texnogen risklarga misol qilib yong'inning turli obyektlarga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan yong'in risklarini ko'rsatishimiz mumkin.

**Tabiiy risklar** – inson faoliyati bilan bog'liq emas. Ularga asosan tabiiy ofatlar: yer qimirlashi, suv toshqini, to'fon, chaqmoq urishi va b. kiradi.

**Aralash risklar** – bu inson xo'jalik faoliyati ta'sirida yuzaga keladigan tabiiy xarakterdagi holatlar. Misol uchun, qurilish ishlarini olib borilishi natijasidagi yer ko'chishlari.

**Riskni boshqarish (risk-menejment)** – ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning maqsadi noqulay holatlar yuzaga kelganda obyektning ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirish yoki kompensatsiyalash hisoblanadi.



**Risk tahlili** – boshlang'ich bosqich bo'lib, uning maqsadi obyektning hozirgi vaqtdagi tarkibi, xususiyatlari haqida, kelajakda uning holatini o'zgarishi haqida zarur axborotlarni olish hisoblanadi.

**Baholash** – bu aniqlangan risklarning miqdoriy tavsiflarini aniqlash: ehtimolligi va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar hajmi.

**Riskni istisno qilish** - mazkur risk bilan bog'liq bo'lgan har qanday xatti-harakatlar va chora-tadbirlarni rad qilish.

**Riskni pasaytirish** - ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni yoki noqulay holatlarni ro'y berish ehtimolligini kamaytirish.

**Risklarni saqlash** - zararlarni kompensatsiyalashga yo'naltirilgan har qanday ta'sirlardan voz kechish yoki noqulay holatlar ro'y berganda zararlarni qoplashga mo'ljallangan maxsus rezerv fondlarini tashkil qilish (o'z-o'zini sug'urtalash).

**Risklarni o'tkazish** - u uchun javobgarlikni uchinchi shaxslarga o'tkazish.

**Sug'urta mas'uliyati** – sug'urtalovchining sug'urta holatlari ro'y berganda sug'urta qoplamalari yoki sug'urta summalarini to'lash bo'yicha majburiyati.

**Sug'urta bozori** – sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Sug'urtada risk tushunchasini izohlang.
2. Sug'urtadagi maxsus risklarni ayting va sharhlang.
3. Risklarning turkumlanishi deganda nima tushuniladi va ular qanday mezonlar bo'yicha turkumlanadi?
4. Riskni boshqarishning mazmuni nimadan iborat?
5. Riskni boshqarishda menejmentning roli va o'rnini tushuntiring.
6. Riskni boshqarish usullarini tushuntiring.
7. Riskni boshqarishda sug'urtaning ahamiyatini tushuntiring.

### 3-mavzu. Sug'urtaning asosiy tushunchalari va tamoyillari

#### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urtaning tashkiliy qirralarini ifodalovchi atamalar*
2. *Sug'urta fondining shakllanishi bilan bog'liq atamalar*
3. *Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'langan atamalar*
4. *Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy atamalar*

#### 1. Sug'urtaning tashkiliy qirralarini ifodalovchi atamalar

Sug'urtani amalga oshirish jarayonida sug'urta ishtirokchilarining turlicha sug'urtaviy manfaatlarini namoyon bo'lishi, sug'urtaga tegishli obyektlarning turlichaligi, sug'urta hodisalarining keng ko'lamliligi va boshqa omillar bilan bog'liq bo'lgan murakkab spetsifik munosabatlar yig'indisi yuzaga keladi. Shu munosabat bilan u yoki bu konkret sug'urta munosabatlarini maxsus terminologiya yordamida aks ettirish zaruriyati tabiiydir.

Sug'urta terminologiyasi yordamida sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida bir tilda suhbat olib borish, sug'urta shartlarini tushunish, unda ishtirok etayotgan tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniqlash, sheriklar bilan amaliy munosabatlarni olib borish, reklama va boshqa sug'urta ishlarini amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Sug'urtaning tashkiliy atamalariga quyidagilar kiradi.

- ⇒ *Sug'urtalovchi*
- ⇒ *Sug'urtalanuvchi*
- ⇒ *Sug'urtaning obyekti*
- ⇒ *Sug'urta himoyasi*
- ⇒ *Sug'urta manfaatdorligi*
- ⇒ *Sug'urta javobgarligi*
- ⇒ *Qayta sug'urta qilish*
- ⇒ *O'zaro sug'urta qilish*
- ⇒ *Sug'urta vakillari*
- ⇒ *Sug'urta guvohnomasi*
- ⇒ *Sug'urta qoplamasini oluvchi*

Quyidagi har bir atamaga alohida-alohida qisqacha tushuntirish berib o'tamiz.

**Sug'urtalovchi.** Sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot. Tabiiy ofat yoki boshqa ko'zda tutilmagan sabablar natijasida ko'rilgan zararlarni sug'urta qonunchiligi yoki sug'urta shartnomasi asosidagi shartlarni ko'zda tutib qoplashni o'z zimmasiga oluvchi tashkilotlar. Bugungi kunda mamlakatimizda 20 tadan ortiq turli mulkchilik shakllaridagi sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

**Sug'urtalanuvchi.** O'ziga tegishli mol-mulkni sug'urta qildirgan korxona, xo'jalik tashkiloti yoki o'z hayotini sug'urtalovchi fuqarolar sug'urtalanuvchi hisoblanadilar. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tashkiloti ro'yxatidan o'tganlar yoki ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnoma tuzib, sug'urta badalini to'laganlar sug'urtalanuvchilar qatoriga kiradi.

**Sug'urtaning obyekti va predmetlari.** Mulk sug'urtasida obyekt sifatida moddiy boyliklar mol-mulk ko'zda tutilsa, shaxsiy sug'urtada fuqarolarni hayoti sog'ligi va mehnat qobiliyati ko'zda tutiladi. Sug'urta predmeti - ana shu obyektlarni tarkibiy qismlaridir, masalan, qishloq xo'jaligi sug'urta obyekti bo'lsa, ekinlar hosili, chorva mollarining soni, mol-mulk xillari, binolar, inshootlar, transport vositalari sug'urta predmeti hisoblanadi. Uy-joyda saqlanuvchi mol-mulk obyekti bo'lsa, uy-ro'zg'or buyumlari, mebellar, gilamlar, televizorlar bu sug'urtaning predmeti hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta predmetiga ma'lum yoshga yetish, mehnat qobiliyatini yo'qotish va vafot etish hodisalari misol bo'la oladi.

**Sug'urta himoyasi.** Sug'urta himoyasi favqulotda, ko'zda to'tilmagan ofatlardan himoya qilishni muhim shartlaridan hisoblanadi. Qadim zamonlardan shaharlar tashkil etilganda hujumlardan himoya qilish uchun devorlar qurilgan va sug'urta himoyasi ham bo'lgan. Bu moddiy jihatdan sug'urta fondidir. Sug'urta himoyasi faqat fond emas, balki yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'langan taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu munosabatlar Respublika, shahar, tuman miqyosidagi obyektlarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan himoyalashni ko'zda tutadi. Bunday himoyalash aholiga tegishli mulklarni har xil sug'urta hodisalaridan asrashga yordam beradi. Bunday himoyalash sug'urtaning oldini olish funksiyasida o'z ifodasini topadi.

**Sug'urta manfaatdorligi.** Sug'urta masalalari bilan shug'ullanish unga nisbatan manfaatdorlikdan boshlanadi. Ishlab chiqarishni xavf-xatardan holi emasligi sababli sug'urtalash masalalariga qiziqish boshlanadi, chunki sug'urta obyekti zararlanganidan sug'urtalanuvchiga zarar summasi beriladi. Bu summa sug'urta qoplamasi deb ataladi. Sug'urtalanuvchi zarar ko'rganda uni qoplash uchun sug'urtalovchidan sug'urta summasini olishdan manfaatdor bo'ladi.

**Sug'urta javobgarligi.** Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining qonunda yoki shartnomada ko'zda tutilgan javobgarligi, o'z zimmasiga olgan majburiyatlari, vazifalari. Agar ko'rsatilgan hodisalaridan biri sodir bo'lsa, u holda sug'urta organlari o'z zimmasiga olgan majburiyat asosida sug'urta qoplamasi to'laydi. Masalan, hayotni aralash sug'urtasida 3 xil sug'urta javobgarligi belgilangan. Shulardan biri shartnomada ko'zda tutilgan yoshga yetish; ikkinchisi, baxtsiz hodisalaridan birining sodir bo'lishi natijasida sog'ligini yo'qotishi; uchinchisi, vafot etish hodisasidir. Bu hodisalaridan biri sodir bo'lsa, sug'urta tashkiloti sug'urta qoplamasini to'lash uchun javobgar hisoblanadi, shuni aytish kerakki, davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'zda tutilgan javobgarlik xususiy sug'urta tashkilotlarida ko'zda tutilgan javobgarlikdan farq qiladi. Bundan tashqari har bir sug'urta tashkiloti sug'urtaning har bir xili bo'yicha o'z javobgarligini o'zi belgilaydi.

**Oqayta sug'urta qilish.** Sug'urtalovchi shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini butunlay yoki qisman boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ga o'tkazishi yoki qayta sug'urta qilish.

Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining roziligi bilan asosiy shartnomani o'zgartirmasdan turib sug'urta shartnomalari asosida o'zining javobgarligi, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan boshqa sug'urta tashkilotlariga topshirib, qayta sug'urta qildirishidir. Sug'urta hodisasi yuz berganda qayta sug'urtalagan tashkilot shartnomaga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatlar doirasida javobgar bo'ladi.

**Birgalikda sug'urta qilish.** Birgalikda sug'urta qilishda ikki yoki undan ortiq sug'urta tashkiloti ma'lum obyektni sug'urtalash yuzasidan bitta sug'urta shartnomasi tuzadi. Bunda shartnomada har bir sug'urtalovchining huquq va majburiyatlarini belgilovchi shartlar bo'lishi kerak.

**Sug'urta vakillari.** Sug'urta vakillari sug'urta xodimlari bo'lib, o'zlariga berilgan vakolatlariga muvofiq sug'urtalovchi nomidan va uning topshirig'i asosida ishlovchi jismoniy yoki yuridik shaxslardir.

**Sug'urta guvohnomasi (polisi).** Sug'urta munosabatlari tashkil etilganligiga guvohlik beruvchi hujjat. Ixtiyoriy sug'urtada bunday hujjat birinchi badal to'langandan keyin beriladi. Sug'urta guvohnomasi (polisi)da xo'jaliklarning nomlari, sug'urtalangan shaxsning nomi, familiyasi, sug'urta summasi yoki qoplamasi, sug'urta tarifi, sug'urta badali va boshqa ma'lumotlar ko'zda tutiladi.

**Sug'urta qoplamasini oluvchi.** Sug'urta qoidalari yoki shartnomalarda ko'zda tutilgan sug'urta hodisalari sodir bo'lganda yoki boshqa sabablar tufayli sug'urta tashkilotlaridan ma'lum miqdorda qoplama (mablag') oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar. Yuridik shaxslar uchun bu mablag'lar ularning hisoblariga o'tkaziladi.

## 2. Sug'urta fondining shakllanishi bilan bog'liq atamalar

Sug'urta fondi asosan sug'urta badallari hisobidan shakllanadi. Sug'urtalanish uchun sug'urta badali to'lanishi kerak. Sug'urta badali milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash asosida ajralib chiqib, maxsus sug'urta fondi tarkibiga kiradi. Yuridik shaxslar, fuqarolar o'z daromadlarining bir qismini sug'urta to'lovi sifatida sug'urta tashkilotlari ixtiyoriga o'tkazadilar.

Sug'urta fondining sug'urta badallari hisobidan shakllanishi o'ziga xos jarayon, u badal miqdorini aniqlash bilan bog'langan qator tushunchalarga egadir. Bu tushunchalarga quyidagilar kiradi.

- ↪ **Sug'urtaviy baholash**
- ↪ **Sug'urta ta'minoti**
- ↪ **Sug'urta summasi**
- ↪ **Sug'urta tarifi**
- ↪ **Sug'urta muddati**
- ↪ **Sug'urta yoshi**
- ↪ **Sug'urta boqimandasi**
- ↪ **Sug'urta to'lovi**

**Sug'urtaviy baholash.** Sug'urtaviy baholash mol-mulk sug'urtasida qo'llaniladi. Sug'urtaviy baholash asosida sug'urta obyektlarining qiymati aniqlanadi. Bu asosida sug'urta badallari hisoblanadi. Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

☒ O'rtacha besh yillik yoki uch yillik hosil. Bu ko'rsatkich ekinlarga nisbatan qo'llaniladi. O'rtacha hosil belgilangandan keyin u natura o'lchovidan pulga aylantiriladi.

☒ Balans qiymati (Chorva mollariga nisbatan qo'llaniladi).

☒ Balans bahosida (eskirgan miqdorini chiqarib tashlab) binolar, mashinalar, transport vositalari.

☒ Kadastr bahosida fuqarolarning turar joylari. Kadastr organlari tomonidan aniqlanadi.

☒ Sug'urta bahosi sug'urta tashkilotlari tomonidan qishloq va shahar joylarda hisoblangan imorat bahosi.

**Sug'urta ta'minoti.** Sug'urta ta'minoti – bu sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mavjud belgilangan tartib asosida zararlarni hisoblash va bu asosda qoplama miqdorini belgilash usulidir. Amalda sug'urta ta'minotining 3 tizimi mavjud:

**1. Sug'urta ta'minotining nisbiy (proporsional) tizimi.**

**2. Birinchi xavf tizimi.**

**3. Chegaralangan sug'urta ta'minoti.**

Nisbiy tizimda sug'urtalanuvchi ko'rgan zararining hammasi emas, balki bir qismi, ya'ni sug'urta qilingan qismi to'lanadi, ya'ni zararining sug'urta bahosiga nisbatan nisbiy qismi belgilanadi. Masalan, savdo tashkiloti do'konidagi tovarlar 5000,0 ming so'mlik. Ulardan faqat 4000,0 ming so'mlik tovarlar (ya'ni 80 foiz) sug'urtalangan. Yong'in natijasida 2000,0 ming so'mlik mol yonib ketgan. Sug'urta ta'minoti 2000,0 ming so'mning 80 foizi, ya'ni 1600,0 ming so'mga teng. Qolgan 20 foizini savdo tashkilotining o'zi qoplaydi.

Birinchi xavf tizimida sug'urtalovchi kishi o'z mol-mulkining hammasini yoki bir qismini sug'urta qilishi mumkin. Ayrim hollarda zarar miqdori sug'urtalangan summasidan ortiq bo'lishi mumkin. Ana shu ortgan qismiga sug'urta ta'minoti berilmaydi. Masalan, uy-ro'zg'or buyumlarining qiymati 500000 so'm Mazkur anjomlarning 300000 so'mi sug'urtalangan. Lekin yong'in natijasida 400000 so'm zarar yetgan. Sug'urta ta'minoti 300000 so'mni tashkil qiladi va uni birinchi xavf deb ataladi. Qolgan 100000 so'mlik qismi sug'urta yo'li bilan qoplanmaydi. Uni ikkinchi xavf deb ataladi. Agar anjomlar 100 foiz miqdorida sug'urtalanganda yetkazilgan zararlarning hammasiga 400000 so'm miqdorida qoplama berilar edi.

Chegaralangan sug'urta taminotida zararni hisoblash uchun mo'ljallangan hosil bilan haqiqiy olingan hosil o'rtasida farq topiladi. Olinishi mumkin bo'lgan hosil uch yillik o'rtacha hosil sifatida belgilanadi: Masalan, 3-yillik o'rtacha hosil 30 sentner. Haqiqiy hosil 25 sentner. Har gektarga ko'rilgan zarar 5 sentner, bir gektar bo'yicha zararni yuqoridagi ekinlarning umumiy

maydoniga ko'paytirilsa, zararining natura miqdori kelib chiqadi. Sug'urta ta'minoti yo'li bilan ko'rilgan zararlar chegaralangan miqdorda qoplanadi:

**Sug'urta summasi.** Bu sug'urta obyektlarining qancha miqdorda (summaga) sug'urta qilinganidir. Majburiy sug'urtada sug'urta summasi sug'urta obyektining hajmi va sug'urta tarifi asosida hisoblanadi. Yo'lovchilar ixtiyoriy sug'urtasida bu summa sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanib, chipta bahosi tarkibiga kiritiladi.

Mulk sug'urtasida bu atama sug'urta ta'minotining pullik ifodasi hisoblanadi.

**Sug'urta tarifi.** Sug'urta summasi miqdoriga qarab hisoblanadigan badalning stavkasidir. Tarif miqdori asosan foiz yoki summa miqdorida belgilanadi. Maxsus adabiyotda bu stavka brutto tarif deb ataladi, u 2 qismga bo'linadi: 1. Netto tarif. 2. Yuklama. Netto tarifi asosida hisoblangan badal summasi zararlarni qoplashga sarflanadi. Yuklama hisobidan sug'urta bo'yicha boshqarish xarajatlariga mablag' ajratiladi. Sug'urta tarifi asosida sug'urta to'lovlari hisoblanadi, sug'urta to'lovlari bir yo'la yoki bo'lib to'lanishi mumkin.

**Sug'urta muddati.** Sug'urta obyektlarining qancha vaqtga sug'urta qilingani. Ixtiyoriy mulkiy va shaxsiy sug'urtada sug'urta muddati - qancha vaqtga sug'urta qilingani shartnomada ko'rsatiladi, shunga qarab sug'urta to'lovlari hisoblanadi. Lekin sug'urta muddatidan uning amal qila boshlash muddatining boshlanishi tushunchalarini farq qilish kerak. Sug'urta muddati sug'urta to'lovining birinchi badali to'langan davrdan boshlanadi.

**Sug'urta yoshi.** Sug'urta yoshi deganda sug'urtalanuvchi fuqarolar yoki chorva mollarining yoshi (biologik kattaligi) ko'zda tutiladi. Har bir shaxsiy sug'urta obyekti bo'yicha, masalan, fuqarolarning qaysi yoshidan boshlab qaysi yoshgacha sug'urta qilinishi, chorva mollarining qaysi yoshdan sug'urtalash boshlanishi ko'zda tutiladi. Qo'shimcha pensiya tayinlash bo'yicha sug'urta badallari har bir yosh bo'yicha ko'rsatiladi. Maktab o'quvchilarini sug'urtalashda ularni yoshlari emas, balki sug'urtalangan yili ko'zda tutiladi.

**Sug'urta boqimandasi.** Sug'urta badallarining to'lash muddatlari majburiy sug'urta bo'yicha yo'riqnomada, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnomada ko'rsatiladi. Agar badal belgilangan to'lov muddatida to'lanmasa, u holda to'lov boqimandaga aylanadi. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lanmagan to'lov shartnomani bekor qilinishiga asos bo'ladi. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha to'lov muddatlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. To'langan kundan boshlab boqimanda tugatilgan hisoblanadi. Sug'urta tashkiloti hisob raqamiga bank muassasasi tomonidan mablag' o'tkazilgan kun boqimanda tugatilib, uning miqdori to'langan kun hisoblanadi, har bir o'z vaqtida to'lanmagan to'lov boqimandaga aylangandan keyin har bir kun uchun jarima hisoblanadi.

**Sug'urta to'lovi.** Sug'urta tarifi asosida hisoblangan sug'urta badali. Sug'urta to'lovi sug'urtalangan mol-mulkning xususiyati va egaligiga qarab bir yoki bir necha obyekt bo'yicha hisoblanishi mumkin. Jamoa xo'jaliklarida sug'urta to'lovlari hosil, chorva mollari, imoratlar va boshqa mol-mulk bo'yicha hisoblanib, ularning jami sug'urta to'lovining umumiy miqdorini tashkil qiladi. Agar bir hovlidagi turar joylarda bir necha kishi egalik qilsa, obyektlarni hajmiga qarab sug'urta to'lovi taqsimlanadi. Sug'urta tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri hisoblangan sug'urta to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urtalanganlarni muddatidan oldin ogohlantirilishidir.

### **3. Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'langan atamalar.**

Respublikamiz hududida har yili majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari hisobiga ulkan sug'urta fondlari shakllanadi. Bu fondlarning sarflanishi dastlab xavf-xatarga bog'liq. Agar sug'urta hodisalari ro'y bermasa, zararni qoplashga sarflanadigan mablag'lar kam miqdorni tashkil qiladi, agar yirik miqyoslarda sug'urta hodisalari sodir bo'lsa, yetkazilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta fondidan mablag' sarflashga to'g'ri keladi. Demak sug'urta fondi mablag'larini sarflash uchun ularni nimalar uchun foydalanish, mablag' ajratish uchun qanday hujjatlarni rasmiylashtirish, sug'urta hodisalarini ko'p yoki kamligiga qarab sug'urta samaradorligi haqida fikr yuritish uchun dastlab quyidagi atamalarni mazmuni bilan tanish bo'lish kerak:



- **Sug'urta xavf-xatari**
- **Sug'urta hodisasi**
- **Sug'urta dalolatnomasi**
- **Sug'urta zarari**
- **Sug'urta rentasi**
- **Sug'urta qoplamasi**

**Sug'urta xavf-xatari.** Xavf-xatar so'zidan bir qancha mazmun va ma'no kasb etadi. Bularning hammasi xavf-xatar va unga nisbatan javobgarlikni ifoda qiladi. Shu munosabat bilan uni xavf-xatarlarning to'plami, deb tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Bu tushuncha sug'urtalangan mulk, sug'urta hodisasi, sug'urta xavfi va boshqa tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi.

**Sug'urta hodisasi.** Sug'urta xavf-xatarida ko'zda tutilgan favqulotda tasodiflardan birortasi sodir bo'lishi. Bunday hodisalarga mulk sug'urtasida tabiiy ofatlar, yong'in, falokat, portlash va boshqalar. Shaxsiy sug'urtada ma'lum yoshga yetish, baxtsiz hodisalarning sodir bo'lishi, vafot hodisalari kiradi. Baxtsiz hodisasi deganda sug'urtalanganing sog'ligiga va hayotiga zarar keltiruvchi favqulotda hodisalar ko'zda tutiladi. Sug'urta hodisasi natijasida ko'rilgan zarar belgilangan miqdorda sug'urta fondi hisobidan qoplanadi.

**Sug'urta dalolatnomasi.** Sug'urta hodisasining sodir bo'lganligini va uning sabablarini tasdiqlab beruvchi rasmiy hujjat. Mulk sug'urtasida dalolatnoma asosida zarar miqdori va unga to'lanadigan qoplama miqdori aniqlanadi. Hujjat qoplama olishga asos bo'ladi. Shaxsiy sug'urtada dalolatnoma baxtsiz hodisani tasdiqlash, uning sug'urtalanuvchining bu hodisa xizmat vazifalarini bajarishda yoki yo'lda bo'lganida sodir bo'lganini aniqlashga, korxona hisobidan sug'urta qilinganda yoki yo'lovchilar majburiy sug'urtasi shartnoma yo'li bilan qoplama olishga asos bo'ladi. Sug'urtaning boshqa xillari bo'yicha dalolatnoma talab qilinmaydi, tibbiyot muassasasining ma'lumotnomasi kifoya qiladi.

**Sug'urtada zarar.** Sug'urtada zarar deganda, sug'urta bahosida ishdan chiqqan yoki bir qismi zararlangan mulk bahosi tushuniladi. Yetkazilgan zararining to'la yoki bir qismi sug'urtalanuvchiga to'lanishi sug'urta qoplamasi deb ataladi. Shaxsiy sug'urtada shikastlangan shaxsga to'lanadigan pul mablag'lari sug'urta miqdori (summasi) deb ataladi.

**Sug'urta rentasi.** Qo'shimcha pensiyani sug'urtalash asosida sug'urtalanuvchiga oy yoki yil davomida to'lanadigan muntazam daromad. Qo'shimcha pensiya agar sug'urta badallarini o'z vaqtida to'lab borilgan bo'lsa, pensiya yoshiga chiqqan oydan boshlab to'lanadi.

**Sug'urta qoplamasi.** Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi tufayli yetkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun ajratilgan mablag'.

#### 4. Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy atamalar.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tadbirlarini kengaytirish, xorijiy mamlakatlar bilan sug'urta hamkorligini mustahkamlash va ularning tajribalaridan samarali foydalanishni taqazo qiladi. Bu tadbirni amalga oshirishning dastlabki shartlaridan biri- xalqaro sug'urta atamalarini o'rganish va ularning mazmuni bilan yaqindan tanishishdir. Mamlakatimizda qo'llanilayotgan xalqaro atamalarining soni kun sayin ortib bormoqda. Lekin ularning ko'plari o'zbek tilida o'z ekvivalentlariga ega emaslar. Shu munosabat bilan xorijiy atama tanlashda birinchi navbatda hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan va qo'llanishi kutilgan atamaga izoh berishga harakat qilamiz.

**Abandon.** Sug'urtalovchidan to'liq sug'urta summasini olish maqsadida sug'urtalanuvchining mulkiga nisbatan voz kechish. Bu ibora ko'p xolatlarda dengizda suzib yuruvchi kemalarni yo'qolib qolishida yohud ularni qaroqchilar tomonidan qo'lga tushirishida ishlatiladi.

**Anderrayter.** Sug'urta kompaniyasining mas'ul bir vakolatiga ega va tegishli riskni o'z zimmasiga oladigan shaxs. Sug'urta kompaniyasini portfeli uchun javob beradi. Sug'urta shartlarini va tarif stavkalarini, hamda risk darajalarini aniqlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.



**Sug'urta kompaniyalarining anderrayter siyosati.** Ma'lum bir sug'urta turlari bo'yicha risklarni sug'urtalash mumkinligi yoki mumkin emasligi haqida qaror qabul qilish bilan bog'liq, sug'urta kompaniyasi tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

**Adendum.** Sug'urta shartnomalariga tomonlarning kelishuviga asosan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritish.

**«Yashil karta».** Xalqaro darajada tan olingan avtomobil haydovchilarning uchinchi shaxs oldidagi mas'uliyatni majburiy sug'urtalanganligi xaqidagi sug'urta polisi, «Yashil karta» tizimiga a'zo mamlakatlar kelishuviga asosan, avtomobil haydovchisi mazkur hududlarda qaytadan uchinchi shaxs oldidagi mas'uliyatni sug'urtalamasdan yurishi mumkin.

**Sug'urta brokeri.** Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachini vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. O'zining statusi bo'yicha broker sug'urtalanuvchining manfaatlari himoya qiladi, uning vakili bo'ladi va uning obyektlarini moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan kompaniyalarda sug'urtalanishni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, ko'rsatilgan xizmatlar uchun broker, sug'urtalanuvchidan emas, balki sug'urtalovchidan tegishli komissiya summasini oladi.

**Pul.** Yirik va xavfli risklarni birgalikda sug'urtalash uchun bir nechta sug'urta kompaniyalarini birlashuvi. Riskni qabul qilib oluvchi kompaniya, pulga a'zo sug'urtalovchilar nomidan yagona polis beradi.

**Shomaj.** Sug'urta hodisalarini ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishning to'xtashi tufayli yuzaga keladigan foyda va boshqa moliyaviy yo'qotishlarni sug'urtalash.

**Lloyd.** O'zining moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqqan holda sug'urta risklarini o'z zimmasiga oluvchi xususiy shaxslarning birlashmasi, shtab-kvartirasi Londonda. Lloyd korporatsiyasi sug'urtalash ishini sug'urtalanuvchi va anderrayter o'rtasida vositachi bo'lgan brokerlar amalga oshiradi. Hozirgi paytda «Lloyd» ga 30 mingdan ortiq obunachi a'zo.

**Dengiz sug'urtasida avariya.** Kemaga yoki kemadagi yukka keltirilgan zarar. Dengiz sug'urtasida «avariya» tushunchasi deganda avariya fakti tushunilmaydi, balki dengizda yukni tashuvchi tomonlarga keltirilgan zararlar tushuniladi. Avariya umumiy va xususiy bo'lishi mumkin. Umumiy avariya kema va yuk o'rtasida taqsimlanadi. Xususiy avariya esa avariya harakatlari ma'lum bir tomonga tushadi, ya'ni avariya bo'lishga kim sababchi bo'lsa.

**Autsayderlar.** Sug'urta assotsiatsiyalari yoki monopolistik guruhlariga a'zo bo'lmagan sug'urta kompaniyalari, brokerlik firmalari.

**Syurveyr.** Sug'urtalovchi yoki sug'urtalanuvchi iltimosiga binoan sug'urta obyektni tekshiruvchi, ko'ruvchi va u haqda xulosa beruvchi ekspert.

**Sug'urta bonusi.** Sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga sug'urta hodisasini oldini olganligi uchun sug'urta to'lovi (mukofoti)dan chegirma yoki pulning bir qismini qaytarish.

**Kargo.** Dengiz, havo, yer yuzi transportida tashilayotgan yuk yoki mulkni sug'urtalash.

**Kasko.** Transport vositasini o'zini sug'urtasi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sug'urtada maxsus atamalardan foydalanishning zarurligi nimada?
2. Sug'urtada foydalaniladigan atamalarni qanday turkumlash mumkin?
3. Sug'urtaning tashkiliy qirralarini ifodalovchi atamalar tarkibiga qaysilar kiradi?
4. Sug'urta fondining shakllanishi bilan bog'liq atamalar tarkibiga qaysilar kiradi?
5. Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'langan atamalar tarkibiga qaysilar kiradi?
6. Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy atamalardan qaysilarini bilasiz?

#### 4-mavzu. Sug'urta klassifikatsiyasi

##### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urtani turkumlashning umumiy asoslari*
2. *Sug'urta sohalari va klasslari*
3. *Tayanch iboralar*

##### **1. Sug'urtani turkumlashning umumiy asoslari.**

Sug'urta ixtisoslashtirilgan sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'lishi mumkin. Ularning faoliyat doirasi ichki, tashqi yoki aralash sug'urta bozorlarini qamrab olgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga rivojlangan sug'urta bozori sharoitida ham davlat ichkarisida, ham chetda amalga oshirilishi mumkin. Bu sug'urtaning tashkiliy turkumlanishidir. Ammo, sug'urta munosabatlarining mazmuni sug'urta obyekt va xavf-xatar turlari bo'yicha turkumlanishi yordamida namoyon bo'ladi.

Sug'urta sug'urtalanuvchilarning turli toifalarini qamrab oladi. Uning shartlari sug'urta mas'uliyatining hajmlari bo'yicha farq qiladi; u qonun kuchida va ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta munosabatlarining turlichaligini tartibga solish va o'zaro bog'liq yagona tizimni shakllantirish uchun sug'urtani turkumlash zarurdir.

Sug'urtaning mohiyatini to'laqonli namoyon qilish, u bo'yicha maqsad va manfaatlarni yetarlicha aks ettira olishga sug'urta kategoriyasini obyektlari bo'yicha turkumlash xizmat qiladi. Sug'urtani obyektlari bo'yicha turkumlanishi natijasida bo'g'inlar hosil bo'ladi. Barcha bo'g'inlar shunday joylashganki, har bir navbatdagi bo'g'in avvalgisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yuqori bo'g'in sifatida – **soha**, o'rta bo'g'in – **tarmoq**, quyi bo'g'in – **sug'urta turlari** hisoblanadi.

Sug'urtani sohalarga bo'lish asosida ularning obyektlari bo'yicha farqlanishi yotadi. Bu omilga mos ravishda barcha sug'urta munosabatlari yig'indisini to'rtta sohaga bo'lish mumkin:

1. **Mulkiy sug'urta.**
2. **Fuqarolar hayot darajasi sug'urtasi.**
3. **Javobgarlik sug'urtasi.**
4. **Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi.**

Mulkiy sug'urtada obyekt bo'lib moddiy qiymatliklar hisoblanadi; fuqarolar hayot darajasi sug'urtasida – ularning hayoti, sog'ligi, mehnatga layoqati; javobgarlik sug'urtasida obyekt bo'lib sug'urtalanuvchilarning turli javobgarliklari, mas'uliyatlari, majburiyatlari hisoblanadi; tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida esa, obyekt vazifasini tadbirkorlik ishlari bo'yicha turli tavakkalchiliklar bajaradi

Biroq, sug'urtani yuqorida sanab o'tilgan sohalarga bo'linishi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning sug'urtani amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi aniq sug'urta manfaatlarini ochib bera olmaydi. Bu manfaatlarini aniqlashtirish maqsadida sug'urta sohalarini sug'urta tarmoqlari va turlariga bo'lish zarur.

Mulkiy sug'urta mulkchilik shakli va sug'urtalanuvchilar toifalaridan kelib chiqib, bir nechta tarmoqlarga bo'linadi: davlat korxonalari mulki sug'urtasi, jamoa xo'jaliklari, ijarachilar, shirkatlar, xissadorlik jamiyatlari va jamoatchilik tashkilotlari mulki sug'urtasi hamda fuqarolar mulki sug'urtasi.

Fuqarolarning hayot darajasi sug'urtasi ikkita tarmoqqa ega: ishchilar, xizmatchilar va jamoa xo'jaliklari a'zolarining ijtimoiy sug'urtasi hamda fuqarolar shaxsiy sug'urtasi.

Javobgarlik sug'urtasi esa quyidagi tarmoqlarga ega: qarz sug'urtasi hamda yetkazilgan zararni qoplash sug'urtasi. Bu fuqarolik javobgarligi sug'urtasi ham deb yuritiladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida ikkita tarmoq mavjud: daromadlarni bevosita hamda bilvosita yo'qotilish tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Sug'urtalanuvchilarni sug'urtalovchilar bilan sug'urta munosabatlariga kirishi va sug'urtalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida sug'urta tarmoqlarini konkret sug'urta turlariga bo'lish zarurati paydo bo'ladi.

Mulkiy sug'urtaning bunday konkret turlariga qurilmalar, chorva hayvonlari, ro'zg'or buyumlari, transport vositalari, qishloq xo'jalik ekinlari hosili va boshqa turli xo'jalik kategoriyalari sug'urtasi misol bo'la oladi.

Ijtimoiy sug'urtaning konkret turlariga pensiya va turli nafaqalar sug'urtasi kiradi.

Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urtaning quyidagi turlari amalga oshiriladi: hayotni aralash sug'urtasi, o'lim holati va mehnatga layoqatini yo'qotishdan sug'urtalash, bolalar sug'urtasi, qo'shimcha pensiya sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va boshqalar.

Javobgarlik sug'urtasi bo'yicha – kreditni yoki boshqa qarzlarni qaytara olmaslikdan sug'urtalash, yuqori xavf-xatar manbalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, xo'jalik faoliyati jarayonida zarar yetkazish holati bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtasi va boshqalar.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi dastgoxlarni to'xtab qolishi, savdodagi to'xtalishlar natijasida zarar qurish yoki foyda ololmaslik sug'urtasi, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash tavakkalchiliklari sug'urtasi va boshqa turlarga bo'linadi.

## 2. Sug'urta sohalari va klasslari

O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi yangi qonunchiligida sug'urta sohalari va turlariga ham tushuntirishlar berib o'tilgan. Unga ko'ra sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

**hayotni sug'urta qilish** (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

**umumiy sug'urta** (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining 1-ilovasida sug'urta faoliyatining klassifikatori berilgan bo'lib, unga muvofiq hayotni sug'urta qilish sohasi 4 ta klassga va umumiy sug'urta sohasi 17 ta klassga ajratilgan.

*Hayotni sug'urta qilish sohasi o'z tarkibiga quyidagi klasslarni oladi:*

| Klass tartib raqami | Klassning nomi       | Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|---------------------|----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| I klass             | Hayot va annuitetlar | <p>Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi;</li> <li>- sug'urta qilinuvchining vafot etishi;</li> </ul> <p>shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy</p> |

|           |                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|-----------|----------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|           |                                              | to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| II klass  | <b>Nikoh va tug'ilish</b>                    | Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| III klass | <b>Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish</b> | Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| IV klass  | <b>Sog'liqni sug'urta qilish</b>             | Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summolari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas |

*Umumiy sug'urta sohasi esa quyidagi klasslardan tashkil topadi:*

| <b>Klass tartib raqami</b> | <b>Klassning nomi</b>                                      | <b>Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|----------------------------|------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-klass                    | <b>Baxtsiz hodisalar-dan ehtiyot shart sug'urta qilish</b> | Quyidagi hollarda:<br>a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud;<br>b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud;<br>v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami |
| 2-klass                    | <b>Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish</b>           | Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| 3-klass                    | <b>Er usti transport vositalari-ni sug'urta qilish</b>     | Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| 4-klass                    | <b>Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi</b>                 | Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |

|          |                                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|----------|-----------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|          | <b>sug'urta qilish</b>                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| 5-klass  | <b>Aviatsiya sug'urtasi</b>                                           | Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunolari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami                                                                                                                                       |
| 6-klass  | <b>Dengiz sug'urtasi</b>                                              | Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunolari, asbob-uskunolari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami                                                                                                                 |
| 7-klass  | <b>Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish</b>                            | Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami                                                                                                                                                      |
| 8-klass  | <b>Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish</b>        | Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yer osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami |
| 9-klass  | <b>Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish</b>                            | 8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami                                        |
| 10-klass | <b>Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish</b>                   | Er usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami                                  |
| 11-klass | <b>Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish</b> | Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami                                                                                             |
| 12-klass | <b>Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish</b>      | Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami                                                                               |
| 13-klass | <b>Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish</b>                | 10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami                                                                                                   |

|          |                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|----------|--------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 14-klass | <b>Kreditlar-ni sug'urta qilish</b>                                      | Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| 15-klass | <b>Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish</b>                         | Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| 16-klass | <b>Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish</b>             | Quyidagi hollarda:<br>a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda;<br>b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari);<br>v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami |
| 17-klass | <b>Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlar-ni sug'urta qilish</b> | Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |

### 3. Tayanch iboralar

**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**Sug'urta klassi** - muayyan umumiy belgilar bo'yicha birlashtirilgan sug'urta turlari yig'indisi.

**Sug'urta turi** - sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan va sug'urta qildiruvchiga sug'urtaning bir yoki bir nechta klassi doirasida ko'rsatiladigan aniq sug'urta xizmati.

**Majburiy sug'urta** – sug'urta shakllaridan biri bo'lib, unda sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta munosabatlari qonun kuchida yuzaga keladi.

**Ixtiyoriy sug'urta** - tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta munosabatlari.

**Sug'urta summasi** – sug'urta obyektni haqiqatda sug'urtalangan qismining pul ko'rinishidagi qiymati.

**Sug'urta shartnomasi** – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi sug'urta turi shartlariga mos ravishda ularning o'zaro majburiyatlarini tartibga soluvchi kelishuv (huquqiy bitm).

**Sug'urta limiti** – moddiy qiymatliklar va sug'urtaviy mas'uliyatlarni sug'urtalash mumkin bo'lgan maksimal pul summasi.

**Sug'urta himoyasi** – konkret obyekt tomonidan ko'rilgan zararni bartaraf qilish yoki qoplash bo'yicha munosabatlar.

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.



**Sug'urta qildiruvchi** – sug'urta badallarini to'lovchi va konkret sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Sug'urtalanuvchi** – hayoti, sog'ligi yoki mehnatga layoqati sug'urta obyekti bo'lgan shaxs.

**Sug'urta mas'uliyati** – sug'urtalovchining sug'urta holatlari ro'y berganda sug'urta qoplamalari yoki sug'urta summalarini to'lash bo'yicha majburiyati.

**Sug'urta guvohnomasi (polisi)** – sug'urta amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta tarifi** – sug'urta summasiga nisbatan foiz stavkasi.

**Sug'urta badali (mukofoti)** – sug'urta summasiga nisbatan belgilangan sug'urta tarifi bo'yicha pul to'lovi.

**Sug'urta muddati** – sug'urta obyektining sug'urtalangan davri.

**Sug'urta holati** – sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi to'lanishi kerak bo'lgan turli salbiy va boshqa kelishilgan oqibatlarga olib keluvchi haqiqatda sodir bo'lgan holatlar.

**Sug'urta dalolatnomasi** – o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladigan va sodir bo'lgan sug'urta holatini hamda sabablarini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta qoidolari** – ixtiyoriy sug'urta shartlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlardan biri.

**Fuqarolik javobgarligi** – fuqaro va yuridik shaxslarning uchinchi shaxslar (jismoniy va huquqiy) oldidagi qonunchilikda ko'zda tutilgan javobgarlikning bir turi bo'lib, u zarar yetkazuvchining harakat yoki harakatsizligi natijasida uchinchi shaxsga zarar yetkazilganda yuzaga keladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sug'urtani turkumlashning zarurligi nimada?
2. Sug'urtani turkumlashning umumiy asoslari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasining sug'urtaga doir qonunchiligiga binoan sug'urta qanday sohalarga bo'linadi?
4. Sug'urta sohalari qanday klasslarga bo'linadi?

## 5-mavzu. Sug'urta munosabatlarini tashkil etish shakllari

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urtaning shakllari haqida tushuncha*
2. *Majburiy va ixtiyoriy sug'urta tamoyillari*
3. *Tayanch iboralar*

### 1. Sug'urtaning shakllari haqida tushuncha

Turkumlanishning barcha bo'g'inlari sug'urtani amalga oshirish shakllarini qamrab oladi, ya'ni **majburiy** va **ixtiyoriy**.

Tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta *ixtiyoriy sug'urta* hisoblanadi.

Ixtiyoriy sug'urtaning shartlari tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining huquqlari hamda burchlari, shuningdek, har bir sug'urta turining aniq shartlari tegishli sug'urta shartnomalari bilan belgilab quyiladi.

Ixtiyoriy sug'urta turlarining umumiy shartlari va uni amalga oshirishning tartiblari sug'urta qoidalarida o'z aksini topadi. Ixtiyoriy sug'urta turlarining qoidalari sug'urtalovchilar tomonidan qonunchilik talablariga muvofiq tarzda mustaqil ishlab chiqiladi hamda sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini olish uchun sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qiluvchi organdan litsenziya olish paytida kelishiladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq majburiy sug'urta amalga oshiriladi. Majburiy sug'urta turlari, shartlari va uni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqiga davlat sug'urta tashkilotlari ega bo'lib kelganlar, biroq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq ustav kapitali hajmini 500 ming AQSh dollariga teng miqdorga yetkazgan har qanday sug'urta kompaniyasi litsenziya asosida majburiy sug'urta bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldilar (2010-yil 1 yanvardan 1500 ming yevroga ekvivalent summada). Shu bilan birga sug'urta tashkilotlari majburiy sug'urta qilinishi lozim bo'lgan obyektlarning but saqlanishi ustidan nazorat o'rnatishga haqlidirlar.

Majburiy sug'urta sug'urta bo'lgan ijtimoiy (umumdavlat) talabni aks ettiradi. Davlat qonunchilik asosida ushbu maqsadlar uchun sug'urtaning majburiylikini o'rnatadi. Buning natijasi o'laroq, tegishli majburiy sug'urta turi haqidagi qonun qabul qilinadi. Shunday qilib, majburiy sug'urta – qonun kuchidagi sug'urtadir.

Majburiy sug'urta, sug'urtani tashkil etish shakli sifatida, umumiylik sifatidagi muhim xususiyatga egadir. Majburiy sug'urtaning obyekti hayot, sog'lik, mol-mulk, fuqarolik javobgarligi bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlar hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan majburiy sug'urta turlariga quyidagilar kiradi: yo'lovchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; parvozlarda qatnashuvchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; harbiylarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; ko'mir, neft, gaz konlarida ishlovchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; soliq organlari xodimlarining davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; temir yul texnika xizmat ko'rsatuvchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi; auditorlarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi; notariuslarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi va boshqalar.

## 2. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta tamoyillari

Majburiy sug'urtani ajratib turuvchi tamoyillar quyidagilar.

**1. Majburiy sug'urta qonun yo'li bilan o'rnatiladi.** Shunga mos ravishda sug'urta qildiruvchi tegishli obyektlarni sug'urtalashga, sug'urtalovchilar esa, sug'urta hodisalari ro'y berganda tegishli sug'urta to'lovlarini to'lashga majburdirlar.

Qonunchilik odatda quyidagilarni belgilab beradi:

- majburiy sug'urtalanishi lozim bo'lgan obyektlar tarkibini;
- sug'urta javobgarligi hajmini;
- sug'urta ta'minoti darajasi va me'yorlarini;
- tarif stavkalari miqdorlari va ularni o'rnatish tartibini;
- sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatlarini.

**2. Qonunda ko'rsatilgan majburiy sug'urta obyektlarini yoppasiga sug'urtaga qamrab olish.** Buning uchun sug'urta organlari mamlakatda har yili sug'urtalangan obyektlarni, hisoblangan sug'urta badallarini va ularni o'rnatilgan muddatlarda undirilishini hisobga olib boradilar.

**3. Qonunda ko'rsatilgan obyektlarga majburiy sug'urtaning avtomatik ravishda qo'llanilishi.** Sug'urtalanuvchi yangi obyekt paydo bo'lganligi haqida sug'urta organlariga xabar berishi shart emas. Bu obyekt sug'urta sohasiga avtomatik ravishda qo'shiladi. Navbatdagi ro'yxatga olish davrida hisobga olinadi va sug'urtalanuvchiga to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta badallari ko'rsatiladi.

**4. Majburiy sug'urtani sug'urta badallari to'lanishidan qat'iy nazar amal qilishi.** Agarda sug'urta qildiruvchi tegishli sug'urta badallarini to'lamagan hollarda, badallar sud orqali undirib olinishi mumkin. Sug'urta badallari to'lanmagan obyektga nisbatan sug'urta javobgarligi amal qilaveradi, faqatgina sug'urta badallari bo'yicha qarz va kechiktirilgan kunlar uchun jarima summasi ushlab qolinadi.

**5. Majburiy sug'urtaning muddatsizligi.** Majburiy sug'urta sug'urtalangan obyekt mavjud bo'lgan davrning to'la qismida amal qiladi.

**6. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minotining me'yorlashtirilishi.** Sug'urtaviy baholash va sug'urtaviy qoplash tartibini soddalashtirish maqsadida sug'urta bahosiga nisbatan foizlarda yoki bir obyektga so'mlarda sug'urta ta'minotining me'yorlari belgilanadi.

Sug'urtaning ixtiyoriy shakli quyidagi tamoyillar asosida qurilgan.

**1. Ixtiyoriy sug'urta qonunchilik asosida va ixtiyoriy ravishda amal qiladi.** Qonunchilik ixtiyoriy sug'urtaga tegishli obyektlarni va sug'urtaning umumiy shartlarini belgilab beradi. Konkret shartlar esa, sug'urtalovchilar tomonidan ishlab chiqiladigan sug'urta qoidalarini orqali tartibga solinadi.

**2. Sug'urtada ixtiyoriy qatnashish to'la holda faqat sug'urtalanuvchilar uchun xarakterlidir.** Agar sug'urtalanuvchining xohishi sug'urta qoidalariga zid kelmasa, sug'urtalovchi obyektini sug'urta qilishdan bosh tortish huquqiga ega emas. Bu tamoyil sug'urtalanuvchining birinchi talabi bo'yicha sug'urta shartnomasi tuzilishini kafolatlaydi.

**3. Ixtiyoriy sug'urtani tanlab qamrab olishi.** Barcha shaxslar ham unda ishtirok etish istagini bildiravermaydilar. Bundan tashqari, shartnomalar tuzishda sug'urta shartlari bo'yicha chegaralashlar ham amal qiladi.

**4. Ixtiyoriy sug'urta doimo sug'urta muddati bilan chegaralanadi.** Bunda muddatning boshlanishi va tugashi shartnomada qat'iy kelishib olinadi. Shundan kelib chiqib, sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi sug'urta holati faqatgina sug'urta davrida sodir bo'lgandagina to'lanadi. Ixtiyoriy sug'urtaning uzluksizligini faqatgina yangi muddatga qayta shartnoma tuzish yo'li bilangina ta'minlash mumkin.

**5. Ixtiyoriy sug'urta faqatgina bir martalik yoki davriy sug'urta badallari to'langandagina amal qiladi.** Ixtiyoriy sug'urta shartnomasining kuchga kirishi bir martalik yoki

birinchi sug'urta badalini to'lanishi bilan asoslanadi. Uzoq muddatli sug'urta bo'yicha navbatdagi badalning to'lanmasligi natijasida shartnomaning amal qilishi to'xtaydi.

**6. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minoti sug'urtalanuvchi istagidan kelib chiqadi.** Mulkiy sug'urta bo'yicha sug'urtalanuvchi sug'urta summasini sug'urta bahosi chegarasida belgilashi mumkin. Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urta summasi shartnomada tomonlar kelishuvi orqali belgilanadi.

### 3. Tayanch iboralar.

**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**Majburiy sug'urta** – sug'urta shakllaridan biri bo'lib, unda sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta munosabatlari qonun kuchida yuzaga keladi.

**Ixtiyoriy sug'urta** - tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta munosabatlari.

**Sug'urta summasi** – sug'urta obyektni haqiqatda sug'urtalangan qismining pul ko'rinishidagi qiymati.

**Sug'urta shartnomasi** – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi sug'urta turi shartlariga mos ravishda ularning o'zaro majburiyatlarini tartibga soluvchi kelishuv (huquqiy bitm).

**Sug'urta limiti** – moddiy qiymatliklar va sug'urtaviy mas'uliyatlarni sug'urtalash mumkin bo'lgan maksimal pul summasi.

**Sug'urta himoyasi** – konkret obyekt tomonidan ko'rilgan zararni bartaraf qilish yoki qoplash bo'yicha munosabatlar.

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Sug'urta qildiruvchi** – sug'urta badallarini to'lovchi va konkret sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Sug'urtalanuvchi** – hayoti, sog'ligi yoki mehnatga layoqati sug'urta obyekti bo'lgan shaxs.

**Sug'urta mas'uliyati** – sug'urtalovchining sug'urta holatlari ro'y berganda sug'urta qoplamalari yoki sug'urta summalarini to'lash bo'yicha majburiyati.

**Sug'urta guvohnomasi (polisi)** – sug'urta amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta tarifi** – sug'urta summasiga nisbatan foiz stavkasi.

**Sug'urta badali (mukofoti)** – sug'urta summasiga nisbatan belgilangan sug'urta tarifi bo'yicha pul to'lovi.

**Sug'urta muddati** – sug'urta obyektining sug'urtalangan davri.

**Sug'urta holati** – sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi to'lanishi kerak bo'lgan turli salbiy va boshqa kelishilgan oqibatlariga olib keluvchi haqiqatda sodir bo'lgan holatlar.

**Sug'urta dalolatnomasi** – o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladigan va sodir bo'lgan sug'urta holatini hamda sabablarini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta qoidalari** – ixtiyoriy sug'urta shartlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlardan biri.

**Fuqarolik javobgarligi** – fuqaro va yuridik shaxslarning uchinchi shaxslar (jismoniy va huquqiy) oldidagi qonunchilikda ko'zda tutilgan javobgarlikning bir turi bo'lib, u zarar yetkazuvchining harakat yoki harakatsizligi natijasida uchinchi shaxsga zarar yetkazilganda yuzaga keladi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Sug'urta qanday shakllarda amalga oshiriladi?
2. Ixtiyoriy sug'urtaning xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Majburiy sug'urta, uning amal qilish shartlari va tartibi kim tomonidan belgilanadi?
4. Majburiy sug'urtani joriy qilishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
5. Majburiy sug'urta qanday tamoyillar asosida amal qiladi?
6. Ixtiyoriy sug'urta qanday tamoyillarga asoslanib quriladi?

## 6-mavzu. Mustaqillik yillari O'zbekistonda sug'urtani rivojlanish bosqichlari

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan sug'urta sohasida ro'y bergan o'zgarishlar*
2. *Sug'urta sohasida olib borilayotgan islohotlar*
3. *Tayanch iboralar*

### 1. O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan sug'urta sohasida ro'y bergan o'zgarishlar

1991-yilning noyabr oyida «Mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» qonunning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasida keng miqyosda davlatga tegishli bo'lgan korxonalarni ijaraga topshirish, ularni aksionerlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Iqtisodiy islohotlar kuchli ijtimoiy siyosatni uyg'unlashtirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Xususiylashtirishning birinchi bosqichida, ya'ni 1992-1993-yillarda, davlatga qarashli kichik korxonalar va uy-joy fondi eng kam narhlarda, asosan, korxonaning xodimlariga sotildi. Bu davrda 54000 korxona xususiylashtirildi, 18000 dan ortiq oilaviy korxonalar va 26000 ta aksionerlik jamiyati tashkil etildi. Shuningdek, mazkur bosqichda 700 dan ortiq davlat qishloq xo'jaligi korxonalari jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi.

Ma'lumki, ilgari hamma korxonalar davlatning ixtiyorida bo'lganligi tufayli, ularni har xil noxush hodisalardan sug'urta qilishga ehtiyoj bo'lmagan. Sababi, ushbu korxonalarga sug'urta hodisalari natijasida zarar yetkazilsa, bu zararlar davlat mablag'lari hisobidan bema'lol qoplanaverar edi. Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mol-mulkni davlat ixtiyoridan chiqarish va xususiylashtirish natijasida nodavlat sektorida o'n minglab korxonalarni paydo bo'lishi, o'z-o'zidan, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni sezilarli ravishda oshirdi. Negaki, ilgari tajribadan farqli o'laroq, nodavlat sektoridagi korxonalar stixiyali hodisalar tufayli zarar ko'rganda, bu zararlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanmaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga qo'shimcha ravishda ta'kidlash lozimki, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar sug'urta tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Davlat sug'urta tashkilotlariga raqobatbardosh xususiy sektorda mustaqil sug'urta kompaniyalari vujudga kela boshladi. Bu shubhasiz, ularning faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun qabul qilishni talab etdi. 1993-yilning 6 mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (hozirgi Oliy Majlis) "Sug'urta to'g'risida» qonun qabul qildi. Ushbu qonun sug'urtani rivojlantirishning, sug'urta bozorini shakllantirishning huquqiy asoslarini, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sug'urtaning mavqei va o'rnini belgilab berdi, fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablari to'liqroq qondirilishini kafolatladi, sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilinishi va majburiyatlariga rioya etilishini ta'minladi. Shunisi diqqatga sazovarki, mazkur qonunda davlat sug'urtasining monopoliyasiga barham berildi. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, davlat sug'urta tashkilotlari va nodavlat sug'urta tashkilotlari uchun teng sharoitlar yaratildi.

1992-1994-yillarda iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida monopoliyaga barham berilish va xususiylashtirish jarayoni kuchayishiga qaramasdan, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta muassasalarining ustunligi saqlanib qoldi. Mamlakatning shahar va qishloq joylaridagi asosiy sug'urta operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan amalga oshirildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan jami 2415,1 mln. rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan. Bu ko'rsatkich 1991-yilda yig'ib olingan sug'urta badallaridan uch marta



ko'pdir. Agar, ushbu davrda sug'urta badallari tarkibini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, umumiy hajmda shaxsiy sug'urtaning ulushi kam ekanligini ko'ramiz. Xususan, 1991-yilda sug'urta badallarining umumiy hajmida shaxsiy sug'urtaning ulushi 38,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1992-yilda bu ko'rsatkich – 16,2 foizni tashkil etdi. Buning asosiy sababi, pulning qadsizlanishi va o'sha paytda ijtimoiy- iqtisodiy hayotda ro'y bergan tangliklar bilan bog'liqdir. Shaxsiy sug'urta turi bo'yicha 1990-yilda 6915,9 ming shartnomalar tuzilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1992-yilda 2624,0 mingni tashkil etdi yoki shartnomalar soni 2,6 martaga kamaydi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yuridik shaxslarning mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilish iqtisodiy nuqtai-nazardan samarali hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy islohotlarning mohiyati ham ko'proq korxonalarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Bunday chora-tadbirlardan biri korxonalarni mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilishdir. 1992-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, davlat sug'urta organlari tomonidan yig'ib olingan jami sug'urta badallari hajmida mol-mulk sug'urtasining ulushi keskin kamayib ketdi.

1992-1994 va undan keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazish faqat davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi. Bunday sug'urta turlariga qishloq xo'jalik mol-mulkini sug'urtasi, fuqarolarni mol-mulkini sug'urtasi va yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urta qilishni o'z ichiga olgan edi. Shu yerda ta'kidlash zarurki, 1991-yilning 1 yanvaridan sobiq ittifoq hududida qishloq xo'jaligi korxonalari mol-mulkini majburiy sug'urta qilish bekor qilingan edi. Ammo, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblangani uchun, bu tarmoqqa qarashli mol-mulklarni sug'urta qilish ishlari uzluksiz davom ettirildi. 1993-yilning oxirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, qishloq xo'jaligi korxonalari mol-mulkini majburiy sug'urta qilish joriy etildi.

1992-yil boshlarida O'zbekistonda nodavlat sektorida o'nga yaqin sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatdi. Ular, davlat sug'urta tashkilotlaridan farqli o'laroq, amaldagi sug'urta qilish qoidalarini ancha takomillashtirdilar. Jumladan, sug'urta badali stavkasini kamaytirgan holda sug'urta javobgarligi hajmini kengaytirdilar. 1992-yil davomida mamlakatda «Umid» qo'shma sug'urta kompaniyasi, «Inobat», «Ishonch», «Temir yo'lchi» kabi bir qator nodavlat sug'urta tashkilotlari turli xil sug'urta operatsiyalarini amalga oshirdilar.

1993-1994-yillar davomida sug'urta sohasida monopoliyadan chiqarilish jarayoni bir muncha tezlashdi. 1994-yil oxirlarida mamlakat nodavlat sektorida 60 dan ortiq sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsata boshladi. 1993-yilda davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan jami 26892,8 mln. rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan va uning qariyb 81,3 foizi majburiy sug'urta turlaridan kelib tushgan. Aniqroq qilib ta'kidlaydigan bo'lsak, ushbu kelib tushgan majburiy sug'urta badallarining 79,4 foizi yoki 21,4 mlrd. rubli qishloq xo'jalik korxonalarining mol-mulkini sug'urta qilishdan kelib tushgan. Mol-mulklarni ixtiyoriy sug'urta qilish va shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan badallar umumiy sug'urta tushumlarida tegishli ravishda 7,3 va 9,4 foizlarni tashkil etdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 1993-yilda davlat sug'urta muassasalari 12,8 mlrd. rublni bevosita sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplashga sarfladi. 1994-yilning 1 iyulida Moliya Vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi fuqarolar tomorqalaridagi qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik dov-daraxtlarni ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalarini tasdiqladi. Bu qoidalariga ko'ra, kartoshka, sabzovat, poliz ekinlari, ko'chatlar, tomorqada o'stirilayotgan mevali, rezavor hamda boshqa ko'p yillik daraxt, buta – o'simliklar ixtiyoriy sug'urtaga olindi. Sug'urta badallarining stavkalari qishloq xo'jaligi ekinlari turlariga qarab belgilandi. Masalan, bir yillik va ko'p yillik ekilgan o'tlar uchun sug'urta badalining stavkasi sug'urta summasiga nisbatan 7 foiz miqdorida belgilandi.

1993-1994-yillarda nodavlat sug'urta tashkilotlari ichida eng ko'p sug'urta operatsiyalarini amalga oshirgan hamda eng dastlabki nodavlat sektoridagi sug'urta kompaniyalaridan biri – «ARK sug'urta guruhi»dir. Bu kompaniya ilk marta 1991-yilning 21 fevralida «ASTROVAZ» nomi bilan rossiyalik hamkorlar yordamida tashkil etildi. 1992-yilning yanvar oyida Rossiyalik hamkorlar ta'sischi sifatidan chiqarildi. Shu yilning 24 iyunida «ASTROVAZ» yopiq turdagi aksionerlik



jamiyatiga aylantirildi. 1993-yilning mart oyidan boshlab bu tashkilot «ARK sug'urta guruhi» deb atala boshlandi. U, asosan, O'zbekiston hududida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar vakolatxonalari, elchixonalarining mol-mulkini sug'urtalash bilan shug'ullangan.

«ARK sug'urta guruhi» bilan bir qatorda 1992-1994-yillarda «Umid» osiyo sug'urta kompaniyasi ham nisbatan faol sug'urta qilish ishlarini amalga oshirdilar. Bu kompaniyaning asosiy ta'sischilari O'zbekiston Respublikasi hom-ashyo birjasi va Pokiston Islom Respublikasidan bo'lgan hamkorlardir. Ushbu kompaniya dastlab, eksport-import yuklarini, transport vositalarini sug'urtalashga ixtisoslashdi. Keyinchalik «Umid» osiyo sug'urta kompaniyasi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida qarz oluvchilar tomonidan qaytarib bera olmaslik tavakkalchiligini sug'urta qila boshladi. Hozirgi paytda «Umid» sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini to'xtatgan.

Yuqorida bayon etilganlar shundan dalolat beradiki, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta tashkilotlari bilan bir qatorda xususiy, aksionerlik va boshqa mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari ham raqobat asosida faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

## **2. Sug'urta sohasida olib borilayotgan islohotlar**

Umuman, sug'urtaning insoniyat hayotidagi va iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyos. Buni e'tiborga olib, mamlakatimizda bozor infratuzilmasining ushbu bo'g'inini rivojlantirishga katta e'tibor berilyapti.

Birgina 2002-yilda sug'urta sohasini rivojlantirish yuzasidan davlat miqyosida bir qator chora-tadbirlarning belgilanganligi fikrimizning tasdig'idir. Xususan, 2002-yilning 31 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining e'lon qilinishi sug'urta tizimini taraqqiy ettirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Mazkur Farmonga muvofiq, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha sug'urta tashkilotlari 2002-yilning 1 fevralidan boshlab uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002-yil 27 noyabrda qabul qilgan qarori sohani rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston hukumati tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, sug'urta bozorini bosqichma-bosqich isloh qilish tamoyili amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanishi davrida sug'urtalashning huquqiy bazasiga va sug'urta sohasida bozor tuzilmasini rivojlantirishga poydevor qo'yildi, misol uchun sug'urtalashda tomonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi va respublikada sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning tamoyillarini belgilovchi xalqaro andozalarga mos keluvchi hamda talablarga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni 2002-yil 5 aprelda qabul qilindi. Aytish kerakki, yangi qonun yurtimizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarida o'tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizda olib borilayotgan erkinlashtirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu qonunning qabul qilinishi sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va manfaatlarini himoyalashga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Sug'urta sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjati normalari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Jumladan, rivojlangan chet mamlakatlardagidek bizda ham sug'urta xizmatlari bozori ikkiga ajratildi: hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq xizmatlar bozori va umumiy sug'urta xizmatlari bozori. Hayotni sug'urta qilishga ixtisoslashgan tashkilotlar umumiy sug'urta turlarini o'tkazish, umumiy sug'urta turlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar esa hayotni sug'urtalash huquqiga ega bo'lmaydi. To'g'ri, bizda hayotni sug'urta qilish, ayniqsa, uzoq muddatli sug'urta turlarini rivojlantirishda ba'zi muammolar mavjud. Bu sug'urta turini amalga oshirish uchun fuqarolarda sug'urta tashkilotlariga ishonch bo'lishi bilan bir qatorda yetarli miqdorda mablag' ham bo'lishi zarur. Faqat hayot sug'urtasi bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda emas, balki korxona va tashkilotlarning mol-mulki hamda boshqa ixtiyoriy sug'urta turlarini o'tkazishda ham talay

muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish sug'urta tashkilotlari va ularning salohiyatli mijozlari bo'lmish ko'pining sonli aholi, yuridik shaxslarning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Jamiyatda aholi va korxona hamda tashkilot rahbarlarining sug'urtaga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish lozim. Bu, o'z navbatida, sug'urta tashkilotlari tomonidan faol tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Bugun yurtimizda xizmat ko'rsatish tarmog'i jadal suratlar bilan rivojlanayotgan bo'lib, bunga sug'urta kompaniyalarining faoliyat doirasi ham tobora kengayib borayotgani yorqin misol bo'la oladi. Hozirda mazkur bozorda yangi sug'urta ishtirokchilarining yuzaga kelayotgani mavjud sug'urta turlarini yanada ko'paytirish hamda shu orqali keng toifadagi yuridik va jismoniy shaxslarni sifatli sug'urta xizmatlari bilan ta'minlash imkonini bermoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi PQ-618-sonli «Sug'urta bozorini isloh qilish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori muhim omil bo'ldi. Umuman aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda sug'urta xizmatlari bozorini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, jismoniy va yuridik shaxslarning sug'urta bozorida faol ishtirok etishini rag'batlantirish maqsadida sug'urta kompaniyalari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, bozordagi sog'lom raqobat muhitini ham shakllanishiga olib kelmoqda.

Sug'urta tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish sug'urta bozorida turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlarning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar sug'urta tizimining jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish, jahon andozalariga mos, sifatli xizmat ko'rsatish hamda sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish imkonini berayotir.

Ayni vaqtda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan o'ttizdan ortiq ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari tomonidan mijozlarga ikki yuzdan ortiq turda xizmat ko'rsatilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maoruzasida bozor iqtisodiyoti institutlari, xususan, sug'urtaning zamonaviy shakllarini keng rivojlantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Mamlakatimiz sug'urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-872-sonli Qarorining qabul qilinishini aytishimiz mumkin. Unga asosan, sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining taklifiga binoan 2010-yilning 1 yanvaridan boshlab sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlarini oshirish belgilandi.

### 3. Tayanch iboralar

**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**Sug'urta bozori** – sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

**Sug'urta summasi** – sug'urta obyektini haqiqatda sug'urtalangan qismining pul ko'rinishidagi qiymati.

**Sug'urta shartnomasi** – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi sug'urta turi shartlariga mos ravishda ularning o'zaro majburiyatlarini tartibga soluvchi kelishuv (huquqiy bitm).

**Sug'urta limiti** – moddiy qiymatliklar va sug'urtaviy mas'uliyatlarni sug'urtalash mumkin bo'lgan maksimal pul summasi.

**Sug'urta himoyasi** – konkret obyekt tomonidan ko'rilgan zararni bartaraf qilish yoki qoplash bo'yicha munosabatlar.

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Sug'urta qildiruvchi** – sug'urta badallarini to'lovchi va konkret sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Sug'urtalanuvchi** – hayoti, sog'ligi yoki mehnatga layoqati sug'urta obyekti bo'lgan shaxs.

**Sug'urta obyekti va predmetlari** – sug'urtalashga tegishli bo'lgan moddiy qiymatliklar, inson hayoti, sog'ligi, mehnatga layoqati, javobgarliklar va mas'uliyatlar.

**Sug'urta mas'uliyati** – sug'urtalovchining sug'urta holatlari ro'y berganda sug'urta qoplamalari yoki sug'urta summalarini to'lash bo'yicha majburiyati.

**Sug'urta fondi** – sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladigan hamda sug'urta holati natijasida sug'urtalanuvchining ko'radigan zararini oldini olish, lokalizatsiya qilish va qoplashga mo'ljallangan sug'urta rezervlari yig'indisi.

**Sug'urta holati** – sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi to'lanishi kerak bo'lgan turli salbiy va boshqa kelishilgan oqibatlariga olib keluvchi haqiqatda sodir bo'lgan holatlar.

**Sug'urta dalolatnomasi** – o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladigan va sodir bo'lgan sug'urta holatini hamda sabablarini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta portfeli** – sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan badallar yig'indisi yoki tuzilgan va to'langan shartnomalar soni.

**Sug'urta qoidalari** – ixtiyoriy sug'urta shartlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlardan biri.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sug'urta tizimida qanday sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi?
2. O'zbekiston sug'urta tizimining 1992-1994-yillardagi xususiyatlari nimalardan iborat bo'lgan?
3. So'nggi yillarda mamlakatimiz sug'urta tizimida qanday islohotlar olib borilmoqda?
4. Sug'urta sohasini davlat tomonidan isloh qilishning ahamiyati va zarurligini qanday izohlash mumkin?

## 7-mavzu. Sug'urta kompaniyasining tashkiliy asoslari

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urta tashkiloti haqida tushuncha, ularning turlari*
2. *Sug'urta kompaniyasining tashkiliy tuzilishi*
3. *Tayanch iboralar*

### 1. Sug'urta tashkiloti haqida tushuncha, ularning turlari.

**Sug'urta tashkiloti** – bu turli xildagi sug'urta korxonalari, muassasalari. Sug'urta kompaniyalari, aksionerlik sug'urta kompaniyalari, regional va xalqaro moliyaviy guruhlar, qo'shma sug'urta va qayta sug'urta birlashmalar (kompaniyalar), xususiy firmalar, davlat sug'urta kompaniyalari va boshqalar. U davlatning umumiy iqtisodiy tizimida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining 6-moddasida sug'urtalovchilarga quyidagicha ta'rif berilgan: «Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs **sug'urtalovchi** deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuzaga kelishini bartaraf etish va oldini olishga oid chora-tadbirlarni maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda moliyalashtirishga haqli.

Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasnodir:

- ✓ maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;
- ✓ sug'urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyat;
- ✓ sug'urta agenti sifatidagi sug'urta vositachiligi.

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida *to'qson foizi* muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug'urtalovchining muassislari tomonidan to'langan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yilning 10 aprelida qabul qilingan PQ-618-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan sug'urta tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish, sug'urtalovchilarning moddiy-texnika bazasini va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning mintaqaviy vakolatxonalarini kengaytirish va aholining sug'urta tashkilotlariga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida sug'urta tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdorlari quyidagicha belgilandi:

- umumiy sug'urta tarmog'iga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun – 500 ming AQSh dollariga ekvivalent summada;
- hayotni sug'urta qilish tarmog'ida ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun – 750 ming AQSh dollariga ekvivalent summada;
- majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar uchun – 1 mln. AQSh dollariga ekvivalent miqdordagi summada.
- qayta sug'urta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun (agar faoliyat mavzusi faqat qayta sug'urta qilish bo'lsa) – 3 mln. AQSh dollariga ekvivalent summada;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-872-sonli Qaroriga asosan sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining taklifiga binoan 2010-yilning 1 yanvaridan boshlab quyidagi sohalarida faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlarini belgilandi. Unga ko'ra:

- umumiy sug'urta sohasida - 750 ming yevroga ekvivalent summada;
- hayotni sug'urta qilish sohasida - 1000 ming yevroga ekvivalent summada;
- majburiy sug'urta bo'yicha - 1500 ming yevroga ekvivalent summada;
- faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha - 4000 ming yevroga ekvivalent summada.

Faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari (sug'urtalovchilar) 2010-yilning 1 yanvarigacha bo'lgan muddatda ustav kapitali miqdorlarini yuqorida ko'rsatilgan talablarga muvofiqlashtirilishi talab etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Adliya vazirligiga Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda 2010-yilning 1 yanvaridan boshlab mazkur ustav kapitalining eng kam miqdorlarning yuqoridagi talablariga javob bermaydigan sug'urtalovchilarning litsenziyalari amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatib turish va tugatish bo'yicha choralar ko'rsish yuklatilgan.

Sug'urtalovchilarning firma nomida ilgari tashkil etilgan sug'urtalovchilarning nomi bilan bir xil yoki ular bilan chalkashtirib yuboriladigan darajada o'xshash belgilar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi, sug'urtalovchilarning filiallari, shuningdek unitar korxona shaklida boshqa sug'urtalovchilar tomonidan tashkil etilgan sug'urtalovchilarning nomlari bundan mustasnodir.

Huquqiy jihatdan sug'urta tashkiloti O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan, uning hududida sug'urta faoliyatini (sug'urta shartnomalarini tuzish; sug'urta zahiralari va fondlarini shakllantirish; vaqtincha bo'sh pul mablag'larini daromadli obyektlarga, qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish va boshqalar) amalga oshiruvchi har qanday tashkiliy-huquqiy shaklning asoslangan strukturasi tashkil qilishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlarining resurslari va aylanma mablag'lari to'la mustaqil hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlari boshqa sug'urta tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarini qayta sug'urtalash va birgalikda sug'urtalash asosida qurishlari mumkin.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda sug'urta ishini monopollashuvini oldini olish maqsadida quyidagicha tartib qo'llaniladi: sug'urtaning bir sohasida o'n va o'ndan ortiq raqobatchilar faoliyat ko'rsatishi kerak, shu bilan birga ularni eng yirigining ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 31 % dan, ikkitasiniki – 44 % dan, uchtasiniki – 54 % dan va to'rttasiniki – 64 % dan oshmasligi kerak. Agar bunday mutanosiblik buzulgidek bo'lsa, u holda davlat tegishli sug'urtalovchilarga iqtisodiy sanksiyalar qo'llaydi va sug'urta bozoridagi ishtirokini chegaralab qo'yadi.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi, bundan tashqari, sug'urta tashkilotlarining sug'urta xizmatlari bozorini bo'lishib olish bo'yicha til biriktiruvlari, kelishuvlari va boshqa harakatlarini, raqobatni chegaralash yoki boshqa tashkilotlarni sug'urta bozoriga kirishiga qarshiliklarni oldini olish hisoblanadi. G'irrom raqobat vosita va usullari (sug'urta tariflarini sun'iy ravishda ko'tarish yoki tushirish, sug'urtalanuvchini sug'urta turi shartlari yoki o'z raqobatchilarining moliyaviy holati to'g'risida noto'g'ri ma'lumot berish orqali chalg'itishga urinishlar)ni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.



## 2. Sug'urta kompaniyasining tashkiliy tuzilishi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday mulkchilik shakllaridagi sug'urta tashkilotlari o'zining tashkiliy strukturasi, xodimlari mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish tartibini mustaqil belgilaydilar.

Rivojlangan dunyoning barcha sug'urta kompaniyalari boshqarish usuli va faoliyat sohalari bo'yicha tashkiliy strukturalarga bo'linadi.

Jahonda «Hamkorlikka mos rahbarlik» deb nom olgan boshqarish (menejment) usuli keng tarqalgan. U quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1. Sug'urta kompaniyasining qarori bir tomonlama, ya'ni yuqoridan, sug'urta tashkiloti rahbariyatining o'zi tomonidan qabul qilinmaydi.

2. Sug'urta kompaniyasining xodimlari faqatgina rahbariyatning topshiriqlarini bajaribgina qolmay, balki vakolat bilan o'z harakat sohalari va rejalariga ham ega bo'ladilar.

3. Mas'uliyat sug'urta kompaniyasi boshqaruvining faqat yuqori pog'onasigagina tegishli emas. U faoliyat sohalari bo'yicha boshqa xodimlar kompetensiyasining ham bir qismidir.

4. Sug'urta kompaniyasining rahbariyati faqatgina quyi instansiyalar qabul qilishi mumkin bo'lmagan qarorlarnigina qabul qilish huquqiga ega.

5. Menejment (boshqarish) strukturasi bosh tamoyili vakolat va javobgarliklarni yuqoridan quyigacha taqsimlanishi hisoblanadi.

Mazkur tamoyilning amalga oshirilishi quyidagilarni bildiradi:

1. Sug'urta kompaniyasining xodimga ma'lum faoliyat sohasi topshiriladi. U mazkur soha chegarasida harakat qilish va mustaqil qaror qabul qilishga majbur hisoblanadi hamda bu uchun to'liq javobgarlikni oladi.

2. Tarkibiy bo'linma (boshqarma, bo'lim, sektor) rahbari jiddiy muammolar paydo bo'lish holatidan boshqa hollarda o'z qo'l ostidagilar faoliyat sohasiga aralashish huquqiga ega emas. U asosan o'z xodimlari ishi ustidan nazoratni amalga oshirishi zarur.

Boshqarishning bunday tashkiliy tuzilishida har bir xodim, u qanday darajada ishlayotganligidan qat'iy nazar, u faqatgina o'z vakolatlari doirasida qilgan va qilmagan ishlarigagina javob beradi.

Xodimning xatosi uchun boshliq faqatgina o'zining rahbarlik majburiyatlarini bajarmagan hollardagina javob beradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, agar rahbar, birinchidan, xodimlarni yetarlicha o'rganib tanlamaganda, ikkinchidan, xodim bilan tegishli instruktaaj o'tkazmagan bo'lsa, uchinchidan, o'z xodimlari harakatini nazorat qilmagan bo'lsa, to'rtinchidan, xodimni o'z vaqtida tartibga chaqirmagan bo'lsa.

Rahbarlik va harakat uchun mas'uliyatlarni aniq taqsimlanishi xatolik uchun kim javob berishini aniqlashda muhim omil hisoblanadi.

Barcha darajalardagi xodimlar faoliyatining tahlili sug'urta kompaniyasining intellektual potensial (salohiyat)ini aniqlab beradi.

Sug'urta kompaniyasining yuqori rahbariyati bajarishi lozim bo'lgan *funksiyalari* quyidagilar hisoblanadi:

1. Sug'urta kompaniyasining har bir bosqichdagi umumiy maqsadlarini belgilash.

2. Sug'urta kompaniyasi faoliyatining tegishli strategiyasini ishlab chiqish va rejalashtirish.

3. Boshqarish (menejment) strukturasi ishlab chiqish.

4. Marketing konsepsiyasini ishlab chiqish.

5. Moliyaviy siyosatni belgilash.

6. Faoliyat sohalarini (shaxsiy sug'urta, mulkiy sug'urta, javobgarlik sug'urtasi, qayta sug'urtalash) shakllantirish.

7. Faoliyat sohalarini o'zaro muvofiqlashtirish.

8. Kadrlar va ijtimoiy masalalarni xal etish.

Sug'urta kompaniyasini faoliyat sohalari bo'yicha tashkiliy strukturasi shuni bildiradiki, sug'urta kompaniyasining funksiyalari xodimlarning qobiliyatlaridan (malakalaridan) kelib chiqib emas, balki mazkur tashkiliy tuzilmaga mos ravishda shakllantiriladi.



Sug'urta faoliyatida uzoq va katta tajribaga ega bo'lgan Rossiyaning *aksioner sug'urta jamiyatlari* tashkiliy tuzilmasining tarixiy tajribasi e'tiborga molikdir (1827-1917). Har bir aksionerlik sug'urta jamiyati ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritgan. Aksiyalar bo'yicha dividend miqdori 7 % qilib chegaralangan. Sug'urta jamiyatlarining aksiyalari fond birjalarida erkin muomalada bo'lgan. Qoida bo'yicha, aksiyadorlar sug'urtalanuvchilar bo'lganlar. Aksionerlik sug'urta jamiyatining oliy organi aksionerlarning yillik yig'ilishi bo'lib, Boshqaruv xay'ati va direktorlar Kengashini 5-yil muddatga saylagan.

*Aksionerlik sug'urta jamiyatlari* tarkibida bir nechta bo'limlar bo'lgan: tashkiliy, nazorat-taftish, yong'inga qarshi kurash, statistika va arxiv, ta'minot hamda markaziy buxgalteriya.

Rossiyaning 1864-1917-yillardagi birgalikda sug'urtalash jamiyatlarining tashkiliy tuzilmasi ham qiziqish uyg'otadi. Barcha birgalikda sug'urtalash jamiyatlari ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlanadigan Nizomlar asosida faoliyat yuritganlar. Bunday nizomlarning xususiyati shundan iborat bo'lganki, tashkiliy tuzulma va faoliyat masalalari bilan bir qatorda polis shartlari (sug'urta shartnomasining asosiy moddolari) ham aks ettirilgan. Qayta sug'urtalangan mulk uchun sug'urtalanuvchilar oldida ular sug'urta summasiga mos ravishda to'liq javob berganlar.

*Birgalikda sug'urtalash jamiyatlarining* oliy organi uning a'zolarini (sug'urtalanuvchilar) yilda bir marta chaqiriladigan umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Birgalikda sug'urtalash jamiyatlari faoliyati joriy boshqaruvini kuzatuv qo'mitasi va Boshqaruv xay'ati amalga oshirgan. Boshqaruv hay'ati Apparati odatda akvizitsiya, statistika, to'lovlar, buxgalteriya va arxiv bo'limlaridan tashkil topgan.

*Birgalikda sug'urtalash jamiyatlari* faoliyatining xususiyatlari shundan iborat bo'lganki, ular sug'urta shartnomalari tuzish uchun sug'urta agentlari xizmatlariga murojaat qilmaganlar. Bu funksiyalarni akvizitsiya bo'limining shtatli apparati bajarib, mulkdorlar yoki garovga oluvchilar u yerga murojaat qilganlar. Agarda favqulotda zararlarni qoplashga birgalikda sug'urtalash jamiyati zahira fondi mablag'lari yetmay qolsa, u holda uning a'zolari mazkur maqsad uchun qo'shimcha summalar to'lashi lozim edi.

Rivojlangan sharoitlarda birgalikda sug'urtalash jamiyatlari yig'ilayotgan sug'urta badallari hajmi va sug'urtalanuvchilar soni bo'yicha aksionerlik sug'urta jamiyatlaridan keyingi ikkinchi o'rinda hisoblanadilar.

*Davlat sug'urta kompaniyalari* – bu davlat mulki hisobidan davlat tomonidan ta'sis etiladigan tashkiliy shakl. Davlat sug'urta kompaniyalarini tashkil qilinishi davlatning sug'urta bozori faoliyatiga aralashuvining bir ko'rinishidir.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda davlat mulki ishtirokidagi bir nechta yirik sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularga «O'zbekinvest» EIMSK, «O'zagrosug'urta» DASK, «Kafolat» DASK, «Madad» sug'urta agentligi, «O'zbekinvest Hayot» SK larni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

*Xususiy sug'urta kompaniyalari* bir mulkdor yoki uning oilasiga tegishli bo'ladi. Xususiy sug'urta kompaniyasi tuzilmasining namunali shakli sifatida Angliyaning «Lloyd» korporatsiyasi misol bo'lishi mumkin. «Lloyd» amaliyotida anderrayter deb nomlanadigan har bir sug'urtalovchi o'zining shaxsiy moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, «o'z tavakkalchiligi»ga sug'urtalaydi, «Lloyd» korporatsiyasi esa e'tirozlar bo'yicha yuridik javobgarlikni olmaydi. Shuning uchun «Lloyd» korporatsiyasiga a'zolikka qabul qilish anderrayterlikka nomzodni qattiq tanlov o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

«Lloyd» korporatsiyasining paydo bo'lishi XVII asrga tegishli bo'lib, kafe egasi Lloyd nomi bilan bog'liqdir. 1871-yilgacha «Lloyd» xususiy tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lib, 1871-yil Buyuk Britaniya parlamenti qonun qabul qilgan bo'lib, unga asosan «Lloyd» kemasozlik, dengizda yuk tashish va fraxt sohasida sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan korporatsiya sifatida rasman tan olingan.

Parlament 1911-yili 1871-yilgi qonunga qo'shimchada «Lloyd»ga barcha boshqa sug'urta turlarini ham, jumladan kafolatlar berish bilan bog'liq operatsiyalarni ham amalga oshirishga ruxsat berdi.

Sug'urta ishining yangi xo'jalik-tashkiliy tuzilmalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

*Konsernlar* – korxonalar birlashmasi, jumladan sug'urta tashkilotlari.

*Xo'jalik assotsiatsiyalari* – korxonalar va sug'urta kompaniyalarining shartnomaviy birlashmalari (misol uchun, ma'muriy birlashmalar: harbiy-sug'urta kompaniyasi, agrar-sanoat birlashmalari va boshqalar).

*Konsorsium* – ishlab chiqarish korxonalari va sug'urta kompaniyalarining konkret masalalarni xal qilish, yirik maqsadli dastur va loyixalarni amalga oshirish uchun tashkil qilinadigan vaqtincha shartnomaviy birlashmalar.

*Sug'urta tashkilotlarida ikki xil toifadagi xodimlar mehnatidan foydalaniladi:*

1. Boshqaruv, iqtisodiy, maslahat-uslubiy va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi malakali shtatli mutaxassislar;

2. Akvizitsion va inkassatorlik funksiyalarini bajaruvchi shtatsiz xodimlar.

Shtatli xodimlarga sug'urta kompaniyasining prezidenti, vitse-prezident (bosh iqtisodchi), bosh direktor, ijrochi direktor (menejer), bosh hisobchi, referentlar, ekspertlar, bo'lim boshliqlari, inspektorlar, hisoblash markazining xodimlari, bo'limlar xodimlari, xizmat ko'rsatish personali (umumiy bo'lim, kotib-referent va boshqalar).

Shtatsiz xodimlarga sug'urta agentlari, brokerlari (maklerlar), sug'urta kompaniyasining vakillari (vositachilar), tibbiy ekspertlar va boshqalar.

Shtatli xodimlarning asosiy funksional majburiyati sug'urta kompaniyasini barqaror faoliyat ko'rsatishini, yuqori rentabellikni, to'lovga qobiliyatlilikni, raqobatbardoshlikni ta'minlash hisoblanadi.

Shtatsiz xodimlarning asosiy funksional majburiyatlari tashkilotlar, korxona, firmalar va aholi o'rtasida ularni sug'urtaga jalb qilish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, shartnomalarni rasmiylashtirish hamda sug'urtalanuvchilar tomonidan sug'urta badallarini o'z vaqtida to'lanishini va sug'urta hodisalari ro'y berganda sug'urtalovchilar tomonidan sug'urtalanuvchilarga sug'urta qoplamalarini amalga oshirilishini nazorat qilish hisoblanadi, ya'ni boshqacha so'z bilan aytganda shtatsiz xodimlarning bosh vazifasi sug'urta xizmatlarini sug'urtalovchilardan sug'urtalanuvchilarga harakatlantirish hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyasi xodimlari mehnatiga ikki xil usulda haq to'lanadi, ya'ni vaqtbay va ishbay.

Vaqtbay haq to'lash ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

1. Oddiy vaqtbay haq to'lash.

2. Vaqtbay-mukofotli haq to'lash.

Oddiy vaqtbay haq to'lash kontrakt va haqiqatda ishlangan vaqtdan kelib chiqib amalga oshiriladi:

$$V_{ih} = K \times T,$$

bu yerda  $V_{ih}$  - vaqtbay ish haqi;

$K$  - kontrakt bo'yicha tarif stavkasi;

$T$  - ishlangan vaqt (oy).

Sug'urta tashkilotining shtatli xodimlari ishdagi alohida yuqori ko'rsatkichlari uchun (foydani ta'minlash, sug'urta kompaniyasi rahbariyatining muhim topshiriqlarini bajarish, sug'urta portfelini oshirish, oldini olish tadbirlarini sifatli amalga oshirish va boshqalar) chegaralanmagan miqdorlarda mukofotlanishlari (vaqtbay-mukofotli haq to'lash) mumkin.

Sug'urta kompaniyasining shtatsiz xodimlariga ishbay uch shaklda haq to'lanadi:

1. Oddiy ishbay.

2. Ishbay-mukofotli.

3. Ishbay komission.

Oddiy ishbay haq to'lash me'yoriy miqdorlar va bajarilgan ish hajmidan kelib chiqib amalga oshiriladi:

$$I_{ih} = M \times B,$$

bu yerda  $I_{ih}$  - ishbay ish haqi;  
M - me'yoriy miqdor;  
B - bajarilgan ish hajmi.

Mehnatga haq to'lashning ishbay-mukofotli shakli sug'urta portfelini oshirish bo'yicha qilingan yaxshi akvizitsion ishlar uchun; sug'urta hodisalari ro'y bermasligini ta'minlovchi oldini olish tadbirlarini tashkil qilish ma'lum darajada qo'llash uchun; sug'urta kompaniyasiga yangi vakillarni jalb qilish uchun; qayta yoki ko'p marotaba shartnomalar tuzish va boshqalar uchun amalga oshiriladi.

Ishbay-komission haq to'lash har bir tuzilgan shartnoma uchun komission rag'bat ko'rinishida sug'urta summasidan yoki kelib tushgan sug'urta badallari summasidan foizlarda amalga oshiriladi.

Mukofotlar singari komission rag'batlar hajmi ham chegaralanmaydi.

Sug'urta kompaniyalarining shtatli xodimlari ishga kontrakt (mehnat shartnomasining bir turi) bo'yicha, shtatsiz xodimlar esa, mehnat kelishuvi (shartnoma) yoki sinov muddatli kontrakt bo'yicha ishga qabul qilinadilar.

Sug'urta xodimlari mehnatiga haq to'lash fondi quyidagilarni o'z tarkibiga oladi:

1. Tarif stavkalari bo'yicha hisoblangan ish haqi;
2. Mukofotlar: resurslarni tejaganlik uchun; orig'inal dasturlar, shartlar, nafaqalar ishlab chiqqanlik uchun; yangi samarali shartnomalarni jalb qilish uchun; bellashuvlar, ko'riklar yakunlari bo'yicha va boshqalar;
3. Bayram va dam olish kunlari ishlangan mehnat uchun, o'qish va amaliyotga, yangi texnikani qo'llashga rahbarlik uchun haq;
4. Ta'til, xizmat safarlari haqlari, ma'muriy xarajatlar;
5. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha davolanish, dam olish uchun nafaqalar, moddiy yordam;
6. Sanatoriylar, dam olish uylari, pansionatlar, kruizlar va boshqalar yo'llanmalari qiymatining bir qismi uchun to'lovlari.

### 3. Tayanch iboralar.

**Aksionerlik sug'urta kompaniyasi** – aksiyalarni sotish yo'li bilan ta'sis etilgan sug'urta tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli.

**Akvizitor** (lat.Acquisitor) – yangi sug'urtalanuvchilarni jalb qilish bilan shug'ullanuvchi sug'urta agenti yoki brokeri.

**Anderrayter** (Underwriter) – sug'urta kompaniyasi yoki sindikat tomonidan sug'urta tavakkalchiligini olish vakolati berilgan shaxs.

**Birgalikda sug'urtalash** – bir va aynan o'sha sug'urta shartnomasini tuzishda ikki yoki undan ko'proq sug'urtalovchilarning ishtirok etishi.

**Brokeredj** - brokerning komission rag'batlari.

**Vositachilar** – bu sug'urtalanuvchilar bilan yaqin bo'lgan va sug'urta xizmatlari bozori kon'yunkturasi o'zgarishiga operativ moslashuvchi shaxslar.

**Lloyd** (Lloyd's) – xususiy sug'urtalovchilar korporatsiyasi (Angliya).

**Polis** (Policy) – sug'urta shartnomasining huquqiy tasdig'i.

**Pul** (Pool) – Yirik va xavfli risklarni birgalikda sug'urtalash uchun bir nechta sug'urta kompaniyalarini birlashuvi. Riskni qabul qilib oluvchi kompaniya, pulga a'zo sug'urtalovchilar nomidan yagona polis beradi.

**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Sug'urtalovchining aktivi** – sug'urtalovchining pulda ifodalangan mulki (asosiy vositalari va oborotdan tashqari aktivlari, moliyaviy qo'yilmalari, materiallar, kassadagi pul mablag'lari, hisob raqamidagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va b.), buxgalteriya balansining bir qismi.

**Sug'urta bozori** – sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

**Sug'urta dalolatnomasi** – o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladigan va sodir bo'lgan sug'urta holatini hamda sabablarini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta mas'uliyati** – sug'urtalovchining sug'urta holatlari ro'y berganda sug'urta qoplamalari yoki sug'urta summalarini to'lash bo'yicha majburiyati.

**Sug'urta muddati** – sug'urta obyektining sug'urtalangan davri.

**Sug'urta portfeli** – sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan badallar yig'indisi yoki tuzilgan va to'langan shartnomalar soni.

**Sug'urta summasi** – sug'urta obyektini haqiqatda sug'urtalangan qismining pul ko'rinishidagi qiymati.

**Sug'urta qoidalari** – ixtiyoriy sug'urta shartlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlardan biri.

**Sug'urta holati** – sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi to'lanishi kerak bo'lgan turli salbiy va boshqa kelishilgan oqibatlariga olib keluvchi haqiqatda sodir bo'lgan holatlar.

**O'zini-o'zi sug'urtalash** – huquqiy yoki jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy moddiy yoki pul rezervlarini yaratish.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Qanday yuridik shaxs sug'urta tashkiloti hisoblanadi?
2. Sug'urta tashkilotining tashkiliy strukturasi qanday?
3. Boshqarish bo'yicha tashkiliy struktura qanday tamoyillarga tayanadi?
4. Sug'urta tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdorlari qancha miqdorda belgilangan?
5. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda sug'urta ishini monopollashuvini oldini olish maqsadida qanday tartib qo'llaniladi?
6. Sug'urta kompaniyasining yuqori rahbariyati qanday funksiyalarni bajaradi?
7. Sug'urta xodimlari mehnatiga haq to'lash qanday amalga oshiriladi?

## 8-mavzu. Sug'urta kompaniyasining moliyasi

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urtalovchilar moliyasini tashkil qilishning umumiy tamoyillari*
2. *Sug'urtalovchilarning moliyaviy natijalarini shakllanish manbalari*
3. *Daromadlarni taqsimlash va sug'urtalovchilarning xarajatlari*
4. *Tayanch iboralar*

### 1. Sug'urtalovchilar moliyasini tashkil qilishning umumiy tamoyillari

Sug'urtalovchining moliyasi sug'urta himoyasi bo'yicha xizmat ko'rsatish faoliyatini ta'minlaydi. Sug'urtalovchi **sug'urta fondi** mablag'larini shakllantiradi va sug'urtalanuvchilar zararlarini qoplash va sug'urta ishini tashkil qilish bo'yicha xarajatlarini moliyalashtirishga sarflaydi. Bundan tashqari, bozor sharoitida, sug'urtalovchi sug'urta fondining bir qismi va o'z mablag'lari hisobidan investitsion faoliyat bilan ham shug'ullanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotining pul aylanishi xalq xo'jaligining boshqa sohalari korxonalariga nisbatan ancha murakkabdir.

Sug'urta tashkilotining pul aylanmasi ikki mustaqil pul oqimini o'z ichiga oladi: sug'urta himoyasini ta'minlovchi pul aylanmasi va sug'urta ishini tashkil qilish bilan bog'liq pul aylanmasi. Bunda sug'urta himoyasini ta'minlovchi pul aylanmasi ikki bosqichni bosib o'tadi: birinchi bosqichda sug'urta fondi shakllanadi va taqsimlanadi, ikkinchi bosqichda sug'urta fondi mablag'lari foyda olish maqsadida investitsiya qilinadi.

Sug'urta fondi sug'urta tarifi bo'yicha aniqlanadigan va sug'urtalanuvchilar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari hisobidan shakllanadi.

Kutilayotgan va haqiqatdagi zarar o'rtasidagi bo'lishi mumkin bo'lgan nomutanosiblik, avvalo, tarif tuzilishiga ma'lum talablarni qo'yadi: uning asosiy qismi (netto-stavka)ga haqiqiy zararni kutilganidan bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimolli farqini aks ettiruvchi tavakkal ustamasi qo'shiladi.

Sug'urtalovchi o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajarib, olgan to'lovlarini tarifda ko'zda tutilgan turli maqsadli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlaydilar.

Sug'urtalovchi tomonidan tashkil qilingan sug'urta fondi o'zining majburiyatlarini bajarishga yetarli bo'lish ehtimoli qanchalik yuqori bo'lsa, sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Mablag'lar aylanishining tavakkal xarakteridagi sharoitlarda sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga ehtiyoj zararni qoplashni kengaytirishga asoslangan qayta sug'urtalash usulini vujudga keltirdi.

Bozor sharoitida sug'urta tashkilotlarining faoliyati o'z xarajatlarini qoplashnigina emas, balki foyda olishni ham ko'zda tutadi. Sug'urta tashkiloti sug'urta operatsiyalaridan katta foyda olishga intilmasligi lozim, aks holda bu bilan sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ekvivalentlik prinsipi buzilgan bo'ladi. Sug'urta tashkilotlarida «foйда» iborasi shartli qo'llaniladi, sug'urta tashkilotlari milliy daromad yaratmaydilar, balki faqatgina uni qayta taqsimlashda ishtirok etadilar. Sug'urta operatsiyalaridan olingan **foйда** deganda shunday ijobiy moliyaviy natija tushuniladiki, unda sug'urta himoyasini ta'minlash bo'yicha daromadlar xarajatlardan ortiq bo'ladi.

Sug'urta tashkiloti uchun foyda olishning asosiy manbai bo'lib investitsion faoliyat hisoblanib, u sug'urta fondi mablag'larining bir qismini tijorat maqsadlarida foydalanish orqali amalga oshiriladi. Sug'urta faoliyatining maqsadi katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatish, investitsion faoliyatning maqsadi esa, foyda olish bo'lishiga qaramasdan ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Bir tomondan, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbai sug'urta fondi hisoblansa, ikkinchi tomondan, investitsiya faoliyatidan olingan foyda sug'urta operatsiyalarini, zarar bilan ishlovchi sug'urta turlariga dotatsiyalar, kadrlar tayyorlash, yangi sug'urta turlarini ishlab chiqish va boshqalarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari ham alohida xo'jalik subyektlari hisoblanar ekanlar, ular ham o'z xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan maxsus sug'urta va boshqa fondlarni shakllantiradilar, jumladan **nizom va amortizatsiya fondlari**. Aksionerlik sug'urta kompaniyalari nizom fondining egalari hisoblanadilar (ta'sisshilar tomonidan berilgan mulk, jumladan aksiyalarni sotishdan olingan daromadlar). Mamlakatimizda qabul qilingan tartib bo'yicha sug'urta tashkilotlari nizom fondining 20 % idan kam bo'lmagan **rezerv fondini** yillik sof foydaning 5 % idan kam bo'lmagan miqdordagi ajratmalar qilish orqali shakllantirishlari lozim.

Davlat mulkchiligi ishtirokidagi sug'urta tashkilotlari tizimi faoliyatida quyidagi fondlardan foydalaniladi:

- nizom fondi;
- amortizatsiya fondi;
- joriy tushumlar fondi;
- sug'urta turlari bo'yicha zahira fondlari tizimi;
- sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha rezerv fondlari;
- oldini olish tadbirlarini moliyalashtirish fondi;
- mehnatga haq to'lash fondi;
- iqtisodiy rag'batlantirish fondlari (sug'urtani rivojlantirish fondi va ijtimoiy-madaniy tadbirlar fondi).

**Zahira fondlarni** shakllantirishga zarurat sug'urtaning xususiyatli belgilaridan biri bo'lgan zararni vaqtlar bo'yicha qoplash bilan asoslanadi. Sug'urta hodisalarining to'satdan ro'y berishi sug'urtalovchining mablag'larini noqulay davrlarda zarar ko'rgan xo'jaliklarga yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lish uchun qulay davrlarda jamg'arishni talab etadi.

*Zahira fondlarini shakllantirishdan maqsad sug'urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligining ta'minoti hisoblanadi, shakllantirish manbai esa – barcha to'lovlar tushumlar bo'yicha netto-stavkaning ishlatilmagan qismi hisoblanadi*, vaholanki sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarini to'lashga qoplamalar sug'urta xizmatining bahosi – tarif - aynan netto-stavka mo'ljallangan. Joriy qulay yilda bevosita maqsad yo'nalishida sarflanmagan to'lovlarning netto-stavka qoldiqlari yildan-yilga sug'urtalovchining sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini bajarishga joriy to'lov tushumlari yetmaydigan noqulay yil kelguncha jamg'arilib boradi.

Zahira fondlarining zaruriy hajmi sug'urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning obyektiv talablari bilan asoslanadi. Bundan kelib chiqib, qayta sug'urtalash sug'urta portfelini moliyaviy barqarorligini oshirish va tavakkalchiliklarni tenglashtirish imkonini beradi, uni qo'llash zahira fondlari hajmini sezilarli kamaytirish imkonini beradi. Qayta sug'urtalash qanchalik kuchli rivojlangan bo'lsa, sug'urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligini shunchalik kam zahira fondlari bilan ta'minlash mumkin.

Sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha zahira fondlari muhim xarakter kasb etadi. Sug'urtaning uzoq muddatli turlarida badallarning asosiy qismi sug'urta shartnomasi muddati tugagandan so'ng to'lanish uchun uzoq davr davomida jamg'arilib boradi. Shu sababli sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha zahira fondlarini badal (to'lov) rezervlari deyiladi. Badal rezervlarining asosiy shakllanish manbalari netto-stavkaning jamg'arma elementi hamda investitsiya faoliyatidan olingan foyda hisoblanadi.

Uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha badallar rezervi sug'urtalovchining investitsion faoliyatini moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Bu ularni uzoq muddat va katta hajmda saqlanishi bilan asoslanadi. Badallar rezervi mablag'laridan tijorat maqsadlarida keng foydalanish sug'urtalovchiga kelasi davr daromadlarini, tarif stavkasini kalkulyatsiya qilishda hisobga olish yo'li bilan sug'urta badallarini pasaytirish imkonini beradi.



## 2. Sug'urtalovchilarning moliyaviy natijalarini shakllanish manbalari.

**Sug'urta tashkilotlarining daromadlari** sug'urta operatsiyalaridan, investitsiya faoliyati va boshqalardan olinishi mumkin.

**Sug'urta operatsiyalaridan daromadlar** sug'urta to'lovlari asosida shakllanadi.

Sug'urta to'lovi sug'urta xizmatining sotish bahosini bildiradi, uni kalkulyatsiya bahosidan farqlash lozim. Gosstraxning monopol faoliyati davrida kalkulyatsion baho bir vaqtning o'zida sotish bahosi ham hisoblangan, u vaqtda to'laonli bozor munosabatlari bo'lmagan. Bozor sharoitida kalkulyatsion baho bilan sotish bahosi mos kelmasligi mumkin. Sug'urtalovchi brutto-tarifni hisoblayotganda sug'urta xizmatining kutilayotgan qiymatini belgilaydi, sotish bahosi esa sug'urta shartnomasi tuzilayotganda aniq bo'ladi. Sug'urta xizmatining qiymati –obyektiv kattalikdir, baho esa qator omillar: bozor kon'yunkturasi, davlatning baho siyosati, sug'urtalovchilarning monopol kelishuvlari, kredit foizlarining dinamikasi va boshqalar ta'siri natijasida shakllanadi.

**Sug'urta to'lovlari** – bu sug'urta tashkilotining birlamchi daromadi va mablag'larning keyingi aylanishi asosi, investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha sug'urtalanuvchilarning to'lovlari sug'urtalovchilarda uzoq davr saqlanadi. Bundan tashqari sug'urta tashkilotlarida *zahira va rezerv* fondlari shakllantirilib, o'n yillab ishlatilmasligi mumkin. Bularning barchasi sug'urtalovchiga mablag'lardan investitsion maqsadlarda foydalanish asosini yaratadi.

Sug'urtalovchining mablag'lari xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga turli shakllarda: bevosita investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqa ko'rinishlarda joylashtirilishi mumkin. Investitsion faoliyatdan olingan daromadlar sug'urta operatsiyalaridan ko'rilgan zararlarni kompensatsiyalashga, sug'urta ishini rivojlantirishga, xuddi shunday tijorat maqsadlarida yoki iste'mol uchun sarflanishi mumkin. Shunday tarzda sug'urtalovchining sug'urta xizmatlari uchun past baholarda ham yetarli rentabellikni saqlab turish mumkin.

Sug'urta tashkiloti sug'urta to'lovlari va investitsion faoliyatdan olinadigan daromadlardan tashqari turli xildagi xizmatlar ko'rsatishdan, avvalo, risk-menejment bilan bog'liq, maslahat berish, kadrlarni o'qitish va boshqalardan ham daromadlar olishi mumkin.

**Sug'urta operatsiyalaridan olingan foyda** - ko'rsatilgan sug'urta xizmatlarining bahosi va tannarxi o'rtasidagi farqni bildiradi.

Daromadlilik darajasining ko'rsatkichi *sug'urta operatsiyalarining rentabelligi* deyilib, yillik foyda summasini sug'urta operatsiyalarining barchasi yoki qandaydir sug'urta turi bo'yicha yillik to'lovlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi. Foydani kelib tushgan sug'urta to'lovlari hajmi bilan solishtirish sug'urtalovchi sug'urta to'lovlarining har bir so'midan qancha foyda olayotganligini ko'rsatadi.

Sug'urtalovchi sug'urta operatsiyalaridan oladigan foydadan tashqari investitsion faoliyatdan ham foyda olishi mumkin.

**Investitsiyadan foyda** - bu sug'urta tashkilotining nosug'urta xarakterdagi xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishdan olgan foydasi. Investitsiyalar orqali foyda olish sug'urtalovchining asosiy maqsadi hisoblanmaydi, biroq bu foyda sug'urta mas'uliyatlarini kengaytirish va alohida sug'urta turlari bo'yicha tariflarni pasaytirish, sug'urtalovchining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va sug'urta ishini rivojlantirishning boshqa yo'nalishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-872-sonli Qaroriga asosan sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlash maqsadida sug'urtalovchilarga qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion vositachi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqi berilgan. Bunda sug'urtalovchilar tomonidan ko'rsatilgan faoliyat turini amalga oshirish uchun litsenziya olishi talab qilinmaydi.

Sug'urtalovchining sug'urta operatsiyalari va investitsiya faoliyatidan olgan daromadlari soliqqa tortiladi. Daromadni hisoblash daromadlar va xarajatlar balansi hamda yordamchi hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Sug'urta operatsiyalaridan olingan daromad o'z tarkibiga foyda va sug'urta xodimlari mehnatiga haq to'lash fondini oladi. Sug'urtalovchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-872-sonli Qaroriga asosan 2008-yilning 1 iyunidan boshlab uch yil muddatga:

- yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtalovchilar aksiyalari bo'yicha dividendlar ko'rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslarning foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan ozod qilingan;

- sug'urtalovchilarning dividendlar va foizlar ko'rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslarning foyda solig'ini to'lashdan ozod qilingan va soliqdan bo'shagan mablag'lar respublika hududlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida hududiy bo'linmalarni, keng tarmoqli agentlik tizimini tashkil qilish, shuningdek, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilishi belgilangan.

Sug'urta kompaniyalarning moliyasi (sug'urtalovchining pul fondlari) sug'urta ishini tashkil etish borasida o'zining xarajatlarini moliyalashtirish va o'z mijozlariga sug'urta himoyasini ko'rsatish faoliyatini ta'minlaydi.

Sug'urta kompaniyalarining pul mablag'larini aylanishi ikkita mustaqil pul oqimini o'z ichiga oladi:

- *sug'urta himoyasini (sug'urta to'lovlarini) ta'minlovchi mablag'lar aylanishi;*
- *sug'urta kompaniyalarni faoliyati uchun belgilangan mablag'lar aylanishi.*

O'z navbatida, sug'urta himoyasini ta'minlovchi mablag'lar aylanishi ikki bosqichga bo'linadi: birinchi bosqich, sug'urta fondni shakllantiradi va taqsimlaydi, ikkinchi bosqich esa sug'urta fondining bir qismini banklarga qo'yilgan depozit hisoblar va hokazalar bo'yicha daromad olish maqsadida investitsiya qiladi. Sug'urta tashkilotlarida mablag'lar aylanishi boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari va tijorat tuzilmalarga qaraganda murakkab jarayon hisoblanadi.

Pul mablag'larning aylanishi sug'urta himoyasini ko'rsatish bilan bevosita bog'liqligi sug'urta toifasining mazmunini ifodalaydi. Mablag' aylanishining ushbu qismi sug'urta tashkilotining risk, ehtimollik xususiyati harakatining alohida tamoyili hisoblanadi. Buning kuchi, sug'urta fondining shakllanishi asosida zararlar ehtimolligi yotganligi ehtimollik nazariyasi (aktuar hisoblar) va statistik ma'lumotlar asosida hisoblanadi hamda sug'urtalovchining moliyasini tashkil etishda har bir sug'urtalanuvchining ishtiroki ulushini, sug'urta xizmati narhi va tannarxini, shuning asosida tarif stavkalari miqdorini o'rnatishni aniqlash imkonini beradi.

*Sug'urta zahiralar* vaqtincha bo'sh turgan maxsus sug'urta resurslari aylanmasi hisoblanib, unga sug'urtalovchining daromadi sifatida qaralmaydi. Ular sug'urta kompaniyalari uchun investitsiya faoliyati orqali, qaysiki tijorat maqsadlarida sug'urta fondi mablag'larini bir qismini ishlatish yo'li bilan daromad olish manbai asosi hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatidan olingan mablag'lar sug'urta operatsiyalarini moliyalashtirishga shu jumladan, sug'urta turlari bo'yicha zararlarni qoplash, yangi sug'urta turlarini ishlab chiqish hamda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga va hokazolarga yo'naltiriladi.

Sug'urta zahiralarining shakllanishi bo'yicha quyidagi qonun-qoidalar mavjud:

- hamma zahiralar maxsus hisob-kitoblar asosida shakllanadi;
- zahiralar sug'urta olib borayotgan valyutada shakllanadi;
- sug'urta zahiralar har bir aniq to'lash muddatiga shakllanadi;
- zahiralar faqat sug'urta shartnomasi bo'yicha emas, qayta sug'urtalashda qabul qilingan shartnomalar bo'yicha ham shakllanishi mumkin;

Sug'urta qiluvchilarning moliyaviy turg'unligining asosi shundaki, ularda to'langan ustav kapitali, sug'urta zahiralar, shuningdek qayta sug'urta tizimi mavjud.

Sug'urtalovchilar o'ziga qabul qilgan sug'urta majburiyatlarini bajarish uchun yig'ilgan sug'urta mukofatlaridan kelgusida sug'urta to'lovlari uchun barcha sug'urta turlari bo'yicha kerakli sug'urta zahiralarini shakllantiradilar. Sug'urta zahiralar sug'urtalovchining sug'urtalanuvchilar

bilan tuzgan sug'urta shartnomalari bo'yicha shu paytgacha bajarilmagan majburiyatlarining hajmini ko'rsatib turadi.

Xorij mamlakatlarida qabul qilingan sug'urta zahiralarining shakllanish texnikasiga ko'ra, sug'urta qiluvchi bo'yniga olgan har bir majburiyat turi sug'urta zahirasi mos keladigan turi bilan qoplanadi. Hayot sug'urtasi bo'yicha amaldagi shartnomalar sharoitiga bog'liq holda matematik zahiralar, yillik renta zahiralar, fond zahiralar va ishtirok etish zahiralar shakllanadi; sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha – mukofot zahiralar va zarar zahiralar shakllanadi. Sug'urta zahiralar hajmi amaldagi shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summani butun holda qoplashi zarur. Shuning uchun ularning hajmini aniqlash uchun sug'urta qiluvchining operatsiyalarini chuqur tahlili va matematik hisob-kitoblari zarur.

Hamma sug'urta zahiralar 3 ta katta guruhlariga bo'linadi.

- hayot sug'urtasi zahiralar;
- hayot sug'urtasidan tashqari zahiralar turlari - texnik zahiralar;
- majburiy tibbiy sug'urta zahiralar.

Texnik mablag'lar sug'urta qiluvchi tomonidan alohida sug'urta shartnomasi va butun sug'urta portfeli bo'yicha bir muddatga hisob-kitob qilingan sug'urta to'lovlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish kerak bo'lgan mablag'lar yig'indisi. Ular sug'urta zahiralarining qismi bo'lib hayot sug'urtasidan tashqari sug'urta turlari bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

### 3. Daromadlarni taqsimlash va sug'urtalovchilarning xarajatlari

**Sug'urtalovchining xarajatlari** sug'urta fondini taqsimlash jarayonida shakllanadi. Xarajatlar tarkibi va strukturasi ikki o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayonlar: sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni qoplash va sug'urta tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish aniqlab beradi. *Shundan kelib chiqib, sug'urta ishida xarajatlarni quyidagicha turkumlash qabul qilingan: sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarini to'lash xarajatlari; zahira va rezerv fondlariga ajratmalar; oldini olish tadbirlariga ajratmalar; ish yuritish xarajatlari. Bu xarajatlar birgalikda sug'urta operatsiyalarining tannarxini bildiradi.*

O'z salmog'i va ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi ahamiyati bo'yicha sug'urtalovchi xarajatlarning asosiy moddasini sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarini to'lash xarajatlari tashkil qiladi. To'lov paytida sug'urtalovchining sug'urtalanuvchi oldida shartnoma tuzish paytida olgan yoki qonun asosidagi (majburiy sug'urta bo'yicha) majburiyatlarini bajarilishi ro'y beradi.

Zahira fondlari yoki badal rezervlariga ajratmalar sug'urta ishidagi kelasi davr xarajatlarning o'ziga xos bir variantini bildiradi. Ular sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarining me'yoriy va haqiqatdagi kattaliklari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Sug'urtalanuvchi xarajatlarning boshqa elementlari singari **oldini olish tadbirlariga ajratmalar** ham tarif stakasi tuzilishida me'yorlashtirilgan. Davlat sug'urta boshqarmasi amal qilgan davrlarda oldini olish tadbirlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan mablag'lar budjetga yo'naltirilgan. Endi bu mablag'lar sug'urta tashkilotlarining o'zlarida bo'lmokda.

Sug'urta ishida **ish yuritish xarajatlari** muhim rol o'ynaydi. Ular sug'urtalovchilar faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, brutto-stavkaning yuklamasiga kiritiladi va sug'urta operatsiyalari tannarxining muhim elementi hisoblanadi. O'z tarkibiga mehnatga haq to'lash xarajatlari, xo'jalik va idora xarajatlari, xizmat safarlari va ba'zi boshqa xarajatlarni oladi.

Jahon amaliyotida ish yuritish xarajatlari *akvizitsion, inkassa, bartaraf (likvidatsiya) qilish va boshqaruv xarajatlari*ga bo'linadi.

**Akvizitsion xarajatlar** yangi sug'urta shartnomalarini tuzish maqsadida amalga oshiriladi. Ularga akvizitsion komissiya, tibbiy ko'rikdan o'tkazish va boshqa xarajatlar kiradi. Akvizitsion xarajatlar yangi sug'urta turlari joriy qilinib qo'llanilayotganda tez o'sib boradi.

**Inkassa xarajatlari** – bu sug'urta tashkiloti xodimlarining sug'urta to'lovlari yig'ganlik va sug'urtalanuvchilarga xizmat ko'rsatganliklari uchun mehnatiga haq to'lash xarajatlari. Inkassa xarajatlari brutto-stavkadan komission tamoyillarda foizlar bo'yicha hisoblanadi.

**Bartaraf (likvidatsiya) qilish xarajatlari** odatda bevosita xarajat hisoblanadi va sug'urta hodisasi ro'y bergandan so'ng amalga oshiriladi. Boshqa bevosita xarajatlarning singari ular konkret sug'urta turiga tegishli bo'ladi. Bunday xarajatlarning tarkibiga mazkur holat bilan bog'liq bartaraf qiluvchi va ekspertning sug'urta hodisasi ro'y bergan joyga borish-kelish yo'l xarajatlari, ekspertlarning rag'batlantirish xarajatlari, sud xarajatlari va boshqalar kiradi.

**Boshqaruv xarajatlari** o'z tarkibiga sug'urta tashkilotining ma'muriy-boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlari, ma'muriy-xo'jalik xarajatlari va sug'urtani rivojlantirish xarajatlari kiradi.

#### 4. Tayanch iboralar.

**Aktuar hisob-kitoblar** – tarif stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik va ehtimollik-statistik usullari yig'indisi.

**Aksionerlik sug'urta kompaniyasi** – aksiyalarni sotish yo'li bilan ta'sis etilgan sug'urta tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli.

**Vositachilar** – bu sug'urtalanuvchilar bilan yaqin bo'lgan va sug'urta xizmatlari bozori kon'yunkturasi o'zgarishiga operativ moslashuvchi shaxslar.

**Ixtiyoriy sug'urta** - tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta munosabatlari.

**Litsenziya** - muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjat.

**Majburiy sug'urta** – sug'urta shakllaridan biri bo'lib, unda sug'urtalanuvchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta munosabatlari qonun kuchida yuzaga keladi.

**Maxsus vakolatli davlat organi** - sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan organ.

**Polis (Policy)** – sug'urta shartnomasining huquqiy tasdig'i.

**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Sug'urtalovchining aktivi** – sug'urtalovchining pulda ifodalangan mulki (asosiy vositalari va oborotdan tashqari aktivlari, moliyaviy qo'yilmalari, materiallar, kassadagi pul mablag'lari, hisob raqamidagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va b.), buxgalteriya balansining bir qismi.

**Sug'urta bozori** – sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

**Sug'urta nazorati** – vakolatli davlat organi tomonidan sug'urtalovchilar faoliyatini nazorat qilish.

**Sug'urta portfeli** – sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan badallar yig'indisi yoki tuzilgan va to'langan shartnomalar soni.

**Fuqarolik javobgarligi** – fuqaro va yuridik shaxslarning uchinchi shaxslar (jismoniy va huquqiy) oldidagi qonunchilikda ko'zda tutilgan javobgarlikning bir turi bo'lib, u zarar yetkazuvchining harakat yoki harakatsizligi natijasida uchinchi shaxsga zarar yetkazilganda yuzaga keladi.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudga da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Sug'urta tashkilotlari moliyasining xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Davlat mulkchiligi ishtirokidagi sug'urta tashkilotlari tizimi faoliyatida qanday fondlardan foydalaniladi?
3. Sug'urta tashkilotlarining daromadlari qanday manbalardan tashkil topadi?

- 4. Sug'urta tashkiloti uchun foyda olishning asosiy manbai bo'lib qanday faoliyat hisoblanadi?**
- 5. Sug'urta tashkilotlarining xarajatlari qanday turkumlanadi?**
- 6. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijalari qanday aniqlanadi?**
- 7. Sug'urta operatsiyalaridan olinadigan daromadni tushuntiring.**
- 8. Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatidan oladigan daromadlarini tushuntirng.**
- 9. Sug'urta tashkilotlarida zaxira fondlarini shakllantirish ehtiyoji nimadan iborat?**
- 10. Badallar rezervi deganda nima tushuniladi?**
- 11. Sug'urta kompaniyalarning pul mablag'larini aylanishi nechta mustaqil pul oqimini o'z ichiga oladi?**
- 12. Sug'urta zahiralarning shakllanishi bo'yicha qanday qonun-qoidalar mavjud?**



## 9-mavzu. Sug'urta kompaniyasining investitsiya faoliyati

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urta tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari*
2. *Sug'urta mablag'larini joylashtirish*
3. *Tayanch iboralar*

### 1. Sug'urta tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari

Keyingi yillarda mamlakat sug'urta xizmatlari bozorida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni erkinlashtirish doirasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002-yil 5 apreldagi VIII- sessiyasida «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan sug'urta kompaniyalarning investitsiya faoliyatini amalga oshirishi belgilandi.

Sug'urta kompaniyalari asosiy faoliyat bilan bir qatorda investitsiya faoliyatini ham amalga oshirish imkoniyatiga egadir. Odatda, sug'urta kompaniyalari sug'urtaviy xizmat ko'rsatishi o'ziga xos xususiyatga ega ya'ni, mijoz dastlab sug'urtalovchiga sug'urta badalini shartnoma tuzilishi bilan to'laydi. Sug'urta shartnomasi muddatining tugashi xizmat to'liq ko'rsatilganligini bildiradi. Demak, sug'urta kompaniyalarida moliya resurslarining harakati xususiyatlari shunga olib boradiki, sug'urta kompaniyalari ixtiyorida shartnomani amal qilish mobaynida qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiyalash mumkin bo'lgan vaqtinchalik majburiyatdan holi bo'lgan katta miqdorda vaqtincha bo'sh mablag'lar to'planadi. Sug'urtalovchilar bu mablag'larni ko'shimcha daromad olish maqsadida turli obyektlarga investitsiya qilishlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlari tasarufida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni to'planishi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Sug'urta qiluvchilar tomonidan moliya resurslarining to'planishi sug'urtani faol investitsion siyosat yo'li bilan iqtisodiyotning asosiy omiliga aylantiradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, sug'urtalovchilar turli polis egalaridan olingan passiv pul mablag'larni moliya bozorida harakat qiluvchi aktiv kapitalga aylantirishadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, sug'urta kompaniyalar bo'sh mablag'larini turli obyektlarga investitsiya qilish imkoniyati tug'ildi. 1993-yilning 6 mayida qabul qilingan «Sug'urta to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasida «Sug'urta tashkilotlari o'z moliyaviy manbalarini barqaror saqlab turish maqsadida investitsiya berishga yoki sug'urta zaxiralari va o'zga mablag'lardan boshqa yo'l bilan foydalanishga haklidir», deb ko'rsatilgan edi. Ammo 2002-yilning 5 aprelida qabul qilingan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq «Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'lik bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas» deb belgilangan. Demak, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyati qat'iy cheklanadi. Shuningdek, ushbu qonunning yuqorida ko'rsatib o'tilgan moddasida sug'urtalovchilar maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishlariga ruxsat berilgan.

Sug'urta kompaniyasining investitsion jarayonlarda ishtirok etishligini uni investitsion imkoniyatlari belgilaydi.

Sug'urta kompaniyasining investitsion imkoniyatlarini quyidagi omillar belgilaydi:

1. Mijozlar soni va sug'urta mukofoti hajmiga bog'liq bo'lgan vaqtinchalik bo'sh mablag'lar xajmi;

2. Muddatlar, ya'ni bu vaqt davomida ushbu mablag'lardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Sug'urta kompaniyasi investitsion portfeli tizimi, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashi lozim va u odatda sug'urta nazorati me'yorlari bilan belgilanadi. Unda sug'urta zaxiralarning vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini joylashtirish tartibi belgilangan, davlat tomonidan sug'urta



investitsiyalarining ma'lum bir himoyasi ta'minlangan va sug'urta investitsiyasining aniqlangan ustuvorligi belgilangan.

*Investitsiya* - bu tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyatda daromad (foyda) olish obyektlariga mablag'larni joylashtirish.

Sug'urta tashkilotlarining aktivlarini joylashtirish *likvidlik, qaytarishlik, foydalilik* va *diversifikatsiya* tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim.

*Aktivlarni likvidligi* deganda, sug'urta kompaniyalari aktivlarni tezlik bilan naqd va boshqa to'lov mablag'lariga aylantirib, olingan majburiyatlarni tugatishga qaratilgan imkoniyat tushuniladi.

*Qaytarishlik* deganda, investitsiya mablag'larini to'liq hajmda qaytarilishi tushiniladi. Qaytarishlik tamoyillari (ishonchlilik) sug'urtalovchilar oldiga qo'yilmalarni xavfsiz sharoitda maksimal imkoniyatlarga, ya'ni investitsiya risklarini minimum darajasiga erishish vazifasini qo'yadi.

Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini boshqarishni asosiy maqsadlaridan biri, bu - o'z investitsiya faoliyatidan to'g'ri va oqilona foydalanishni boshqarish orqali samaraga erishishdir. Buning uchun sug'urta kompaniyasining investitsiya siyosati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- sug'urta kompaniyasi investitsiya portfelining barqarorligi ta'minlanishi shart. Shundan investitsiya siyosati uning ishonchli bo'lishi orqali sug'urta kompaniyasining barqarorligi va raqobatdoshligi oshiradi;

- investitsiyaning daromadli va ishonchli yo'nalishini ta'minlash sug'urta kompaniyasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Investitsiya portfelini samarali shakllantirishda birinchi navbatda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- sug'urta hodisasining sodir bo'lish va to'lov majburiyatining bajarish extimolligi;

- investitsiya tavakkalchiligida sug'urta zaxiralarini yo'qotish extimolligi.

Sug'urta kompaniyasining investitsiya siyosatidagi sug'urta hodisasi extimolligi uning faoliyati xususiyatidan kelib chiqadi, chunki sug'urta kompaniyasi shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mulkiga tasodifan yetgan zararni qoplashni sug'urta shartnomasi shartlariga asosan o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun investitsiya rejalashtirilayotgan to'lov majburiyatlarining bajarilishi extimolligi asosiy omillardan biri hisoblandi.

## 2. Sug'urta mablag'larini joylashtirish

Sug'urta fondlarini investitsiya qilish investitsiya faoliyatining boshqa turlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu, bir tomondan, sug'urtaning tavakkalli tabiati bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, sug'urta fondlari vaqtincha bo'sh mablag'largina xalos. Ular istalgan vaqtda sug'urtaviy majburiyatlarni bajarishga yo'naltirilishi mumkin. Shuning uchun, sug'urta tashkilotlarini investitsion amaliyotida ham investitsion, ham sug'urta faoliyatining asosiy maqsadi va vazifalarini mujassamlashtiruvchi o'z tamoyillari ishlab chiqilgan. Bu tamoyillar *ishonchlilik, likvidlilik, diversifikatsiya* va *qo'yilmalarning daromadlilikidan* iborat.

Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri uning davlat tomonidan yetarlicha qattiq tartibga solinishi hisoblanadi. Bunda, davlat sug'urtalovchilarning investitsion faoliyatini to'liq tartibga solmaydi, balki faqatgina sug'urta zaxiralarini joylashtirish qoidalarini o'rnatish bilan sug'urta fondlarini investitsiya qilish jarayoni. Bunday tartiga solishning zarurligi quyidagi ikki omil bilan asoslanadi. *Birinchi*dan, moliyaviy resurslarni harakati xarakteri bilan, qaysiki sug'urtalovchi ixtiyorida ma'lum davr davomida vaqtincha bo'sh mablag'lar (ammo, ularning barchasi sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bilan bog'liq emas) bo'ladi va bu mablag'lar qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiya qilinishi mumkin. *Ikkinchi*dan, bu mablag'larni sug'urtalovchi majburiyatlarga ega bo'lgan, ya'ni sug'urtalanuvchi va sug'urta qildiruvchilar tomonidan investitsiya qilinishi ustidan nazorat qilishning imkoniyati yo'qligi bilan.

*Sug'urta fondlarini investitsiya qilishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:*

- mablag'larni joylashuvini sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlarga muddatlari va hajmlari bo'yicha moslashtirish;
- milliy manfaatlarini himoya qilish, misol uchun, chet elga investitsiya qilish bo'yicha mamlakat sug'urtalovchilariga cheklovlar o'rnatish;
- sug'urtalovchilar tomonidan ishonchlilik, likvidlilik, diversifikatsiya va qo'yilmalarning daromadlilik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom", O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 3 iyuldagi 68-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi nizom"lar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 3 iyuldagi 68-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi nizom" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-618-sonli qaroriga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatiga talablarni o'rnatadi.

*Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatining obyekti quyidagilar hisoblanadi:*

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;
  - xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlari;
  - bank sertifikatlari (depozit sertifikatlari);
  - kredit tashkilotlaridagi omonatlar (depozitlar);
  - ko'char va ko'chmas mulk (binolar, inshootlar, jixozlar va boshqa moddiy qiymatliklar)
- va ularga egalik huquqi;
- yuridik shaxslarning ustav kapitalida ulushli ishtirok etish;
  - O'zbekiston Respublikasi hududida chivarish va muomalaga kiritishga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ruxsat berilgan qimmatli qog'ozlar yoki tegishli vakolatli davlat organi tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat olib borish uchun berilgan litsenziya (ruxsatnoma)ga ega bo'lgan horijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan va bozorda muomalaga kiritilgan qimmatli qog'ozlar.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) qonunchilikka zid bo'lmagan investitsiya faoliyatining boshqa obyektlariga ham investitsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarning qonun bilan himoyalangan manfaatlarini va huquqlarini poymol qiluvchi, qurish va foydalanishning qonunchilik bilan o'rnatilgan sanitar-gigienik, radiatsion, ekologik, arxitektura-shaharsozlik va boshqa talablariga javob bermaydigan obyektlarga investitsiya qilishi taqiqlanadi.

*Investitsion faoliyatga qo'yiladigan asosiy talablar.*

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) o'z aktivlarini *ishonchlilik, likvidlilik, diversifikatsiya va daromadlilik* tamoyillari asosida joylashtirish shart.

*Investitsiya faoliyatini amalga oshirishda sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) quyidagi asosiy shartlarni bajarishi lozim:*

- investitsiyalarni va ular bilan bog'liq risklarni omilkorlik bilan boshqarish;
- axborot tiniqligi va maxfiyligini ta'minlash.

*Investitsiyalarni va ular bilan bog'liq risklarni omilkorlik bilan boshqarish sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:*

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning investitsiya faoliyatini asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan investitsiya siyosatini tasdiqlash;

– investitsion faoliyatni tashkil etishga, zarurat bo'lganda, investitsion maslahatchilarni, investitsion aktivlarni ishonchli boshqaruvchilarni yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchilarini jalb qilish;

– investitsiya obyektlarini tahlil qilish va olingan daromadlilikni davriy baholash va sh.k.

*Axborot tiniqligi va maxfiyligini ta'minlash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:*

– qonunchilik talablariga muvofiq tarzda ma'lumotlarni oshkor qilish;

– amalga oshirilgan investitsiyalar to'g'risida ta'sischi oldida yillik hisobot berish;

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning investitsion siyosatiga muvofiq ravishda sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) xodimlari va boshqaruv organi a'zolari tomonidan xizmat va maxfiy axborotlardan foydalanish.

*Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsion faoliyatni amalga oshirishda quyidagilarga majbur:*

a) qonunchilik talablariga rioya qilish;

b) moliyaviy, texnik, axborot resurslari mavjudligini ta'minlash;

v) investitsion riklarni to'laqonli baholashni amalga oshirish va samarali qarorlar qabul qilish uchun malakali xodimlar bilan ta'minlash;

g) javobgar shaxsning mablag'larni investitsiya qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi yozma xulosalarini olish;

d) javobgar shaxsning Nizom bilan o'rnatilgan malaka talablariga mos kelishligini ta'minlash.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) investitsion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan va sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning to'lovga qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan risklarni boshqarish tizimini tashkilga etishga majbur.

*Investitsion faoliyatni amalga oshirish tartibi*

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) har yili kelasi yil uchun investitsion siyosatini ishlab chiqadi va bu siyosat sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi tomonidan joriy yilning 20 dekabriga qadar tasdiqlanadi.

*Investitsion siyosat quyidagi asosiy elementlarni nazarda tutishi kerak:*

– investitsion faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan risklar tahlili;

– investitsion faoliyat obyektlari bo'yicha sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini uzoq muddatli taqsimlash;

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini investitsion faoliyat obyektlari, jug'rofiy hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlash limitlari;

– investitsion faoliyatning ma'lum obyektlariga investitsiya qilishni chegaralash yoki ta'qiqlash;

– javobgar shaxslar uchun sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini investitsiya qilishda qaror qabul qilish bo'yicha vakolatlari va cheklovlari chegaralarini belgilash;

– javobgar shaxslar uchun qo'shimcha malaka talablari;

– javobgar shaxs tomonidan ekspertiza o'tkazish va xulosa tayyorlash tartibi;

– investitsion faoliyat bilan bog'liq og'irlashgan sharoitlarning oqibatlarini yumshatish bo'yicha favqulotda holatlardagi harakatlar rejasi.

Javobgar shaxs mablag'larni investitsiya qilish haqidagi qarorni qabul qilguniga qadar zaruriy hujjatlarni (biznes-reja, hisobotlar va sh.k.) yig'adi va mablag'larni investitsiya qilishning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan ekspertiza o'tkazadi. Javobgar shaxs ekspertiza natijalari bo'yicha zaruriy hujjatlarni olganidan keyin bir hafta muddat ichida yozma shaklda o'zining xulosasini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom"ning IV bo'limida sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid talablar o'rnatilgan. Unga ko'ra:

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitallariga joylashtirgan aktivlarining umumiy summasi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda

tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitalining 50 foizi miqdori bilan chegaralanadi;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalining 30 foizidan oshmasligi shart (agar qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa), sug'urta faoliyati, shuningdek sug'urta faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshiradigan sho'ba korxonalar bundan mustasno;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlari ko'chmas mulk obyektlariga joylashtirilganda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 50 foizidan ortig'ini bitta yer uchastkasi yoki ko'chmas mulkning boshqa obyektiga yoxud bitta obyekt sifatida ko'rilishi mumkin bo'lgan yer uchastkalari va ko'chmas mulk obyektlari majmuiga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini bank omonatlariga (depozitlariga) joylashtirishda, bitta tijorat bankiga joylashtirilgan omonat sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 40 foizidan oshmasligi shart;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini kredit tashkilotlarida (tijorat banklaridan tashqari) omonatlarga (depozitlarga) joylashtirishda, omonatlarning (depozitlarning) umumiy summasi sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 10 foizidan oshmasligi shart;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini bitta yuridik shaxsning ustav kapitaliga joylashtirish yoki bitta yuridik shaxsda ishtirok etish bo'yicha boshqa huquqlari, agar qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 30 foizidan oshmasligi shart;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini quyidagi yo'llar bilan joylashtirish taqiqlanadi:

intellektual mulkka qo'yilmalar (dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, adabiyot, firma nomlari va tovar belgilarini xarid qilish bundan mustasno);

mazkur Nizomda nazarda tutilgan hollardan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarz shartnomasini tuzish (moliyaviy yordam berish);

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) o'z ta'sisчилari, aksiyadorlari va xodimlariga, shuningdek u bilan hayot sug'urtasi shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchilarga ushbu shartnomalar bilan kafolatlangan qarzlarni berishga haqli. Bunda berilgan qarzlarning umumiy summasi sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ustav kapitalining 10 foizidan oshmasligi shart;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) o'z mablag'lari manbalari summasining 30 foizidan oshgan hajmdagi qarzlarni (moliyaviy yordamni) faqat Davsug'urtanazoratni xabardor etgandan so'nggina, olishga haqli;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) kassa va/yoki hisob (valyuta) va boshqa bank raqamlarida o'tgan o'n ikki oy mobaynida hisoblangan sug'urta tovonlari summasining 3 foizidan kam bo'lmagan miqdorda pul mablag'lariga ega bo'lishi shart;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan bog'liq shaxslarga imtiyozli shartlarni taqdim etish taqiqlanadi. Imtiyozli shartlarni taqdim etish quyidagilarni anglatadi:

mohiyati, maqsadi, o'ziga xos xususiyatlari va tavakkalchiligiga ko'ra, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) boshqa shaxslar bilan, agar ular bilan alohida munosabatlar bo'lmagan taqdirda, tuzmaydigan bitimni tuzishi;

sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) foydasiga boshqa mijozlardan talab qilinadigan summalardan kam bo'lgan foizlarni, badallarni undirish, investitsiyalarning ta'minoti sifatida garovga qabul qilish, shuningdek, boshqa to'lovlarni qabul qilish;

etarli asoslarsiz investitsiya mablag'larining qaytarilishini kechiktirish;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) bog'liq shaxslar bilan faoliyatining ko'rsatkichlari sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan bitta yoki barcha bog'liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlar summasining sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitaliga nisbati sifatida aniqlanadi;

$$CK = \frac{CA \times 100\%}{YK} \quad \text{yoki} \quad CK = \frac{YC \times 100\%}{YK}$$

bu yerda:

**CK** - sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) barcha bog'liq shaxslar bilan faoliyatining ko'rsatkichlari;

**CA** - sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan bitta bog'liq shaxsda joylashtirilgan aktivlar;

**YC** - barcha bog'liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlarning umumiy summasi;

**YK** - ustav kapitali.

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan bitta bog'liq shaxsda joylashtirilgan aktivlarning umumiy summasi, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitalining 15 foizidan oshmasligi shart, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan barcha bog'liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlarning umumiy summasi sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitalining 100 foizidan oshmasligi shart;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarni bog'liq shaxslarda faqat sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi ruxsati bilan investitsiya qilinayotgan mablag'larning likvidligi, foydaliligi va qaytarilishini, shuningdek mazkur Nizom talablarini hisobga olgan holda tayyorlangan texnik-iqtisodiy asoslanish (biznes-reja) asosida joylashtirishga haqli;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) dastlabki ikki yillik faoliyati davomida bog'liq shaxslarda joylashtirish taqiqlanadi;

- xususiy mulk yoki unga bo'lgan huquq garovga berilganda, kafolat berilganda yoxud balansda aks etmagan boshqa majburiyat qabul qilinganda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) 5 kundan kechikmagan muddatda Davsug'urtanazoratni yozma ravishda xabardor qilishi shart.

### 3. Tayanch iboralar

**Sug'urtalovchining aktivi** – sug'urtalovchining pulda ifodalangan mulki (asosiy vositalari va oborotdan tashqari aktivlari, moliyaviy qo'yilmalari, materiallar, kassadagi pul mablag'lari, hisob raqamidagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va b.), buxgalteriya balansining bir qismi.

**Bog'liq shaxslar** - sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) bilan alohida munosabatlarga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar, ya'ni:

sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi tarkibidagi har qanday shaxs, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari;

sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ustav kapitalida 20 foizdan ortiq ulushga ega har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs, yoki ushbu yuridik shaxsning har qanday rahbari yoki yirik aktsiyadorlari (ta'sisчилari), shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;

sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) faoliyatini qonunchilikka muvofiq nazorat qiluvchi yuridik shaxslar va ularning boshqaruvchilari;

sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ulushi ustav kapitalida 20 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ushbu yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari va ularning yaqin qarindoshlari.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxslardan biri bilan bog'liq shaxs ularning har biri bilan bog'liq shaxs bo'lib hisoblanadi.

**Davsug'urtanazorat** – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug'urta nazorati bo'yicha Davlat inspeksiyasi



**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Qayta sug'urta qilish** - bir sug'urtalovchi (qayta sug'urtalanuvchi) sug'urtalanuvchi oldidagi o'z majburiyatlari butunlay yoki qisman shartnomada belgilangan tavakkal shartlari asosida bajarilishini boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) orqali sug'urta qilishi.

**Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning to'lovga qobiliyati** - sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning o'z moliyaviy majburiyatlarini to'la va o'z vaqtida bajara olishligi.

**Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) majburiyatlari yig'indisining hajmi** – sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan olingan va hisobot sanasida amalda bo'lgan eng yirik alohida beshta risklar bo'yicha sug'urta majburiyatlari hajmi.

**Qaytuvchanlik** – aniq shartlarda sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning mablag'larini investitsion riskning minimal darajasiga keltirish yo'li bilan maksimal xavfsizligini ta'minlash.

**Likvidlik** – sug'urta kompaniyalarining aktivlarini tezlik bilan naqd va boshqa to'lov mablag'lariga aylantirib, olingan majburiyatlarni tugatishga qaratilgan imkoniyati.

**Diversifikatsiya** –mablag'larni yoki ulardan daromadlarni yo'qotish riskini kamaytirish maqsadida sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) mablag'larini turli investitsiya obyektlari o'rtasida taqsimlash.

**Daromadlilik** – sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning investitsiyadan daromad olishi.

**Investitsiyalar** – foyda olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlari qo'yiladigan sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning har qanday qo'rinishdagi egalik qiluvchi yoki nazorat qiluvchi aktivi.

**Investitsiya faoliyati** – sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning investitsiyani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan harakatlari yig'indisi.

**Sug'urta mas'uliyati** – sodir bo'lgan sug'urta hodisasining kelishilgan oqibatlarini bartaraf etish uchun sug'urta qoplamasi yoki sug'urta pulini to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyati.

**Sug'urta dalolatnomasi** – o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladigan va sodir bo'lgan sug'urta holatini hamda sabablarini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta bozori** – sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning investitsiya faoliyatini mamlakat iqtisodiyoti uchun qanday ahamiyati bor?
2. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning investitsiya faoliyatini ijtimoiy ahamiyati nimadan iborat?
3. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning investitsiya faoliyatini iqtisodiy ahamiyati nimadan iborat?
4. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning investitsion imkoniyatlari deganda nima tushuniladi va unga qanday omillar ta'sir qiladi?
5. Sug'urta kompaniyalarining mablag'lari qanday tamoyillar asosida joylashtiriladi?
6. Sug'urta fondlarini investitsiya qilishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
7. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga binoan sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatining obyekti nimalar hisoblanadi?
8. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning investitsion faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?



9. **"Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom"ga binoan sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning aktivlarini joylashtirishga oid qanday talablar o'rnatilgan?**

## 10-mavzu. Sug'urta bozori va uni rivojlanish qonuniyatlari

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urta bozori va uning tarkibiy tuzilishi*
2. *Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari*
3. *Tayanch iboralar*

### 1. Sug'urta bozori va uning tarkibiy tuzilishi

**Sug'urta bozori** – bu sug'urta holatlari ro'y berganda jismoniy va yuridik shaxslarni mulkiy mafaatlarni sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari hisobidan himoya qilishda aks etuvchi sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Sug'urta bozorini amal qilishining asosiy sharti sug'urta xizmatlariga ehtiyoj (talab) va bu ehtiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalovchilarning mavjudligidir.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida sug'urtada ikki tendensiya amal qilmoqda: sug'urtalovchilarning ixtisoslashuvi va universallasuvi, ya'ni ma'lum sug'urta kompaniyalari sug'urtaning deyarli barcha turlari bo'yicha xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yib o'z faoliyatlarini kengaytirsalar, boshqa bir kompaniyalar sug'urtaning ma'lum bir turlari bo'yicha ixtisoslashib ushbu xizmat turini mukammal o'zlashtirib olmoqdalar. Bu yo'nalishlarning birinchisi bevosita mehnatning ijtimoiy taqsimlanishining kuchayishi bilan bog'liqdir: ushbu jarayon sug'urta ishida ham obyektiv zarurat tug'dirmoqda.

Sug'urtalovchilar faoliyatining universallashtirish tendensiyalari ko'proq iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi unchalik yuqori bo'lmagan, sug'urta xizmatlariga talabgorlar soni u qadar ko'p bo'lmagan mamlakat, hudud yoki mintaqalarda yuz bersa, ixtisoslashuv jarayonlari iqtisodiyoti va sug'urta tizimi rivojlangan, sug'urta xizmatlariga talabgorlar soni ko'p bo'lgan mamlakat, hudud yoki mintaqalarga xosdir, chunki sug'urta bozori endigina rivojlanayotgan, sug'urtalashga talabgorlar soni u darajada ko'p bo'lmagan mamlakatlardagi sug'urta kompaniyalari bir yoki ikki sug'urta turiga ixtisoslashish bilan yetarli darajada mijozlarga ega bo'la olmaydilar. Shuning uchun ham ular mumkin qadar ko'proq turdagi sug'urta xizmatlarini amalga oshirib ko'proq mijozlarga ega bo'lishga harakat qiladilar. Sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda esa sug'urtalanishga talabgorlar soni yetarli darajada bo'lib, ammo ularning talablari ham yuqori darajadadir, bunday talablarni qondirish uchun esa ma'lum bir sug'urta turiga ixtisoslashib, ushbu tur bo'yicha mukammal bilimlarni egallash va katta tajribaga ega bo'lish talab etiladi.

Mamlakatimiz milliy sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyatining ma'lum tarmog'iga ixtisoslashish bilan bir vaqtning o'zida universal faoliyatni ham olib bormoqdalar. Bunga yuqorida aytib o'tganimiz sug'urta sohasining xali yuksak darajada rivojlanmaganligi, korxonalar, tashkilotlar va aholining sug'urta to'g'risidagi huquqiy bilimlarining yetarli darajada shakllanmaganligi tufayli sug'urta xizmatlariga talabgorlar sonining yetarli emasligi sababdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib respublikada sug'urta bozorini rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish sug'urta tizimi xodimlari va hukumatning asosiy vazifalaridan biridir.

Respublikamizda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda avvalo quyidagi muammolar va vazifalarni yechish muhimdir:

- hozirgi kunda yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtaga va uning xizmatlariga bo'lgan talabini har tomonlama shakllantirish zarurdir;

- mamlakatimizda sug'urta sohasidagi bozor mexanizmlarini talab darajasida qo'llanilishiga erishish va shu asosda ixtiyoriy sug'urtalashga sug'urtalanuvchilarni jalb etishni talab darajasiga yetkazish zarur;

- respublikamizda ayni paytda mavjud bo'lgan sug'urta zahiralarini investitsiyaga

yo'naltirish ishlarini yanada rivojlantirish va mukammallashtirish zarur.

Ayniqsa mamlakatimiz sug'urta kompaniyalarida kapitalizatsiyaning talab darajasida emasligi, hali milliy qayta sug'urtalash bozorini rivojlantirishga kam e'tibor berilayotganligi tufayli qayta sug'urtalashga xorijiy sug'urta kompaniyalarini jalb etish tendensiyasi saqlanmoqda. Hozirgacha mamlakatimiz sug'urta bozorida axborotlar tizimining taraqqiy etmaganligi natijasida sug'urtalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy barqaror va to'lovga layoqatli sug'urta kompaniyalarini tanlab o'zining mol-mulkini, sog'ligini sug'urtalash imkoniyatlari chegaralanib qolganligi sug'urta faoliyatining keng rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda.

Sug'urta bozori amal qilishining asosiy sharti, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning mavjud bo'lishi va sug'urtalovchilar bu talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lishlari bilan xarakterlanadi. Demak, sug'urta bozorining faoliyat ko'rsatishi qiymat qonuni hamda talab va taklif qonuni bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Sug'urta bozori subyektlarning mustaqil bo'lishini, ularning o'zaro teng imkoniyatlar bilan raqobat olib borishi, asosiy munosabat sug'urta xizmatlarining oldi-sotdisi bo'yicha, ya'ni sug'urta mahsulotlarini sotib olish, gorizontaal hamda vertikal rivojlanish aloqalarini olib borish bilan ta'riflanib kelinadi.

Sug'urta bozori o'zining tarkibiy jihati bo'yicha ikki aspektga bo'linadi, bular:

- tashkiliy - huquqiy aspekt;
- hududiy aspektidir.

Tashkiliy-huquqiy aspekt, bu aksionerlik, o'zaro hamkorlik asosida, xususiy va davlat sug'urta tashkilotlaridan iborat bo'ladi.

Hududiy aspekt esa mahalliy (regional), milliy (respublika, mamlakat va h.k.), mintaqaviy va jahon sug'urta bozori ko'rinishida shakllanadi.

Milliy sug'urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug'urta muassasalarini va ularning faoliyatini qamrab oladi. Bunga O'zbekiston sug'urta bozorini misol qilib olishimiz mumkin, Bugungi kunga kelib O'zbekiston sug'urta bozorida 30 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritishmoqda, shulardan 29 tasi umumiy sug'urta turlari bilan shug'ullanishsa, 1 tasi hayot sug'urtasi turlari bilan shug'ullanmoqda, shuningdek 1 tasi qayta sug'urtalashni amalga oshiruvchi kompaniya.

Xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan sug'urta bozorlari mahalliy sug'urta bozori va ichki sug'urta bozoriga, hamda tashqi va global, ya'ni dunyo sug'urta bozorlariga bo'linadi.

Ichki sug'urta bozorining asosini ma'lum mamlakat ichidagi sug'urta munosabatlari tashkil etadi. Ichki sug'urta bozorining asosiy vazifasi mamlakat ichkarisidagi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirish hisoblanadi. Sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirish asosan marketing kuzatishlarini olib borish orqali sug'urta bozorini o'rganish, sug'urta xizmatlarini reklama qilishni amalga oshirish, talabni aholi o'rtasida, mulk egalari o'rtasida shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Sug'urta kompaniyasining bozorga mo'ljallangan, har tamonlanma qulay, bozorga moslashgan sug'urta tariflari uning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Sug'urta bozorining infratuzilmasini takomillashtirib borish orqali har bir operatsiyadan bozor ishtirokchilari yaxshigina manfaat ko'rishadi. Shuni takidlash kerakki, ixcham kompaniya va foyda keltiradigan tarif siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish ichki sug'urta bozorining muhim vazifasidir, chunki sug'urta kompaniyalari o'z tarif tizimlariga asosan sug'urta xizmatlariga bo'lgan bahoni belgilashga erishadilar.

Tashqi tomondan sug'urta bozoriga ta'sir etuvchi omillar va ichki omillar asosida sug'urta bozoriga ta'sir ko'rsatib, uning holatini o'zgartirish mumkin. Tashqi omillarga, davlatning iqtisodiy siyosati, moliyaviy inflyatsiya, valyuta kursining o'zgarishi va boshkalarni kiritish mumkin.

Sug'urta bozori alohida tizim sifatida ichki va tashqi kuchlarning o'zaro birlashishi, spiral shaklida sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab dinamikasining o'sishida o'z aksini topadi. Bu tizim chegaralangan emas, chunki tashqi va jahon sug'urta bozori hamda ichki sug'urta bozori bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, spiralning har bir tuguni ma'lum bir darajada sug'urta bozorida sug'urta xizmatlariga bo'lgan potensial talabga ta'sir etadi.

Sug'urta bozoridagi sug'urta kompaniyalarining o'z mijozlarini ko'paytirib borishi ularga katta miqdorda foyda keltirishi bilan birga, milliy sug'urta bozorining rivojlanishiga olib keladi va natijada sug'urta kompaniyalari xalqaro sug'urta bozorlariga kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xuddi shunday imkoniyatga ega bo'lgan Angliya, AQSh, Germaniya, Shvetsariya, Fransiya, Yaponiya kabi ko'pgina mamlakatlarning sug'urta kompaniyalari transmilliy kompaniyalarga aylanib, jahon sug'urta bozorida yetakchilik qilish bilan birga, dunyodagi yetakchi banklar bilan bir qatorda kredit beruvchi moliyaviy tashkilotlarga aylanib bormoqdalar. Sug'urta kompaniyalari o'zlarining ixtiyoridagi pul mablag'larini ssuda kapitali sifatida, pulga ehtiyoj sezgan talabgorlarga ma'lum foiz to'lash sharti bilan, kelishilgan muddatga kreditga bermoqdalar. Ssuda operatsiyalari bo'yicha ko'p mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari banklardan keyingi o'rinni egallab kelmoqdalar va yirik moliyaviy tashkilotlarga aylanib, iqtisodiyotda yetakchi o'rinni egallashga da'vo qilmoqdalar.

Sug'urta tashkilotlaridan kredit olish banklarga qaraganda ancha qulay bo'lib, sug'urta kompaniyalari kreditni mijozlarga uzoq muddatga mo'ljallab berishyapti, banklarda esa bunday imkoniyat deyarli yo'q. Sug'urta kompaniyalarining berayotgan uzoq muddatli kreditlari qimmatli qogozlar bilan bog'langan bo'lib, bu aksiya, obligatsiya, depozit sertifikatlari, veksel va hokazolarni o'zida mujassamlashtiradi.

Sug'urta kompaniyalariga kelib tushadigan badallar va aktivlar hisobidan hosil bo'lgan mablag'larni turli ko'rinishdagi investitsiyalarga yo'naltirish, homiylik ko'rsatish va depozitlashtirishdan keladigan pullar, hamda boshqa daromadlar sug'urta kompaniyalarining investitsiyaga yo'naltirayotgan mablag'lari hajmini yanada oshirish imkonini bermoqda va kredit bozorida sug'urta kompaniyalarining mablag'lariga talab oshib bormoqda.

Sug'urta bozorining bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanib borishiga ichki va tashki omillar ta'sir etishini yuqorida ko'rsatib o'tdik. Gap shundaki, sug'urta bozori davlat tomonidan boshqarilib va nazorat qilib turilishi zarur. Bu rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlarini o'rganib chiqarayotgan xulosamiz hisoblanadi.

Sug'urta bozorida davlat qonunlarning buzilishini nazorat etishi, davlat tomonidan olib borilayotgan sug'urta siyosatining sug'urta kompaniyalari tomonidan qanday amalga oshirilayotganligini, sug'urta tariflarining qanchalik davlat belgilagan me'yorlarga to'g'ri kelishini, ularning bozor talabiga moslashtirib borilayotganligini nazorat qilib borishi lozim. Demak, sug'urta bozorini faqat rivojlantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki ichki davlat aralashuvi orqali boshqarilib turishga sug'urta bozori talab sezadi.

Yaqin yillarda O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini quyidagilarda ko'rish mumkin deb o'ylaymiz:

- milliy sug'urta bozori a'zolarining bozordagi aktivligini oshirish, bozorning ishonchlilikini ta'minlash, sug'urta faoliyatini nazorat qilishni xalqaro andozalar darajasida olib borish, sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlarni hamda huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- milliy sug'urta bozori infratuzilmasini yanada takomillashtirish, sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblangan sug'urta vositachilari faoliyatini aktivlashtirish bilan birga milliy sug'urta bozorida ko'rsatilayotgan qo'shimcha xizmatlar sifatini yanada oshirish maqsadida aktuariylar, auditorlar, assistans xizmati, adjasterlar va syurveyerlar faoliyatini kengaytirish;

- milliy sug'urta bozorining rivojlanish darajasini oshirib borib, uni xalqaro sug'urta bozori hamda qayta sug'urtalash tizimiga qo'shilishiga sharoit va imkoniyatlar yaratib berish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Sug'urta bozoridagi munosabatlarni rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlari va xalqaro sug'urta bozori tajribalaridan foydalangan holda rivojlantirishga davlatimiz moddiy va huquqiy yordamlarni amalga oshirishi zarurdir.

## 2. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari

***Sug'urta bozorining subyektlari professional va professional bo'lmagan qatnashchilarga bo'linadi.***

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi PQ-618-sonli qaroriga bilan "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risidagi Nizom" qabul qilingan bo'lib, unda sug'urta bozorining professional qatnashchilarining tarkibi, ularning faoliyatini tashkil qilish tartib hamda shartlari, shuningdek asosiy funksiyalari belgilab qo'yilgan.

Nizomga ko'ra *sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari (sug'urta brokeri, qayta sug'urtalovchi broker, sug'urta agenti), aktuar, adjaster, syurveyer xizmatlari, shuningdek assistans xizmatlari ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar* **sug'urta bozorining professional qatnashchilari** hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarini davlat ro'yxatiga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, sug'urta bozorining boshqa professional qatnashchilarini davlat ro'yxatiga olish esa - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnomalar (litsenziyalar) asosida amalga oshiriladi.

Aktuar, adjaster, syurveyer xizmatlari hamda assistans xizmatlari ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar:

- sug'urtalovchi sifatida sug'urtalash va qayta sug'urtalash operatsiyalarini o'tkazish;
- sug'urtalash bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida qatnashish huquqiga ega emas.

Sug'urta bozorining professional qatnashchilari o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy manfaatlarni himoya qilish va ifodalash hamda umumiy vazifalarni hal etish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda notijorat tashkilotlar hisoblangan o'z uyushmalari va ittifoqlarini tuzishga haqlidir.

Sug'urta bozorining professional qatnashchilari uyushmalari va ittifoqlaridan sug'urta bozorini monopoliya qilishga yo'naltirilgan bitimlarga erishish uchun foydalanilishi mumkin emas.

### ***SUG'URTALOVCHILAR***

*Sug'urtalovchi* - bu tijorat tashkiloti hisoblanadigan, tegishli turdagi sug'urtalashni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'lovi (sug'urta puli) to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladigan yuridik shaxs.

Sug'urtalovchilar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etiladi. Davlat sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari asosida tashkil etiladi.

*Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:*

- qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urtalash (qayta sug'urtalash) shartnomalarini tuzish va bajarish;
- o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug'urtalash;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- sug'urtalash (qayta sug'urtalash) sohasida mutaxassislarning malakasini oshirish, shuningdek sug'urta agenti sifatida sug'urta vositachiligi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish;

- qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchi tomonidan amalga oshirilayotgan sug'urta turlari bo'yicha qoidalar (shartlar)ni belgilash;
  - huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlaridan va boshqa tashkilotlardan sug'urta tovonini miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;
  - sug'urta agentlari, sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlari, sug'urta bozorining boshqa professional qatnashchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;
  - qonun hujjatlarida va yoki sug'urtalash (qayta sug'urtalash) shartnomasida belgilangan hollarda va tartibda sug'urta tovonini tiklashni rad etish, sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish;
  - sug'urtalash (qayta sug'urtalash) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda sug'urtalanuvchi tomonidan ma'lum qilingan axborotni tekshirish, sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasi talablari va shartlari bajarilishini nazorat qilish;
  - xorijiy sug'urtalovchilarga syurveyer va adjaster xizmatlari ko'rsatish;
  - ilgari sug'urtalovchi tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug'urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga berilgan mol-mulkni sotish yoki ijaraga berish;
  - O'zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va xorijiy reyting tashkilotlari reytingini olish;
  - o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etish.
- Shuningdek, sug'urtalovchi qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- Sug'urtalovchilarning huquqlari bilan bir qatorda tegishli majburiyatlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:*
- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;
  - qonun hujjatlari talablariga muvofiq sug'urta faoliyatini amalga oshirishda olingan axborotning mahfiyligini ta'minlash;
  - o'zi vakolat bergan sug'urta agentlari reestrini yuritish;
  - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining talabi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan axborotni taqdim etish;
  - sug'urta hodisasi yuz berganda qonun hujjatlarida yoki sug'urtalash (qayta sug'urtalash) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda barcha zarur hisob-kitoblarni amalga oshirish va sug'urta tovonini to'lash;
  - firmaning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan joyi o'zgargan taqdirda bu haqdagi axborotni ommaviy axborot vositalari orqali sug'urtalanuvchilar e'tiboriga yetkazish, o'zi bajarayotgan bir yildan ortiq muddatli sug'urtalash (qayta sug'urtalash) shartnomasi bo'yicha esa - yozma shaklda yetkazish;
  - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta zaxiralarini shakllantirish va joylashtirish;
  - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har yili majburiy auditorlik tekshiruvdan o'tish;
  - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda bir yilda kamida bir marta aktuar tekshiruvdan o'tish;
  - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo'yicha, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilish;
  - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy, statistik, soliq axborotini va boshqa axborotni tuzish.
- Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.
- Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas.



## ***SUG'URTA VOSITACHILARI***

*Vositachilar* – bu sug'urtalanuvchilar bilan yaqin bo'lgan va sug'urta xizmatlari bozori kon'yunkturasi o'zgarishiga operativ moslashuvchi shaxslar.

Sug'urtada vositachilardan foydalanish sug'urtalovchilar raqobatini oshirish, natijada esa, sug'urtalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Sug'urtalovchining akvizitsion faoliyati sug'urta marketingining asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bu tushuncha o'z tarkibiga sug'urta polisini sotish bilan birgalikda mijozni shartnoma tuzish yoki uni sotilishiga ko'maklashishning zarurligiga ishontirish ham kiradi.

Yangi shartnomalarni tuzish, amaldagilarini uzaytirish, sug'urta polislarini sotish bo'yicha barcha akvizitsion faoliyat marketing xizmati tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Sug'urta polislarini sotuvi (shartnomalar tuzish) shartli ravishda sug'urta kompaniyalarida, agentliklarida (filiallar, sho'ba korxonalar) bevosita sotuv va alternativ tarmoq (sug'urta agentlari, brokerlari (maklerlar), vakolatxona va boshqalar) orqali tarqatish. Amaliyotda sug'urtalovchilar va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi aloqaning aralash shakli amal qilmoqda. Sug'urta polislarini sotishning eng samarali shakli vositachilar orqali komission asosda sotish hisoblanadi. Ko'pchilik hollarda vositachilar sifatida sug'urta agentlari yoki sug'urta kompaniyalarining vakillari hamda brokerlar (Angliya, Fransiya va boshq.) yoki maklerlar (Germaniya, Avstriya va boshq.), qaysiki asosiy vositachilik funksiyasi «pablik rileyshtn» (omma bilan munosabat)ni bajaruvchi.

Agar sug'urta polislarini sotish (shartnomalar tuzish) jarayoni akvizitsion faoliyat (akvizitsiya) deb nomlanar ekan, u holda bu funksiyani bajaruvchi xodimlar esa, akvizitorlar deyiladi.

Sug'urta faoliyatidagi asosiy akvizitor bizning mamlakatimizda sug'urta agenti hisoblanadi.

### ***Sug'urta agentlari***

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunini 9-moddasida sug'urta agentlari (vakillari)ga quyidagicha ta'rif berilgan: «Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs ***sug'urta agenti*** hisoblandi. Sug'urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug'urta agenti bo'la olmaydilar».

Sug'urta agentlarining bosh majburiyati yangi shartnomalar tuzish va amaldagilarini yangilash hamda aholi o'rtasida sug'urta xizmatlarini targ'ibot va tashviqot qilish hisoblanadi.

Sug'urta agentlari jismoniy yoki yuridik shaxslar (turli agentliklar, huquqiy maslahatxonalar, notarial idoralar, oila markazlari va boshq.) bo'lishi mumkin bo'lib, sug'urta tashkiloti nomidan va uning topshirig'i bo'yicha sug'urta shartnomalarini tuzish (polislarini sotish) bilan shug'ullanadi, sug'urta hujjatlarini rasmiylashtiradi, alohida hollarda esa sug'urta to'lovlari amalga oshirilishini nazorat qiladi va inkassalaydi.

Potensial sug'urtalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli shartnomalar tuzish ko'pincha sug'urta agentining professional jihatlari: yakka va jamoa sug'urtalanuvchilar bilan umumiy til topa olish, sug'urta mavzusida suhbatlar uyushtira olish, ko'rgazmali tashviqotni tarqatish va reklamada (plakatlar, kalendarlar, bukletlar, videofilmlar, jurnallar va boshq. tarqatish) qatnashishga bog'liqdir.

Sug'urta agenti sifatida ishlash mazkur lavozimga nomzoddan faqatgina taklif qilinayotgan sug'urta turlari sohasida, odamlar psixologiyasida chuqur bilimlarga ega bo'libgina qolmay, mehribonlik, hushmuomalalik, suhbatni qo'llay olish va suhbatdoshni o'ziga moslashtira bilish kabi sifatlarga ham ega bo'lishi lozim.

Chet el sug'urta kompaniyalari ishga nomzodga juda yuqori talablarni qo'yadilar. Misol uchun, AQShda professional tanlovning mezonlari quyidagilar hisoblanadi:

- komunikabellik (kirishimlilik) – turli kasb, yosh va ijtimoiy guruh odamlari bilan oson, hushmuomala hamda o'ziga mos muloqot qila olish;
- reaksiyaning tezligi, ya'ni har qanday savolga konkret holatdan kelib chiqib tez javob berish;

- moliyaviy holat – soliq inspeksiyasi tomonidan deklaratsiya qilingan daromadlar va ularning manbalari bo'yicha e'tirozlarning mavjud emasligi;
- umumiy madaniyat darajasi – kasbiga norasmiy yondashish, gaplarini nazorat qilish: keraksiz so'zlarni (aytaylik, xaligi, menimcha, bo'lsa kerak va boshq.) ishlatmaslik, so'zlardagi to'g'ri urg'ular;
- zararli (yoqimsiz) odatlarning yo'qligi va tashqi ko'rinish;
- muloyimlik.

Agar rahbariyat bilan suhbat bo'ladigan bo'lsa, u holda faqatgina taklifdan so'ng o'tirish. Suhbat paytida suhbatdoshning so'z va mimikasini ko'zatib borish, o'z vaqtida to'xtay olish (suhbatni to'xtatish), suhbatdosh gapini bo'lmaslik va boshq.

Sug'urta agentining husnixati (pocherk), turli hujjatlarni aniq, ravshan, savodli va xatosiz tulgaza olish ham alohida rol o'ynaydi, Sug'urta agentining polislar, kvitansiyalar va boshqa hujjatlardagi tushunarsiz yozuvlari ko'pincha sug'urtalanuvchilar bilan mojaroga borishga sabab bo'ladi va oxir oqibatda sug'urtalovchining obro'si(imidj)ga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

*Sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:*

- sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida, shu jumladan, sug'urtaning majburiy turlari bo'yicha sug'urtaning har qanday turi bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

- sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini to'lashda va shuningdek, sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'liq hajmda va sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lanishida zarur yordam berish;

- sug'urtalovchidan litsenziya mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek uning to'lovga qodirligi va moliyaviy barqarorligining boshqa ko'rsatkichlarini olish;

- sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur hujjatlarni (sug'urta polisini) tayyorlash va rasmiylashtirish;

- sug'urtalanuvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar to'g'risida sug'urtalovchiga to'liqroq axborot berish maqsadida sug'urtalanuvchining shaxsiy hayotiga halaqit qilmasdan umumiy ma'lum bo'lgan manbalardan tavakkalchilik va sug'urtalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash;

- qonun hujjatlarida va shartnomada belgilangan boshqa huquqlar.

*Sug'urta agenti quyidagi majburiyatlarga ega:*

- sug'urta shartnomasi tuzishda va sug'urta tovonini to'lashda hujjatlarni, shuningdek sug'urtaga oid boshqa hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirishga ko'maklashishga;

- sug'urta tariflari, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urtalash shartlari, litsenziya mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek uning to'lovga qodirligi va moliyaviy barqarorligining boshqa ko'rsatkichlari to'g'risidagi axborotga ega bo'lish;

- sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda sug'urtalanuvchi to'g'risidagi imkoni bo'lgan axborotlarga ega bo'lish, unga sug'urta tavakkalchiligini pasaytirishga va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga yo'naltirilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishni taklif etish;

- ishda qonun hujjatlari, shu jumladan mazkur Nizom talablariga qat'iy amal qilish;

- sug'urtalanuvchilarga ularning so'rovlari bo'yicha sug'urtalashning amaldagi shartlari to'g'risida batafsil va to'g'ri axborot berish;

- sug'urta hujjatlarida nazarda tutilgan rekvizitlarni o'chirib yozishga, tozalashga va tuzatishlarga yo'l qo'ymasdan tartibli va aniq to'ldirgan holda sug'urta shartnomalarini yangi muddatga to'g'ri tuzish va o'z vaqtida qayta rasmiylashtirish;

- belgilangan shakllar bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari va olingan sug'urta mukofoti summalari hisobini yuritish;

- sug'urta hujjatlarining saqlanishini ta'minlash;

- mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan holatlarga nisbatan mahfiylikni saqlash;
- sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasi mobaynida tavakkalchilik shart-sharoitlari jiddiy ravishda o'zgarishiga tegishli har qanday axborot o'z vaqtida olinishini, shuningdek sug'urta e'tirozlari paydo bo'lganda va ularni tartibga solish jarayonida sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida axborotlarning o'z vaqtida va sifatli ayirboshlanishini ta'minlash;
- tegishli bitim mavjud bo'lgan taqdirda sug'urtalovchining topshirig'i bo'yicha va uning hisobidan sug'urta to'lovlari to'lanishini tashkil etish;
- qonun hujjatlarida va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarish.

Sug'urta agentlari o'z faoliyatini sug'urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradilar.

Sug'urta agenti o'z faoliyatini faqat o'zi shartnoma (agent bitimi) tuzgan sug'urtalovchining reestriga kiritilgandan keyin amalga oshirishi mumkin.

Sug'urta agentlari xizmatlariga haq to'lash sug'urta agenti bilan tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotlari (to'lovlar)dan vositachilik taqdirlash puli shaklida amalga oshiriladi.

Sug'urta agentlari - jismoniy shaxslar sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z nomlariga, to'lovlar amalga oshirilganda esa yaqin qarindoshlari (otasi, onasi, xotini, eri, o'g'li, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga hujjatlarni yozishga, shuningdek o'z foydasiga sug'urta shartnomasi tuzishga va bunda ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish ko'rishga haqli emas.

### ***Sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlari***

Sug'urta brokeri yoki makleri yuridik shaxs bo'lib, ular sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyasini uning operatsiyalarini moliyaviy barqarorligi, sug'urta shartlarini sug'urtalanuvchi uchun qulayligi va boshqa omillardan kelib chiqib tanlashda maslahatchi rolini o'ynaydilar.

Sug'urta brokerini sug'urta agentidan asosiy farqi sug'urtalanuvchi uchun uning keyingi harakatlarini aniqlab berishdagi malakali mustaqil maslahatchi bo'lishi zarurligidadir.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunini 7-moddasida sug'urta brokerlariga quyidagicha ta'rif berilgan: «Sug'urta qilidiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs **sug'urta brokeri** hisoblanadi.

Sug'urta brokerining faoliyati sug'urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borilishi mumkin emas, qayta sug'urta brokerining faoliyati bundan mustasnodir».

Sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining operativ-moliyaviy faoliyati to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lib, ularni tartibga solib, taqqoslab va tahlil qilib, broker sug'urtalanuvchiga uning istagiga aynan ko'proq mos keluvchi sug'urta kompaniyasini tavsiya qiladi. Agar mazkur sug'urta kompaniyasi bilan shartnoma tuzilgudek bo'lsa, u holda sug'urta kompaniyasi broker mehnatiga komission asosda (sug'urta summasidan foizda) haq to'laydi. Chet el amaliyotida brokerining komission rag'batlari *brokeredj* deb ataladi.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda broker sug'urtalanuvchining maslahatchisi sifatida sug'urta summasi yoki sug'urta qoplamasini olishga yordam beradi.

Qayta sug'urtalash brokeri - o'z nomidan va sug'urtalovchining topshirig'i bo'yicha qayta sug'urtalash shartnomasini tuzish va bajarishni tashkil etish faoliyatini amalga oshiradigan, qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi sifatida ish ko'radigan yuridik shaxs.

Sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlari sug'urtalovchilarning ustav kapitallarida qatnashishga haqli emas.

Sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

- o'z vakolatlari doirasida sug'urtalash (qayta sug'urtalash)ning har qanday turi bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

- sug'urtalovchidan litsenziya mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek uning to'lovga qodirligi va moliyaviy barqarorligining boshqa ko'rsatkichlarini olish;

- ekspert va maslahat xizmatlari ko'rsatish;

- qonun hujjatlarida va shartnomada belgilangan boshqa huquqlar.

Sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlari quyidagilarga majbur hisoblanadi:

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;

- mijozlarning so'rovlari bo'yicha sug'urta shartnomasi tuzish va bajarish bo'yicha to'liq, ishonchli va xolisona axborotni taqdim etish;

- mijozning tijorat siri va boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

- sug'urta bitimlari va operatsiyalarini tuzishda mustaqillik va betaraflikka rioya qilish;

- qonun hujjatlarida va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarish.

Sug'urtalash (qayta sug'urtalash) brokeri o'zi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatadi. Sug'urtalash (qayta sug'urtalash) brokerlari xizmatlariga haq to'lash vositachilik taqdirlash puli shaklida amalga oshiriladi, uning miqdori shartnomada belgilanadi.

Sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokerlari sug'urta turlari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boradilar, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilgan dasturlar va sug'urtalash (qayta sug'urtalash) shartlarini ularning samaradorligi yuzasidan tekshiradilar va ulardan eng maqbul variantni tanlab oladilar.

Yuqorida ta'kidlanganlaridan kelib chiqib, brokerning asosiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) sug'urta predmetini baholash, ya'ni mijoz aynan qaysi sug'urta turiga muxtojlik sezayapti va aynan qaysi tavakkalchiliklardan;

- 2) qator sug'urtalovchilarning xizmatlari va moliyaviy holatlarini solishtirma tahlil qilish;

- 3) mijoz uchun, broker nuqtai nazarida, eng ma'qul sug'urtalovchini tanlash;

- 4) sug'urta shartnomasini hujjatli rasmiylashtirish (sug'urtalanuvchi roziligi bilan);

- 5) sug'urtalanuvchidan sug'urtalovchiga sug'urta badallarini o'z vaqtida kelib tushishini nazorat qilish;

- 6) sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga sug'urta summasi yoki sug'urta qoplamalarini olishda maslahatlar va yordam berish.

Amaliyot guvohlik beradiki, sug'urta tavakkalini to'g'ri baholashni faqatgina sug'urta tizimida uzoq yillik tajribaga ega bo'lgan malakali mutaxassislarga amalga oshirishlari mumkin.

### ***ADJASTER XIZMATLARI KO'RSATADIGAN YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR (ADJASTERLAR VA ADJASTER TASHKILOTLARI)***

*Adjaster yoki adjaster tashkiloti* - bu sug'urtalovchining topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatadigan tegishli ravishda jismoniy yoki yuridik shaxs:

- sug'urta hodisasi yuz bergandan keyin sug'urta obyektni ko'zdan kechirish va tekshirish;

- sug'urta hodisasining holatlari va tavakkalchilik majburiyatlarini tahlil qilish;

- sug'urta obyekti shikastlanishi sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

- sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda sug'urta hodisasi oqibatida paydo bo'lgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini aniqlash;

- sug'urtalovchining majburiyatlaridan kelib chiqib to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'voni summasini aniqlash;

- sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha ekspert xulosasi tuzish.

Adjaster (adjaster tashkiloti) o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urtalanuvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Adjaster (adjaster tashkiloti) quyidagi huquqlarga ega:

- o'zi adjaster xizmatlari ko'rsatadigan sug'urtalovchi (sug'urtalanuvchi)ni erkin tanlash;

- sug'urta voqeasi (sug'urta hodisasi)ni o'rganish uchun sug'urtalovchi (sug'urtalanuvchi)dan zarur axborotni so'rash va olish;
- sug'urta hodisasi yuz bergandan so'ng sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
- o'zi obyektini sirdan ko'zdan kechirganligi to'g'risidagi dalolatnomani rasmiylashtirish (zaruriyat bo'lganda texnik vositalarni qo'llagan holda);
- faoliyati sug'urta obyektlariga daxldor bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan zarur ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

- qonun hujjatlarida va shartnomada belgilangan boshqa huquqlar.

Adjuster (adjuster tashkiloti) quyidagilarga majbur:

- tegishli bilimlarga ega bo'lish yoki o'z shtatida tegishli professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislariga ega bo'lish;
- sug'urta hujjatlari saqlanishini ta'minlash;
- mijozning tijorat siri yoki boshqa sirini tashkil etadigan holatlarga nisbatan mahfiylikni saqlash;

- maxsus o'rganishni talab etadigan ma'lumotlarni to'g'ri va o'z vaqtida tahlil qilish uchun mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rish;

- qonun hujjatlarida va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarish.

Adjuster xizmati ko'rsatilishi natijalari ekspert hisobot shaklida rasmiylashtiriladi, undan sug'urtalovchi tomonidan zararlarni to'lashda va sud nizolarini hal etishda foydalanilishi mumkin. Adjuster (adjuster tashkiloti)ning ekspert hisobotidagi xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

### ***AKTUAR XIZMATLARI KO'RSATUVCHI YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR (AKTUARLAR VA AKTUAR TASHKILOTLAR)***

*Aktuariy yoki aktuar tashkilot* - bu tegishli ravishda quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlar ko'rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs:

- sug'urta hodisasi yuz berishining matematik jihatdan muqarrarligi hisobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman jami sug'urta bo'yicha zarar yetkazish oqibatlari og'irligi chastotalari va darajasini aniqlash;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik asoslash va hisoblash, ularni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;

- sug'urtalovchi tomonidan investitsiyalar sifatida yig'ilgan badallardan foydalanishda kapital qo'yish normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash, bu tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadi;

- sug'urtalash jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisoblash;

- sug'urtalashning (qayta sug'urtalashning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xarakterini hisobga olgan holda belgilash;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisoblashdan foydalangan holda baholash;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) daromadlarini sug'urtalash (qayta sug'urtalash)ning har xil turlari bo'yicha rejalashtirish.

Aktuariy (aktuar tashkilot) faqat aktuar faoliyatni amalga oshirishga haqlidir. Aktuariy (aktuar tashkilot) o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Aktuariy (aktuar tashkilot) quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urtalovchilar bilan aktuar xizmatlari ko'rsatish bo'yicha mustaqil ravishda shartnoma tuzish;



- ishonchli aktuar xulosa tuzish uchun zarur bo'lgan barcha axborotlar sug'urtalovchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda aktuar tekshirish o'tkazishni rad etish;
- aktuar tekshirish o'tkazishda qatnashishga boshqa aktuariylar va boshqa mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

- qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlar.

Aktuariy (aktuar tashkilot) quyidagilarga majbur:

- qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;
- aktuar tekshirishni amalga oshirishda olingan axborotning mahfiyligiga rioya qilish;
- aktuar xulosada aktuar hisoblashlarning kamchiliklarini va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni aks ettirish;
- qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

Aktuariy, agar u aktuar tashkilot shtatida turgan bo'lsa yoki uning bilan aktuar tashkilot o'rtasida fuqarolik - huquqiy tusdagi shartnoma tuzilgan bo'lsa aktuar tekshirishni o'tkazishga jalb etilishi mumkin. Aktuariy aktuar tashkilot oldida sifatsiz aktuar tekshiruvni o'tkazish, tijorat sirini oshkora qilish va aktuar tashkilot uchun zarar yetkazgan boshqa xatti-harakatlar natijasida yetkazilgan zarar yuzasidan javob beradi.

Aktuarlar aktuar xizmatlari ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olishi shart. Aktuar tashkilotlar o'z shtatida aktuariy malaka sertifikatiga ega bo'lgan kamida 1 aktuarga ega bo'lishi kerak.

Aktuar tashkilot (aktuariy) faoliyati natijalari hisobot tarzida rasmiylashtiriladi. Aktuar tashkilot (aktuariy) hisobotidagi xulosalar mustaqil ekspertiza davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

### ***ASSISTANS XIZMATLARI KO'RSATUVCHI YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR***

*Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar sug'urtalash shartnomasi doirasida sug'urtalanuvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, foyda ko'ruvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadilar, shuningdek ularga moliyaviy yordam ko'rsatadilar.*

Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradilar. Assistans xizmatlariga faqat sug'urtalovchilar tomonidan, sug'urtalanuvchilar (sug'urtalangan shaxslar)ning ishtirokisiz haq to'lanadi.

Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urtalovchilar bilan assistans xizmatlari ko'rsatish bo'yicha mustaqil ravishda shartnoma tuzish;

- sug'urtalovchi tomonidan assistans xizmatlari ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha axborotlar taqdim etilmagan taqdirda assistans xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

- assistans xizmatlari ko'rsatishga zarur mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

- assistans xizmatlari ko'rsatish yuzasidan shartnomaga muvofiq majburiyatlarning bajarilishini talab qilish;

- qonun hujjatlari va shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilarga majbur:

- sug'urtalanuvchilardan (sug'urtalangan shaxslardan) sug'urta hodisalari (holatlari) to'g'risidagi xabarlarining kecha-kunduz qabul qilinishini tashkil etish va sug'urtalanuvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga) sug'urta shartnomasi doirasida, taqdim etilgan sug'urta polisi asosida zarur yordam ko'rsatish;

- sug'urtalash hollarini ko'rib chiqish va tartibga solish chora-tadbirlarini ko'rish;

- sug'urtalanuvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga) chaqiruv qabul qilingan vaqtdan boshlab imkoni boricha eng qisqa muddatlarda zudlik bilan zarur yordam va xizmatlar ko'rsatishning tashkil etilishini ta'minlash;

- qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatni bajarish.



## **SYURVEYER SUG'URTA XIZMATLARI KO'RSATUVCHI YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR (SUG'URTA SYURVEYERI)**

*Sug'urta syurveyeri* - quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs:

- sug'urta shartnomasi tuzilgungacha sug'urta obyektni ko'zdan kechirish va tekshirish;
- barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, sug'urta shartnomasi tuzilgungacha tavakkalchilik darajasini aniqlash;

- sug'urtalashning tekshirilayotgan obyekti bo'yicha ekspert xulosasi tuzish.

Sug'urta ekspertizasi o'tkazishga vakolatli sug'urta syurveyeri mutaxassislari (ekspertlari)ning ish tartibi sug'urta syurveyerining ichki hujjatlarida belgilanadi.

Sug'urta syurveyeri o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urtalanuvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Sug'urta syurveyeri quyidagi huquqlarga ega:

- xizmatlar ko'rsatiladigan sug'urtalovchini (sug'urtalanuvchini) erkin tanlash;
- sug'urta obyektni o'rganish uchun sug'urtalanuvchidan (sug'urtalovchidan) zarur axborotlarni so'rash va olish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, faoliyati sug'urta obyektlariga taalluqli bo'lgan boshqa tashkilotlardan zarur ma'lumotlarni so'rash va olish;
- qonun hujjatlari va shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

Sug'urta syurveyeri quyidagilarga majbur:

- tegishli bilimlarga ega bo'lish yoki o'z shtatida tegishli professional bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarga ega bo'lish;
- syurveyer tomonidan o'tkaziladigan ekspertizaga daxldor bo'lgan barcha shaxslarning huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash;
- ekspertiza o'tkazish uchun tomonlar taqdim etgan hujjatlarning saqlanishini ta'minlash;
- mijozning tijorat yoki boshqa siri bo'lgan faktlarning mahfiyligini saqlash;
- qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

Sug'urta syurveyeri faoliyati natijalari ekspert hisoboti tarzida rasmiylashtiriladi, undan sug'urtalovchi (sug'urtalanuvchi) tomonidan sug'urtalash (qayta sug'urtalash) shartnomasini tuzishda foydalanilishi mumkin.

Sug'urta syurveyerining ekspert hisobotidagi xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

### **3. Tayanch iboralar**

***Sug'urta*** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

***Sug'urta bozori*** – sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

***Sug'urta summasi*** – sug'urta obyektni haqiqatda sug'urtalangan qismining pul ko'rinishidagi qiymati.

***Sug'urta shartnomasi*** – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi sug'urta turi shartlariga mos ravishda ularning o'zaro majburiyatlarini tartibga soluvchi kelishuv (huquqiy bitm).

***Sug'urta limiti*** – moddiy qiymatliklar va sug'urtaviy mas'uliyatlarni sug'urtalash mumkin bo'lgan maksimal pul summasi.

***Sug'urta himoyasi*** – konkret obyektni tomonidan ko'rilgan zararni bartaraf qilish yoki qoplash bo'yicha munosabatlar.

***Sug'urtalovchi*** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Sug'urta qildiruvchi** – sug'urta badallarini to'lovchi va konkret sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Sug'urtalanuvchi** – hayoti, sog'ligi yoki mehnatga layoqati sug'urta obyekti bo'lgan shaxs.

**Sug'urta obyekti va predmetlari** – sug'urtalashga tegishli bo'lgan moddiy qiymatliklar, inson hayoti, sog'ligi, mehnatga layoqati, javobgarliklar va mas'uliyatlar.

**Sug'urta mas'uliyati** – sug'urtalovchining sug'urta holatlari ro'y berganda sug'urta qoplamalari yoki sug'urta summalarini to'lash bo'yicha majburiyati.

**Sug'urta guvohnomasi (polisi)** – sug'urta amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta fondi** – sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladigan hamda sug'urta holati natijasida sug'urtalanuvchining ko'radigan zararini oldini olish, lokalizatsiya qilish va qoplashga mo'ljallangan sug'urta rezervlari yig'indisi.

**Sug'urta tarifi** – sug'urta summasiga nisbatan foiz stavkasi.

**Sug'urta badali (mukofoti)** – sug'urta summasiga nisbatan belgilangan sug'urta tarifi bo'yicha pul to'lovi.

**Sug'urta muddati** – sug'urta obyektining sug'urtalangan davri.

**Sug'urta holati** – sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi to'lanishi kerak bo'lgan turli salbiy va boshqa kelishilgan oqibatlariga olib keluvchi haqiqatda sodir bo'lgan holatlar.

**Sug'urta dalolatnomasi** – o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladigan va sodir bo'lgan sug'urta holatini hamda sabablarini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta portfeli** – sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan badallar yig'indisi yoki tuzilgan va to'langan shartnomalar soni.

**Sug'urta qoidalari** – ixtiyoriy sug'urta shartlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlardan biri.

**Abandon** (fr.Abandon) – sug'urtalanuvchining to'la sug'urta summasini olgandan so'ng sug'urtalovchi foydasiga sug'urtalangan obyektga nisbatan huquqlardan voz kechish.

**Avuar** (fr.Avoir) – «aktivlar»ning sinonimi (pul mablag'lari, veksellar, akkreditivlar, qimmatli qog'ozlar, bankdagi hisoblar va b.) – sug'urta balansining bir qismi.

**Addendum** (lat.Addere) – rasmiylashtirilgan shartnomaga qo'shimchalar kiritish.

**Akvizitor** (lat.Acquisitor) – yangi sug'urtalanuvchilarni jalb qilish bilan shug'ullanuvchi sug'urta agenti yoki brokeri.

**Anderrayter** (Underwriter) – sug'urta kompaniyasi yoki sindikat tomonidan sug'urta tavakkalchiligini olish vakolati berilgan shaxs.

**Polis** (Policy) – sug'urta shartnomasining huquqiy tasdig'i.

**Pul** (Pool) – Yirik va xavfli risklarni birgalikda sug'urtalash uchun bir nechta sug'urta kompaniyalarini birlashuvi. Riskni qabul qilib oluvchi kompaniya, pulga a'zo sug'urtalovchilar nomidan yagona polis beradi.

**Franshiza** (Franchise) – sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan zararlari qismi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sug'urta bozori haqida tushuncha bering.
2. Sug'urta bozori amal qilishi uchun asosiy shart nimadan iborat?
3. Sug'urta bozorining tarkibiy tuzilishi.
4. Sug'urta bozorining professional qatnashchilari tarkibiga kimlar kiradi?
5. O'zbekiston sug'urta bozorining xususiyatlari qanday?
6. Bugungi kunda mamlakatimiz sug'urta bozorida nechta sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritmoqdalar?
7. Respublikamizda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda avvalo qanday muammolar va vazifalarni yechish muhimdir?
8. O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
9. Sug'urtalovchilarning huquqlari nimalardan iborat?

10. Sug'urtalovchilarning majburiyatlari nimalardan iborat?
11. Sug'urta vositachilari deganda kimlar tushuniladi?
12. Sug'urta agentlari deganda kimlar tushuniladi?
13. Sug'urta brokerlari deganda kimlar tushuniladi?
14. AQShda sug'urta agentlarining professional tanlovini mezonlari nimalar hisoblanadi?
15. Sug'urta agentining huquqlari nimalardan iborat?
16. Sug'urta agentining majburiyatlari nimalardan iborat?
17. Sug'urta brokerining huquqlari nimalardan iborat?
18. Sug'urta brokerining majburiyatlari nimalardan iborat?
19. Sug'urta brokerining asosiy funksiyalari nimalar hisoblanadi?
20. Adjaster yoki adjaster tashkilotideganda kimlar tushuniladi va ularning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
21. Adjaster (adjaster tashkiloti) qanday huquqlarga ega?
22. Adjaster (adjaster tashkiloti) qanday majburiyatlarga ega?
23. Aktuariy yoki aktuar tashkiloti deganda kimlar tushuniladi va ularning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
24. Aktuariy (aktuar tashkilot) qanday huquqlarga ega?
25. Aktuariy (aktuar tashkilot) qanday majburiyatlarga ega?
26. Assistans xizmati ko'rsatuvchilar deganda kimlar tushuniladi va ularning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
27. Assistans xizmati ko'rsatuvchilar qanday huquqlarga ega?
28. Assistans xizmati ko'rsatuvchilar qanday majburiyatlarga ega?
29. Sug'urta syurveyeri deganda kimlar tushuniladi va ularning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
30. Sug'urta syurveyeri qanday huquqlarga ega?
31. Sug'urta syurveyeri qanday majburiyatlarga ega?

## 11-mavzu. Sug'urta bozorining tartibga solinishi

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi va vazifalari*
2. *Sug'urta faoliyatini tartibga solish vakolatiga ega bo'lgan organlar*
3. *Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining faoliyatini litsenziyalash*
4. *Tayanch iboralar*

### 1. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi va vazifalari

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy hayotida sug'urta faoliyati strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu sohadagi davlat siyosatining mohiyati uning bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy elementi sifatidagi ahamiyati va salmog'ini yanada oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi milliy sug'urta bozorini va sug'urta faoliyatini isloh qilishning asosiy yo'llaridan biri - erkinlashtirishni kuchaytira borgan holda ushbu faoliyat ustidan davlat nazoratini ham kengaytirish, nazorat olib borishning huquqiy bazasini mustahkamlashdan iborat.

O'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda davlat tartibga solish va nazoratni samarali yo'lga qo'ymasdan turib sug'urta bozorini erkinlashtirilishi bu bozorda bosh-boshdoqlik, tartibsizlikni avj olishiga olib kelishi mumkinligini jahondagi bir qator davlatlar tajribasi yaqqol ko'rsatib turibdi. Bunday sharoitda ayrim jinoiy kimsalar tomonidan noqonuniy amaliyotlar amalga oshirilishi, asossiz boyluk ortirish uchun keng imkoniyatlar tug'ilishi mumkin. Bu sohada moliyaviy jinoyatlar sodir etilishi sug'uratlanuvchilar manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazadi, sug'urta faoliyati obro'siga putur yetishiga olib keladi va bozor munosabatlarining shakllanishi – rivojlanishiga halal beradi.

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov Vazirlar Mahkamasida bo'lgan yig'ilishda ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda mukammal sug'urta tizimlariga ega bo'lmasdan turib xo'jalik subyektlari, ayniqsa kichik va xususiy biznes vakillari, qishloqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar samarali ishlashlari, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishlari, kredit olishlari qiyin"<sup>1</sup>.

Sug'urta munosabati ishtirokchilarining o'zaro aloqalari hamda sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillari hamda qoidalarini ko'zda tutuvchi huquqiy baza sug'urta bozorining davlat tomonidan tartibga solish ishiga oid muhim tarkibiy qismlardan sanaladi.

Yuqorida qayd etilganidek, bugungi kunda O'zbekistonda yetarli darajada samarali ishlaydigan sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimi yaratilgan bo'lib, o'z ichiga «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunni, Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qatlamini qamrab oladi. Ushbu huquqiy baza Respublikada sug'urta faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

*Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi* deganda sug'urta bozori rivojlanishi, kengayishi va samarali ishlashini ta'minlash maqsadida davlat hokimiyati, boshqaruvi va mahalliy idoralar tomonidan muntazam ravishda, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda, sug'urta bozori ishtirokchilari xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa ko'rinishlardagi faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat amaldagi qonunlar doirasida bo'lishi, sug'urta faoliyati ishtirokchilari huquq va manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.

Sug'urta bozorini davlat yo'li bilan tartibga solish qo'yidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) Zarur iqtisodiy va huquqiy zaminni mustahkamlash va takomillashtirish yo'li bilan sug'urta bozori rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

<sup>1</sup> Karimov I. A. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish — eng muhim vazifamiz». «Xalq so'zi», 2000-yil, 15 fevral, №32.

- 2) Kerakli me'yoriy-huquqiy qoidalar belgilash orqali sug'urtalanuvchilar va sug'urtalovchilar huquqlari hamda boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;
- 3) Sug'urta bozori infratuzilmasini, uning tarkibiy qismlarini yanada rivojlantirish;
- 4) Mustaqil sug'urta brokerlari, ixtisoslashgan yuridik maslahat-tahlil hamda auditorlik firmalari shakllanishi va rivojlanishiga ko'maklashish;
- 5) Sug'urta bozorida ishlaydigan malakali, zamonaviy bilim va tajribaga ega bo'lgan, mutaxassis kadrlar tayyorlanishiga, mavjud kadrlar korpusining muntazam malakasi oshirilishiga ko'maklashish;
- 6) Sug'urta kompaniyalari va tashkilotlari moliyaviy faoliyati monitoringini tashkil qilish, ularning to'lov imkoniyatlarini kuzatib borish kabilar.

*Sug'urta faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad* – sug'urta bozori va uning ishtirokchilari xatti-harakatlari qonunchilik talablariga mos bo'lishini ta'minlash, eng avvalo sug'urtalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar mulkiy manfaatlarini himoyalashdan iboratdir.

## 2. Sug'urta faoliyatini tartibga solish vakolatiga ega bo'lgan organlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 8 iyuldagi «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan sug'urta faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish vazifasi Moliya Vazirligi huzurida tashkil etilgan sug'urta nazorati bo'yicha Davlat inspeksiyasi (keyinchalik Davlat inspeksiyasi) zimmasiga yuklatildi. Ushbu inspeksiya to'g'risidagi nizom ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan qaror bilan tasdiqlandi va Davlat inspeksiyasi o'z faoliyatini amalda 1999-yil fevral oyidan boshladi.

Davlat inspeksiyasining asosiy maqsadi sug'urta tashkilotlari faoliyatini kuzatib borish va sug'urta bozori ishtirokchilarining, sug'urtalanuvchining ham, sug'urtalovchining ham huquqlari hamda boshqa qonuniy manfaatlarini qo'riqlashdan iborat.

*Davlat inspeksiyasi:*

- ✓ ijro etilishi majburiy bo'lgan to'lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar jamiyning yo'l qo'yiladigan ko'p yoki eng kam miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

- ✓ sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishini, to'lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

- ✓ sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalaydi;

- ✓ sug'urtalovchilar tomonidan hisob-kitobni yuritish, sug'urta zahiralarning mablag'larini shakllantirish va joylashtirishga oid hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

- ✓ sug'urtalovchining ijro etuvchi organi rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan ijro etilishi majburiy bo'lgan malaka talablarini belgilaydi;

- ✓ sug'urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning shakli, tartibi va muddatlarini belgilaydi;

- ✓ qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritadi;

- ✓ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini to'liq yoki ayrim sug'urta turlariga (klasslariga) nisbatan to'xtatib qo'yadi, shuningdek ularning amal qilishini tugatadi;

- ✓ har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sug'urta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat to'g'risida yillik hisobotlarni, shuningdek sug'urta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati to'g'risida statistika ma'lumotlarini e'lon qiladi.

Davlat inspeksiyasi va uning xodimlari sug'urta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek sug'urta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar.

*Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda Davlat inspeksiyasi qo'yidagi funksiyalarni bajaradi:*

a) sug'urtalovchilar tomonidan qonunlarga rioya etilishi, hisobotlarining haqiqiyliigi, to'lov qobiliyatiga va moliyaviy barqarorligiga taalluqli bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar ta'minlashini tekshiradi;

b) o'z vakolatlari doirasida sug'urtalovchilar ish faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlaydi;

v) sug'urta munosabati ishtirokchilari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan me'yoriy hujjatlar, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqadi;

g) sug'urta faoliyatiga oid me'yoriy huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi va ularni Moliya Vazirligi rahbariyati muhokamasiga kiritadi;

d) sug'urta tashkiloti tugatilgani taqdirda sug'urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qiladi;

e) O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyati va sug'urta bozori ahvolini, uning rivojlanish yo'nalishlarini o'rganadi, tahlil qiladi;

j) sug'urta faoliyati yuzasidan mutaxassislarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorgarlikdan o'tkazish yuzasidan tadbirlarni amalga oshiradi, seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar tashkil etadi;

z) ommaviy axborot vositalari orqali sug'urta faoliyati yuzasidan axborot berish-tushintirish ishlarini olib boradi;

i) o'z vakolati doirasida fuqarolardan kelib tushgan ariza, shikoyat va takliflarni ko'rib chiqadi;

k) belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshiradi.

Davlat inspeksiyasi zimmasidagi vazifalar va yuklatilgan funksiyalarga muvofiq zarur hajmda vakolatlar bilan ham ta'minlangan.

Sug'urta nazorati bo'yicha Davlat nazorat inspeksiyasi to'g'risidagi nizomga ko'ra Davlat inspeksiyasi quyidagi vakolatlarga ega:

— sug'urta tashkilotlaridan qonun hujjatlarida belgilangan hisobotlarni olishi, ularning moliyaviy faoliyatlariga taalluqli axborotlarni talab qilish;

— korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, bank muassasalaridan, shuningdek ayrim fuqarolardan o'z funksiyalarini bajarishga oid axborotlar olish;

— sug'urtalovchi tashkilotlar faoliyati qonun hujjatlariga qay darajada mos ekanligini tekshirib borishi, ana shu maqsadda zarur hollarla komissiyalar va ishchi guruhlar tuzishi, bu komissiya va guruhlar ishini tashkil etish;

— yuklatilgan vazifalarni bajarishlik uchun zarur bo'lgan axborotlar va statistik hisobotlarni davlat ijroiya hokimiyati organlaridan bepul olishi mumkin.

Davlat inspeksiyasi sug'urta tashkilotlari faoliyatini tekshirishi natijasida sug'urta to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilayotganligi, sug'urta tashkiloti faoliyatining ishonchligiga shubha tug'diruvchi holatlar mavjudligini aniqlasa yoki sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini belgilovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tegishli normativlardagidan past ekanligini aniqlasa, u holda vakolatli davlat organlariga bu haqda xabar beradi hamda sug'urta tashkiloti faoliyatini davom ettirishi mumkin yoki mumkin emasligi masalasi ko'rib chiqiladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda Davlat inspeksiyasi sug'urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'z vakolati doirasida zarur choralarni ko'rishga haqli sanaladi.

*Sug'urta faoliyati ustidan davlat nazoratining eng muhim tamoyillaridan biri - sug'urta tashkilotlari faoliyatiga, kundalik ishlariga asossiz aralashishga, ular faoliyatini asossiz cheklanishiga yo'l qo'yilmasligidir.*

Davlat inspeksiyasi tomonidan sug'urta faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish paytida qonuniylik, ijtimoiy adolat tamoyillariga qat'iy amal qilinishi lozim.

Sug'urta faoliyati ustidan umumiy nazorat olib borish vazifasi O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlariga yuklatilgan bo'lib, prokuratura organlari sug'urta faoliyati barcha ishtirokchilari, sug'urta tashkilotlari, sug'urtalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar, sug'urta



brokerlari, bu munosabatning barcha ishtirokchilari faoliyatini, shuningdek sug'urta nazorati bo'yicha Davlat inspeksiyasi faoliyatini ham nazorat qilib boradilar.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Prokuratura to'g'risida»gi qonunining<sup>1</sup> 4-modasida aytilishicha prokuratura organlari faoliyatining yo'nalishlaridan biri-vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar tomonidan qonunlarning bajarilishini nazorat qilishdan iborat. Prokuror nazorati natijasida sug'urta munosabati ishtirokchilari tomonidan sug'urta to'g'risidagi qonunlar, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari buzilayotganligi aniqlansa, prokurorlik nazoratining tegishli ta'sir chorasi qo'llaniladi. Sug'urtalovchi yoki sug'urta qildiruvchi shaxs, yoxud sug'urta munosabatiga aloqador boshqa shaxslar xatti-harakatida jinoyat alomatlari borligi aniqlangani hollarda esa jinoyat ishi qo'zg'atilishi, surishtiruv yoki tergov qilinishi orqali aybdor shaxslar aniqlanishi va qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi choralari ko'riladi. Sug'urta faoliyati ustidan prokuror nazorati davlat nazoratining eng samarali shakllaridan bo'lib, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### 3. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining faoliyatini litsenziyalash

O'zbekiston Respublikasida sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni (15-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27 noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli qarori bilan qabul qilingan "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida Nizom" ga asosan amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (keyingi o'rinlarda litsenziyalovchi organ deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talabgorlari bo'lishlari mumkin.

Sug'urtalovchi va sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya amal qilish muddati cheklanmasdan beriladi.

Quyidagilar sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirishning litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;
- sug'urta faoliyatini amalga oshirishda olingan axborotlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq maxfiyligini ta'minlash;
- litsenziyalovchi organ talabiga ko'ra sug'urta faoliyatini amalga oshirishga doir qonun hujjatlarida belgilangan axborotlarni taqdim etish;
- litsenziya talabgori rahbari oliy ma'lumotga hamda sug'urta sohasida kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi kerak;
- litsenziya talabgori (litsenziat) rahbari boshqa sug'urta tashkilotlarida rahbar lavozimini egallashga haqli emas.

Litsenziya talablari va shartlariga qo'shimcha ravishda quyidagilar belgilanadi:

a) sug'urtalovchilar uchun:

- ustav fondining qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdorining mavjud bo'lishi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida majburiy sug'urta shartnomalarini tuzish, jabrlanuvchi (uning merosxo'ri yoki huquqiy vorisi)ning sug'urta to'lovlari to'g'risidagi talablarini ko'rib chiqish va sug'urta to'lovlarini amalga oshirish vakolati berilgan o'z filiallariga va boshqa alohida bo'linmalariga ega bo'lishi - transport

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2001 й., №20, 139- модда.

vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qiluvchi sug'urtalovchilar uchun;

– sug'urtalovchining Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi bilan unga a'zolik to'g'risidagi yozma bitimining mavjud bo'lishi - transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qiluvchi sug'urtalovchilar uchun.

b) sug'urta brokerlari uchun:

– sug'urta brokerining sug'urta faoliyatini amalga oshirishda shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlash;

– sug'urta shartnomasining litsenziat mijozi uchun qulay shartlarda tuzilishi va bajarilishi;

– sug'urtalashga doir vositachilik faoliyatini asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshirish.

Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta turlari (klasslari) qo'shib olib borilganda quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

a) sug'urtalovchi litsenziyasida litsenziat amalga oshirishga haqli bo'lgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi. Sug'urta klassi muayyan umumiy belgilar bo'yicha birlashtirilgan sug'urta turlari yig'indisini ifodalaydi;

b) sug'urta turi sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan va sug'urta qildiruvchiga sug'urtaning bir yoki bir nechta klassi doirasida ko'rsatiladigan aniq sug'urta xizmatini ifodalaydi;

v) litsenziat, unda sug'urta klasslarini qo'shib olib borishga doir cheklashlarni hisobga olgan holda sug'urtaning tegishli klasslari ko'rsatilgan litsenziya mavjud bo'lgan taqdirda ikki va undan ortiq sug'urta klassi belgilari va mazmunini jamlovchi sug'urta turini ishlab chiqishga haqlidir.

Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi litsenziat sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini qo'shib olib borishga haqli emas, umumiy sug'urtaning 1 va 2-klasslari bo'yicha faoliyat bundan mustasno.

Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) sug'urtalovchilar uchun:

✓ yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi ko'rsatilgan litsenziya berish to'g'risida ariza;

✓ yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

✓ rahbar to'g'risidagi ma'lumotlar (oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi va mehnat daftarchasidan ko'chirma);

✓ litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

✓ ustav fondining belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma'lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar);

✓ sug'urta faoliyatining iqtisodiy asoslanishi, unga sug'urtalash operatsiyalarini rivojlantirish prognozini, ehtimol tutilgan qayta sug'urtalash bitishuvlari rejasini, sug'urta zahiralarining hisob-kitob rejasini o'z ichiga oluvchi litsenziyalanayotgan sug'urta klassi bo'yicha biznes-reja kiradi;

✓ sug'urtalashning litsenziya talab qilinadigan turlari bo'yicha qoidalar (shartlar), litsenziyada quyidagilar bo'ladi: sug'urtalash subyektlari doirasini belgilash va sug'urta shartnomasi tuzish bo'yicha cheklashlar, sug'urta obyektlarini belgilash, sug'urta hodisalari ro'yxatini belgilash - ushbu holatlar ro'y berganda sug'urtalovchining sug'urta to'lovlari bo'yicha majburiyatlari paydo bo'ladi, (asosiy va qo'shimcha shartlar), olib qo'yish (tavakkalchilarning yoki mol-mukllarni) bunda sug'urtalovchi majburiyatlarni bajarmasdan ozod bo'ladi, sug'urta mukofotlari tariflari (stavkalari), sug'urtalashning eng ko'p (eng kam) muddati, sug'urta shartnomalarini tuzish va sug'urta muokoflarini to'lash tartibi, tomonlarning sug'urta shartnomasi bo'yicha o'zaro majburiyatlari va sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovni rad etishning mumkin bo'lgan holatlari sug'urta shartnomasi bo'yicha e'tirozlarni ko'rib chiqish tartibi.

Qoidalarga sug'urta shartnomalari namunalari ilova qilinishi kerak.

Litsenziya talabgori rahbari tomonidan tasdiqlangan sug'urtalash qoidalari (shartlari) ikki nusxada taqdim etiladi, ularning betlari tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak.

Faoliyat turi faqat qayta sug'urta qilishdan iborat bo'lgan litsenziya talabgorlari quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

b) sug'urta brokerlari uchun:

✓ yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi (uning bir qismi) ko'rsatilgan litsenziya berish to'g'risida ariza;

✓ yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

✓ litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

✓ ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma'lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash 1-sxemaga binoan amalga oshiriladi.


Litsenziya berish yoki berishni rad etish to'g'risidagi qaror litsenziya talabgoridan barcha zarur hujjatlar bilan ariza olingan kundan boshlab o'ttiz kundan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi.


Litsenziyalar berish, ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun litsenziyalovchi organda ekspert komissiyasi tashkil etiladi. Ekspert komissiyasi tarkibi va komissiya to'g'risidagi nizom litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlanadi. Ekspert komissiyasi majlislari har oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Majlislarning so'rov yo'li bilan o'tkazilishiga va rasmiylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Litsenziya talabgorining barcha zarur hujjatlar bilan arizasi ular qabul qilib olingan kunda ekspert komissiyaga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.


Ekspert komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni yigirma kundan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqadi va ular bo'yicha litsenziya berish yoki berishni rad etish to'g'risida ekspert xulosasi tayyorlaydi.

1-sxema.

### Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash SXEMA







Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish, shuningdek litsenziyani bekor qilish "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi va "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatishga asos bo'lgan litsenziya talablari va shartlarining bir marta qo'pol ravishda buzilishiga quyidagilar kiradi:

a) sug'urtalovchilar uchun:

↳ litsenziat uchun qonun hujjatlarida taqiqlangan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish;

↳ sug'urta faoliyatini amalga oshirishda olingan maxfiy axborotni sug'urta qildiruvchining ruxsatisiz oshkor qilish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

b) sug'urta brokerlari uchun:

↳ mijoz uchun manfaatli emasligi oldindan ma'lum bo'lgan sug'urta shartnomasini tuzish va bajarish;

↳ sug'urtaga doir vositachilik faoliyatini amalga oshirishda olingan maxfiy axborotni sug'urta qildiruvchining ruxsatisiz oshkor qilish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Litsenziyalovchi organing litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki to'xtatish, shuningdek litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori yuzasidan sudga shikoyat qilish mumkin. Litsenziyalovchi organ qarorining asossiz ekanligi sud tomonidan e'tirof etilgan taqdirda, litsenziyalovchi organ uning oldida litsenziat ko'rgan zarari miqdorida javob beradi.

#### 4. Tayanch iboralar

**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**Sug'urta klassi** - muayyan umumiy belgilar bo'yicha birlashtirilgan sug'urta turlari yig'indisi.

**Sug'urta turi** - sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan va sug'urta qildiruvchiga sug'urtaning bir yoki bir nechta klassi doirasida ko'rsatiladigan aniq sug'urta xizmati.

**Majburiy sug'urta** – sug'urta shakllaridan biri bo'lib, unda sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta munosabatlari qonun kuchida yuzaga keladi.

**Ixtiyoriy sug'urta** - tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta munosabatlari.

**Litsenziya** - muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjat.

**Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari** - sug'urta faoliyatining subyektlari (sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar).

**Sug'urta nazorati** – vakolatli davlat organi tomonidan sug'urtalovchilar faoliyatini nazorat qilish.

**Sug'urta shartnomasi** – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi sug'urta turi shartlariga mos ravishda ularning o'zaro majburiyatlarini tartibga soluvchi kelishuv (huquqiy bitm).

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Sug'urta qildiruvchi** – sug'urta badallarini to'lovchi va konkret sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Sug'urtalanuvchi** – hayoti, sog'ligi yoki mehnatga layoqati sug'urta obyekti bo'lgan shaxs.

**Sug'urta qoidalar** – ixtiyoriy sug'urta shartlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlardan biri.

**Fuqarolik javobgarligi** – fuqaro va yuridik shaxslarning uchinchi shaxslar (jismoniy va huquqiy) oldidagi qonunchilikda ko'zda tutilgan javobgarlikning bir turi bo'lib, u zarar yetkazuvchining harakat yoki harakatsizligi natijasida uchinchi shaxsga zarar yetkazilganda yuzaga keladi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasida sug'urtalovchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish kim tomonidan amalga oshiriladi?
2. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni kim amalga oshiradi?
3. Sug'urta tashkilotlarini tugatishning o'ziga xos jihatlarini sanab bering.
4. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi deganda nima tushuniladi?
5. Sug'urta bozorini davlat yo'li bilan tartibga solish qanday vazifalarni bajaradi?
6. Sug'urta faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
7. Sug'urta faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi Davlat inspeksiyasining funksiya va vazifalarini sanab bering
8. O'zbekiston Respublikasida sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining faoliyatini litsenziyalash kim tomonidan va qanday me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi?
9. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini amalga oshirishning litsenziya talablari va shartlari nimalardan iborat?
10. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari litsenziya olish uchun qanday hujjatlarni taqdim etadilar?
11. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarini litsenziyalash jarayoni qanday tartibda olib boriladi?
12. Litsenziyaning amal qilishini vakolatli davlat organi tomonidan vaqtincha yoki butunlay to'xtatishga qanday holatlar sabab bo'lishi mumkin?



## 12-mavzu. Chet mamlakatlar sug'urta bozoriga umumiy tavsif

### *Ko'riladigan masalalar*

1. *Chet mamlakatlarda sug'urtaning notekis rivojlanishi.*
2. *Chet mamlakatlarda sug'urta tashkilotlarini turkumlanishi va ular tomonidan amalga oshiriladigan asosiy sug'urta turlari.*
3. *Jahon mamlakatlari sug'urta tizimi va uning xususiyatlari.*
4. *Tayanch iboralar*

### 1. Chet mamlakatlarda sug'urtaning notekis rivojlanishi.

Bryusseldagi falokatlar bo'yicha tadqiqot markazi ma'lumotlariga qaraganda so'ngi 30-yil ichida dunyoda tabiiy falokatlardan 36 millionga yaqin kishi halok bo'lgan, 3 milliard kishi jabrlangan, umumiy iqtisodiy zarar 340 milliard dollarni tashkil etgan.

Oddiy hisob-kitoblarga qaraganda falokatlar, avariylar, tabiiy ofatlar natijasida har yili ikki millionga yaqin kishi halok bo'lmoqda hamda bir necha o'n million kishi zararlanmoqda va jarohat olmoqda. Ayni vaqtda jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotlarning tahminan 4-5 foizi bevosita va bilvosita zararlar tashkil qilmoqda.

Tabiiy ofatlar natijasida 2008-yilda jahon bo'yicha ko'rilgan zararlar 269 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Sug'urtalovchilarning tabiiy va texnogen falokatlardan mulkiy sug'urtalash bo'yicha to'lovlari yig'indisi 52,2 AQSh dollariga teng bo'lgan.

Keltirilgan raqamlar jahon miqyosida barcha mamlakatlarda sug'urtalash katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Agarda barcha mamlakatlarda bir tekisda amalga oshirilganda edi, sug'urta pulining anchagina qismi oldini olish tadbirlarida sarflangan bo'lar edi. Ko'rilayotgan zararlar miqdori ancha kamaygan bo'lar edi. Shunday qilib, sug'urtaning xalqaro miqyosdagi ahamiyati ulkanligini ko'rsatib beradi va shu bilan birga jahonda sug'urtalash yetarli rivojlanmaganini ham ko'rsatadi.

Sug'urtaning barcha mamlakatlarda bir tekisda rivojlanmaganiga sabab nima?

Hozirda o'z sug'urta tizimiga ega bo'lmagan mamlakatni izlab topish qiyin. To'g'ri, ayrim Afrika mamlakatlarida milliy sug'urta ishlarini xorijiy mamlakat sug'urta kompaniyalari bajaradi. AQShning sanoatlashgan shaharlaridan tortib, Osiyo va Afrikaning ichkarisidagi kichik mamlakatlarga, Xitoyda, Hindistonda, Avstraliyada sug'urtaning turli shakllari joriy qilingan. Sug'urta biznes usullaridan biri desak hato qilmagan bo'lamiz. Biz sug'urta tashkilotlari XVII asrda Angliyada kurtak ota boshlaganligini ko'rsatgan edik, XVIII asrda sug'urta Angliyadan Rossiyaga ko'chgan, dastlab xorijiy sug'urta tashkilotlari, keyinchalik, milliy sug'urta tashkilotlari barpo qilingan. XIX asr oxirlarida Turkistonda uning filiallari qad ko'targan, XIX-XX asrlarda jahon mamlakatlarida sug'urtaning bir tekisda rivojlanmaganligi sabab, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi bir xil bo'lmagan. Iqtisodiyoti tez rivojlangan mamlakatlarda sug'urtaning rivojlanish sur'ati sekin bo'lmagan, mamlakatdagi xususiy monopolistik tashkilotlarning va korxonalarning iqtisodiy taraqqiyoti sug'urtaning tez rivojlanishiga imkoniyatlar yaratib bergan, lekin chet mamlakatlarda sug'urtaning xalqaro hisoboti eksport va import kabi namunali yo'lga qo'yilmagan. Shu sababli, har bir mamlakatning jahon sug'urta tarkibidagi o'rni xaqida batafsil ma'lumotlarga, jahon bo'yicha qoplangan zararlarni umumiy miqdorini hisoblab chiqish imkoniyatiga ega emasmiz, lekin bu ko'rsatkich ham jahon sug'urtasi haqida batafsil ma'lumot berish qiyin, o'rtacha ko'rsatkichlar aniq tassavur bermaydi.

Jahon miqyosida sug'urtaning rivojlanish darajasi qanday ko'rsatkich orqali ifoda qilinadi?

Sug'urta haqida ilmiy jihatdan tassavur beradigan ko'rsatkich har bir mamlakatdagi sug'urta badali – sug'urta mukofotining miqdoridadir, aniqrog'i bu ko'rsatkichning milliy daromad va ijtimoiy mahsulotda tutgan o'rni, qolaversa sug'urta badalining jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi, shuningdek sug'urta tashkilotlarining soni orqali ifodalanishidir.

Sug'urta tashkilotlarining soni jihatidan AQSh va Angliya, Kanadani peshqadam deb ko'rsatsak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Sug'urta xissasi jahon sug'urta to'lovlarining 40 % dan ortig'ini tashkil qiladi. Yevropa mamlakatlarida 30% dan ortiq, Osiyo mamlakatlarida 25 %dan ortiq, Afrika mamlakatlarida 1,0 % atrofida.

Keltirilgan raqamlar ancha eskirgan, lekin keyingi yillarda Pokiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda sug'urtaning rivojlanishida ancha siljish bo'lganligini ko'rsatib o'tish kerak.

Sug'urta to'lovining jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi ham bizning xulosalarimizni to'ldirishi mumkin. Bu ko'rsatkich bo'yicha Shvetsariya 2,4 ming, Amerikada 1,8 ming dollar, Xitoyda atigi 2,4 dollarga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, chet mamlakatlarda sug'urtaning turlicha rivojlanishiga sabab, bir tomondan, tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalarni har bir mamlakatlarning sharoitiga qarab turli muddatlarda va miqyoslarda takrorlanib turishi bo'lsa, sanoat va savdo hamda xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari turli sur'atlarda, bir tekis rivojlanmaganidir. Osiyo va Afrika mamlakatlarida sug'urtaning sust rivojlanganligiga sabab, bu mamlakatlarda qishloq xo'jaligining katta asosiy o'rinni egallagan, dehqonlarning sug'urta imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun sharoitlarni yetarli emasliklari.

XX asrning 90-yillariga qadar jahon miqyosida shaxsiy sug'urtaning xissasi mol-mulk sug'urtasiga nisbatan ancha ortiq edi. 90-yillardan keyin shaxsiy sug'urta dinamikasida qanday o'zgarishlar mavjud?

Mulk sug'urtasiga nisbatan shaxsiy sug'urtaning ustun rivojlanishi davom etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1990-95-yil ma'lumotlariga qaraganda qit'alar va mamlakatlar bo'yicha shaxsiy sug'urtaning xissasi quyidagicha:

*Evropa-31%*, shu hisobda: Buyuk Britaniya-9,3%, Fransiya-5,5%, Germaniyada-5%, Rossiya 2,7%, Gollandiyada-1,8%; *Osiyoda-34%*, shu hisobda: Yaponiyada -28,7, Janubiy Koreya-3,2%; *Shimoliy Amerikada-31%*, shu hisobda: AQShda-29,1%, Kanadada-2,3%; *Okeaniya-1,8%*; *Afrikada-1,3%*; *Lotin Amerikasida-0,3%*. Hayot sug'urtasida Yaponiya peshqadamlik qilmoqda (1,645 trl,\$), undan keyin Shvetsariya (1,635 trln\$), AQSh 6-o'rinda, uning sug'urta kapitallari Yaponiya fondini yarmiga teng, Rossiya 27-o'rinda, Yaponiya sug'urta fondining 1,8 qismiga teng.

Lekin AQSh sug'urta tizimida shaxsiy sug'urta mulk sug'urtasiga qaraganda ustun hisoblanib, uning sug'urta fondidagi xissasi 70% teng keladi.

Shuni aytish kerakki Rossiya iqtisodiyotida sug'urtaning roli oshib borishiga qaramasdan, u ilg'or mamlakatlarga nisbatan orqada qolmoqda.

## **2. Chet mamlakatlarda sug'urta tashkilotlarini turkumlanishi va ular tomonidan amalga oshiriladigan asosiy sug'urta turlari.**

Jahonda ish olib borayotgan bir necha o'n minglab katta-kichik sug'urta tashkilotlari, ularning filiallarining tuzilishi bir xil emas. Bu tashkilotlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) Fuqarolarning barcha tabaqalariga xizmat qiluvchi, aksiyalari birja va boshqa yo'l bilan sotiladigan *erkin sug'urta kompaniyalari*.

2) *Xususiy aksionerlik sug'urta kompaniyalari*, bu tashkilotlarning xususiyati shundan iboratki, uning aksiyalariga ma'lum doiradagi shaxslar egalik qiladilar. Jamiyat qarori bilan ishonchli kishilarga ularni aksiyalari sotilishi mumkin.

3) *Davlat sug'urta kompaniyalari*, ularning aksiyalariga davlat to'la yoki qisman egalik qiladi. Bundan tashqari davlat tomonidan ayrim ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari barpo qilinishi mumkin.

4) *O'zaro sug'urtalash jamiyatlari*. Ayrim ishlab chiqarish sohalarida bunday sug'urta kompaniyalari tuzilib, ularni asosiy maqsadi foyda olish bo'lmasdan, murakkab vaziyatlarda bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishdir.

5) Ayrim sanoat va savdo tarmoqlariga xizmat qiluvchi *ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari*. Masalan: aviatsiya sohasida sug'urtalash chegaralangan bo'lgani uchun, ular o'z tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashgan tashkilotlarni tuzadilar.

Bundan tashqari "Lloyd" sug'urta tashkilotiga o'xshash sug'urta sindikatlari ham mavjud.

Sug'urta tashkilotlari ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan asosda o'z ishlarini tashkil qiladilar, ixtisoslashmagan sug'urta tashkilotlari sug'urtaning bir necha turlari bo'yicha o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari ko'pincha bir-ikki ixtisoslik yo'nalishlarida ish olib boradilar.

Sug'urta tashkilotlari sug'urta obyektlari va tavakkalchiliklar turlari bo'yicha ham guruhlanadilar. Dastlab shuni aytish kerakki, bunday ixtisoslashish 1978-yil 1 yanvardan boshlab tashkil qilingan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tizimida to'laroq o'z ifodasini topgan. Bu tizimda sug'urtaning barcha turlari ikki guruhga bo'linadi: *uzoq muddatli* va *qisqa muddatli* umumiy sug'urta guruhlariga.

*Uzoq muddatli sug'urta turlariga quyidagi sug'urta yo'nalishlari kiradi:*

1. Hayotni va annuitetni sug'urtalash.
2. Nikoh va farzand tug'ilishi sug'urtasi.
3. Uzluksiz sog'liq sug'urtasi.
4. Tonting (davlat tomonidan kredit shirkatlari bilan qarz munosabatlari) sug'urtasi.
5. Kapitalni qaytarish sug'urtasi.
6. Pensiya sug'urtasi.
7. Boshqa turdagi uzoq muddatli sug'urtalar.

*Sug'urtaning qisqa muddatli umumiy turlari:*

1. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.
2. Betoblik sug'urtasi.
3. Avtomobil sug'urtasi.
4. Temir yo'l vagonlari sug'urtasi.
5. Samolyotlar sug'urtasi.
6. Kemalar sug'urtasi.
7. Yuklar va transport sug'urtasi.
8. Mulklarni yong'in va tabiiy ofatlardan sug'urtalash.
9. Transport haydovchilarning fuqarolik javobgarligi sug'urtasi.
10. Avtokompaniya egalarini fuqarolik javobgarligi sug'urtasi.
11. Kema egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi.
12. Umumiy javobgarlik sug'urtasi.
13. Kredit sug'urtasi.
14. Xodimlarni zarardan sug'urtalash.
15. Moliyaviy zararlar sug'urtasi.
16. Sud xarajatlari bo'yicha to'lovlar sug'urtasi.

### **3. Jahon mamlakatlari sug'urta tizimi va uning xususiyatlari.**

Sug'urta bozori tushunchasi ayrim mamlakatlar ko'lami va barcha jahon mamlakatlari miqyosida qo'llaniladi. Jahon sug'urta bozori o'z tarkibiga rivojlangan va boshqa mamlakatlardagi sug'urta kompaniyalaridan tashkil topgan bo'lib, jahon miqyosida markaziy jahon sug'urta tashkiloti huquqiy jihatdan bir butun assotsiatsiya sifatida shakllanmagan bo'lsa ham, lekin Yevropa miqyosida bunday yuridik assotsiatsiya mavjud. Bular tomonidan birgalikda qator umumiy qonunlar qabul qilingan.

Bunday assotsiatsiyalarning xizmati faqat huquqiy tomondan amalga oshirilmasdan, balki iqtisodiy jihatdan ham amalga oshirilmoqda. Bunday assotsiatsiyalarni shakllanishida qayta sug'urtalash muhim rol o'ynamoqda. Bitta ma'ruzada bunday sug'urta birlashmalarining barcha

xillari haqida ma'lumot berish mumkin emas, shu sababli ayrim mamlakatlar sug'urta tizimlari haqida, asosan ularni tashkiliy tomonlari, boshqarish usullari bilan tanishtiriladi.

### *AQSh sug'urta tizimi*

AQSh sug'urta biznesi uslubiy jihatdan Buyuk Britaniyadan keyin rivojlangan bo'lsa ham, jahon miqyosida tutgan o'rnini jihatdan tengi yo'q hisoblanadi. Uning sug'urta monopoliyalari rivojlangan industrial mamlakatlar sug'urta bozorining taxminan 50 %ini nazorat qiladi. AQShda 8000 dan ortiq mulk va 2000ga yaqin hayotni sug'urtalash kompaniyalari amal qiladi.

AQSh sug'urta tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mamlakat miqyosida yagona birlashgan markaziy sug'urta boshqarmasi bo'lmasada, sug'urtani boshqarish har bir shtat miqyosida tashkil qilingan, har bir shtat o'zining sug'urta qonunlariga ega.

AQSh sug'urta tizimining birinchi xususiyati shundan iboratki, AQShda 3 xil sohadagi sug'urta mavjud. Bularning *birinchisi - biki fitlar* (hayot sug'urtasi) bu sug'urta faqat shaxsiy sug'urtadan iborat bo'lmasdan, tibbiy sug'urta, omonatlar, pensiya sug'urtasini ham qamrab oladi.

*Ikkinchisi - tijorat sug'urtasi* hisoblanadi. Bu keng ko'lamda tashkil qilinadi. *Uchinchisi - fuqarolarning shaxsiy mulk sug'urtasi*. Sug'urta xillarining umumiy ko'lami xaqida gapirganda barcha sug'urta kompaniyalarining aktivlari 1,6 trl. dollar hisoblanib, har bir kompaniya bo'yicha o'rtacha 950 mln. dollarni tashkil qiladi. Bular orasida 12 yirik sug'urta kompaniyasi bo'yicha aktivlar 45 mlrd. dollarga teng keladi. Barcha sug'urta kompaniyalarining faoliyati 3 konsalting kompaniyasi tomonidan tahlil qilinadi.

Bu tahlilda to'lanadigan qoplama, daromadalar va foyda koeffitsienti, debitor qarzlari markaziy o'rin tutadi.

Ikkinchi xususiyati shundan iboratki, sug'urta kompaniyalarining obro'si yuqori bo'lganligi sababli pensiya ta'minotini boshqarish ularning ixtiyoriga berilgan. Pensiya fondlarini boshqargani uchun sug'urta tashkilotlari tegishli xizmat haqi oladilar. Bundan tashqari, o'z mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalaniladi.

Uchinchi xususiyati shundan iboratki, sug'urta kompaniyalari Amerika sanoat kompaniyalari bilan birgalikda ishlaydilar. Tashkiliy jihatdan sug'urta ishlari aksionerlik jamiyatlari va hamkorlikda sug'urtalash jamiyatlari bilan birgalikda ish olib boradilar. Ularning asosiy vazifalarini anderrayterlar va sug'urta brokerlari amalga oshiradilar. Masalan, Purdenshnl jamiyatida 22 ming sug'urta brokeri xizmat qiladi. Steyd, Signa, Amerikan interneyshnl grupp (AIG) kabi sug'urta kompaniyalari jahon miqyosida faqat sug'urta operatsiyalarinigina emas, balki kredit, hisob-kitob operatsiyalarini ham boshqaradilar.

### *Buyuk Britaniya sug'urta tizimi*

Buyuk Britaniya sug'urta bozorining markazi London hisoblanadi. Bu shahar o'zining ko'p qirrali sug'urta faoliyati bilan jahonda mashhur. Unda jahonning yirik sug'urta kompaniyalarining vakolatxonalarini mavjud, ular faqat sug'urtalash bilangina emas, balki qayta sug'urtalash bilan ham shug'ullanadilar. Bular orasida "Lloyd" sug'urta kompaniyasi markaziy o'rin egallaydi.

*Buyuk Britaniya sug'urta bozorining asosiy xususiyati quyidagilardan iborat:*

1. Aksiyadorlar jamiyati hamkorlik sug'urtasi yo'li bilan o'zlariga tegishli sug'urta xillarini amalga oshiradi.

2. Sug'urta tashkilotlari orasida Lloyd sug'urta tashkiloti markaziy o'rinni egallaydi, unga 400 sug'urta sindikatlari qaraydi. Ular anderrayterlar tomonidan boshqariladi. Anderayterlar sug'urtaning aholiga polis sotish assotsiatsiyasida idora qiladilar. Bundan tashqari brokerlar tomonidan oddiy va qayta sug'urtalash shartnomalari tuziladi.

3. Sug'urta tashkilotlari ustidan savdo va sanoat Departamentining sug'urta nazorati bo'limi nazorat o'rnatadi. Sug'urtaning ayrim turlari bo'yicha ruxsat olish uchun Departament bo'limiga qator hujjatlar taqdim etiladi.

4. Qayta sug'urta hajmi cheklangan. 10 % dan ko'pini har qanday sug'urta tashkilotida, 20 % dan ko'pini mazkur sug'urta kompaniyasi kirgan sug'urta xoldingi tizimida, 25 % dan ko'pini qaysidir boshqa mamlakatda qayta sug'urtalashga ruxsat beriladi.

5. Buyuk Britaniyada fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi mavjud. Transport, uy hayvonlari egalarining javobgarligi, bundan tashqari buxgalterlar, advokatlarining kasbiy javobgarligi bo'yicha sug'urta shartnomasi tuziladi.

6. Moliyaviy hisobot auditor tekshiruvidan o'tadi.

7. Sug'urta tashkilotlari o'z foydasidan, mol-mulkidan soliq to'laydilar.

### *Germaniya sug'urta bozori*

Germaniya sug'urta bozorida mol-mulk sug'urtasi 51%, shaxsiy sug'urta 37%, tibbiy sug'urta 12%ni tashkil qiladi. Fuqarolarga sug'urta xizmati ko'rsatishdan olinadigan daromadlar yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromatlardan ko'pni tashkil qiladi. Hammasi bo'lib sug'urta tashkilotlari faoliyati fuqarolarga xizmat ko'rsatish bo'yicha 87 %, yuridik shaxslarga 13% ni tashkil qiladi.

Germaniyada sug'urta ishi davlat ijtimoiy ta'minoti tizimi va sug'urta xizmatlarining xususiy sektori o'rtasida bo'lingan. Ijtimoiy sug'urta yollanma mehnatda band bo'lganlarning barchasi uchun, agarda ular sug'urta ishining shaxsiy sektori tomonidan (qarilik sug'urtasi, ishsizlik sug'urtasi, vaqtinchalik mehnatga layoqatini yo'qotishdan sug'urtalash) qamrab olinmagan bo'lsa, majburiydir.

Sug'urta xizmatlarining shaxsiy sektori Germaniyada aksionerlik sug'urta jamiyatlari, birgalikda sug'urtalash jamiyatlari tomonidan ko'rsatiladi.

Sug'urtani boshqarish Germaniyada yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ularning faoliyati sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qilish Federal idorasi tomonidan amalga oshiriladi. Bu federal organning asosiy vazifasi sug'urtalanganlar huquqini himoya qilishdan iborat, chunki Germaniyada sug'urta tashkilotlarining bankrot bo'lishi natijasida sug'urtalanuvchilarning ko'rgan zararini qoplaydigan fond tashkil qilinmagan.

Sug'urta tashkilotlari federal viloyatlar (er organlari) tomonidan nazorat qilinadi. Viloyat (er) darajasidagi sug'urta nazorati bilan hududiy iqtisodiyot departamentlari shug'ullanadilar.

Germaniyada ixtiyoriy sug'urta bilan birga majburiy sug'urta ham mavjud bo'lib, yollanib ishlovchilar, avtotransport egalarini uchinchi shaxsga yetkazgan zararlari, havo transporti xodimlari, dori-darmon ishlab chiqaruvchilar majburiy tartibda sug'urtalanadilar.

Har bir sug'urta tashkiloti yillik hisobot topshiradi. Bu hisobot yo'li bilan tekshirishdan o'tkaziladi. Sug'urta tashkiloti daromadi soliqlar yordamida tartibga solinadi. Sug'urta faoliyatidan 50% stavka bo'yicha daromad solig'i undiriladi. Barcha turdagi tuzilgan shartnomalar bo'yicha (hayot sug'urtasi bo'yicha shartnomalardan tashqari) olingan mukofotlar 80 % soliqqa tortiladi. Sug'urta mukofotlari summalari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.

### *Yaponiyada sug'urta*

Yaponiyada sug'urta dastlab XIX asrning o'rtasida Buyuk Britaniyaning tashabbusi bilan vujudga kelgan. Faqat Ikogoma portida 240 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatgan, lekin dastlabki milliy sug'urta tashkiloti 1879-yilda Tokioda «Marina» nomi bilan, 8-yil o'tgandan keyin yong'inga qarshi sug'urtalaydigan «Yasuda» sug'urta kompaniyasi qad ko'targan.

Bu tashkilot faqat mulklarni sug'urtalash bilan emas, balki shaxsiy sug'urtani amalga oshirish bilan shug'ullangan. Dastlabki davrlarda sug'urta tashkilotlari faoliyatlari davlat tomonida emas edi, faqat 1900-yilda birinchi sug'urta qonunchiligi qabul qilinib, sug'urta zamon talablariga javob beradigan tartibda tashkil qilina boshladi. Mulkiy sug'urta bilan shaxsiy sug'urta o'rtasidagi xususiyatlar aniqlandi. Shu yildan boshlab sug'urta ustidan davlat nazorati o'rnatildi. O'tgan 100-yildan ortiq davr davomida sug'urta haqidagi qonunga faqat ikki marotaba o'zgartirish kiritilgan.

1940-yilda sug'urta tashkilotlarining soni 48 taga yetdi. Urush davrida sug'urta tashkilotlarining soni bir muncha qisqargan bo'lsa ham, lekin 1955-yilga kelib, ayniqsa,



avtomobillarni sug'urtasi haqidagi qonun qabul qilinganidan keyin, sug'urta tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Hozirda Yaponiyada 56 sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lib, 1955-yilga nisbatan sug'urta to'lovlari 130 barobarga yaqin ko'paydi. Yillik o'sish 13 %ni tashkil qiladi. Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida sug'urta tashkilotlarining jamg'armalari 100 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. Sug'urta agentlari sifatida 1 milliondan ortiq agent faoliyat ko'rsatadi.

Sug'urta turlari orasida avtomobillarni sug'urtalash katta o'rin tutadi, uning xissasi 51,1% dengiz transporti 10 %dan ortig'ini tashkil qiladi. Yong'inga qarshi sug'urta to'lovlari 15,3%ni tashkil qiladi.

Sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan Yaponiya Moliya Vazirligi nazorat olib boradi.

Vazirlik qoshidagi assotsiatsiyalar sug'urta, ayniqsa, avtomobil sug'urtasining stavkasini, baxtsiz hodisalardan, yong'in sug'urtasi va shaxsiy sug'urtaning boshqa xillari bo'yicha tariflarni belgilaydi.

Yaponiya sug'urta tashkilotlari iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishlariga qaramasdan o'z faoliyatlarini kengaytirishga, buning uchun xarajatlarni kamaytirishga alohida ahamiyat beradilar. Yaponiyada yuklarni sug'urtalash diqqatga sazavordir. Oziq-ovqat, sanoat tovarlari, muzlatilgan go'shtlarni tashish alohida xususiyatlarga ega. Bunda tarif qo'llashda marshrut, yukning xili va tashish usuli hisobga olinadi. 1996-yil aprelda sug'urta qonuniga kiritilgan o'zgartirishlarda sug'urta ishida davlatning aralashuvini kamaytirish, mulk va shaxsiy sug'urtaning o'zaro munosabatlarining takomillashtirilishiga alohida ahamiyat berildi.

Aholi tarkibida qariyalarni hissasini oshib borishi sug'urtalashda ham e'tiborga olinmoqda. Avtomobil sug'urtasida haydovchini yoshi, tajribasi, mashina markasi, olib qochish sodir bo'lganda qarshilik ko'rsatish vositalari va boshqalar e'tiborga olinadi. Keyingi yillarda sug'urta tizimini yiriklashtirishga alohida e'tibor berildi. 6 ta mol-mulk va 11 ta shaxsiy sug'urta kompaniyalari tashkil qilindi. Lekin shunga qaramasdan sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi raqobat davom etmoqda.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda sug'urta xalqaro sug'urta bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi. Sug'urta yordami bilan yalpi milliy mahsulotining 8-12% taqsimlanadi. Sug'urta badallari yirik investitsiyalarning manbai hisoblanadi va sug'urta fondlaridan davlat qarzlarini to'lashda ham foydalaniladi.

Ko'pchilik mamlakatlarda sug'urta markazlashtirilmagan holda boshqariladi hozirda sug'urtani boshqarishni markazlashtirilgan holda tashkil qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Buning uchun zarar ko'rgan sug'urta tashkilotlarini faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilmoqda.

Jahon miqyosida mamlakatlar o'rtasida sug'urta aloqalarini kuchaytirishda qayta sug'urtalash operatsiyalarini yanada rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

#### 4. Tayanch iboralar

**Vositachilar** – bu sug'urtalanuvchilar bilan yaqin bo'lgan va sug'urta xizmatlari bozori kon'yunkturasi o'zgarishiga operativ moslashuvchi shaxslar.

**Majburiy sug'urta** – sug'urta shakllaridan biri bo'lib, unda sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta munosabatlari qonun kuchida yuzaga keladi.

**Ixtiyoriy sug'urta** - tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta munosabatlari.

**Sug'urtalovchining aktivi** – sug'urtalovchining pulda ifodalangan mulki (asosiy vositalari va oborotdan tashqari aktivlari, moliyaviy qo'yilmalari, materiallar, kassadagi pul mablag'lari, hisob raqamidagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va b.), buxgalteriya balansining bir qismi.

**Sug'urta bozori** – sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi.

**Sug'urta brokeri yoki makleri** - yuridik shaxs bo'lib, ular sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyasini uning operatsiyalarini moliyaviy barqarorligi, sug'urta shartlarini sug'urtalanuvchi uchun qulayligi va boshqa omillardan kelib chiqib tanlashdagi maslahatchi.

**Sug'urta shartnomasi** – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi sug'urta turi shartlariga mos ravishda ularning o'zaro majburiyatlarini tartibga soluvchi kelishuv (huquqiy bitm).



**Sug'urta himoyasi** – konkret obyekt tomonidan ko'rilgan zararni bartaraf qilish yoki qoplash bo'yicha munosabatlar.

**Sug'urtalovchi** – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot.

**Sug'urta qildiruvchi** – sug'urta badallarini to'lovchi va konkret sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Sug'urtalanuvchi** – hayoti, sog'ligi yoki mehnatga layoqati sug'urta obyekti bo'lgan shaxs.

**Sug'urta obyekti va predmetlari** – sug'urtalashga tegishli bo'lgan moddiy qiymatliklar, inson hayoti, sog'ligi, mehnatga layoqati, javobgarliklar va mas'uliyatlar.

**Sug'urta mas'uliyati** – sug'urtalovchining sug'urta holatlari ro'y berganda sug'urta qoplamalari yoki sug'urta summalarini to'lash bo'yicha majburiyati.

**Sug'urta guvohnomasi (polisi)** – sug'urta amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.

**Sug'urta tarifi** – sug'urta summasiga nisbatan foiz stavkasi.

**Sug'urta badali (mukofoti)** – sug'urta summasiga nisbatan belgilangan sug'urta tarifi bo'yicha pul to'lovi.

**Sug'urta holati** – sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi to'lanishi kerak bo'lgan turli salbiy va boshqa kelishilgan oqibatlariga olib keluvchi haqiqatda sodir bo'lgan holatlar.

**Sug'urta** – ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qoplash.

**Sug'urta agent** – sug'urta tashkilotining uning nomidan va uning topshirig'i bilan shartnomalar tuzuvchi shtatsiz xodimi.

**Sug'urta qoplamasi** – zararni qoplash uchun to'lanadigan to'lovlar summasi bo'lib, u har bir holat va sug'urta shartnomasi shartlaridan kelib chiqib, sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'ladi.

**Lloyd** (Lloyd's) – xususiy sug'urtalovchilar korporatsiyasi (Angliya).

**Polis** (Policy) – sug'urta shartnomasining huquqiy tasdig'i.

**Pul** (Pool) – Yirik va xavfli risklarni birgalikda sug'urtalash uchun bir nechta sug'urta kompaniyalarini birlashuvi. Riskni qabul qilib oluvchi kompaniya, pulga a'zo sug'urtalovchilar nomidan yagona polis beradi.

**Fuqarolik javobgarligi** – fuqaro va yuridik shaxslarning uchinchi shaxslar (jismoniy va huquqiy) oldidagi qonunchilikda ko'zda tutilgan javobgarlikning bir turi bo'lib, u zarar yetkazuvchining harakat yoki harakatsizligi natijasida uchinchi shaxsga zarar yetkazilganda yuzaga keladi.

**Fors-major** (Force major, Act of God) – sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchini o'z majburiyatlaridan ozod qiluvchi yengib bo'lmaydigan kuchlar, favqulodda holatlar (urush, ijtimoiy-siyosiy tuzumning almashuvi va b.).

**Franshiza** (Franchise) – sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan zararlari qismi.

**Qayta sug'urta qilish** - bir sug'urtalovchi (qayta sug'urtalanuvchi) sug'urtalanuvchi oldidagi o'z majburiyatlari butunlay yoki qisman shartnomada belgilangan tavakkal shartlari asosida bajarilishini boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) orqali sug'urta qilishi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Jahonda sug'urtaning rivojlanganlik darajasiga tushuntirish bering.
2. Sug'urtaning barcha mamlakatlarda bir tekisda rivojlanmaganiga sabab nima?
3. Jahon miqyosida sug'urtaning rivojlanish darajasi qanday ko'rsatkich orqali ifoda qilinadi?
4. Chet mamlakatlarda sug'urta tashkilotlarini qanday turkumlash mumkin?
5. Jahon sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlarini qanday turkumlash mumkin?
6. AQSh sug'urta tizimining xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Buyuk Britaniya sug'urta tizimiga ta'rif bering.

- 8. Germaniya sug'urta tizimining xususiyatli tomonlari nimalardan iborat?**
- 9. Yaponiya sug'urta tizimiga tushuntirish bering.**
- 10. Rivojlangan chet mamlakatlar sug'urta tizimini o'rganish orqali mamlakatimiz sug'urta tizimiga qanday baho berish mumkin?**

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI SUG'URTA FAOLIYATI TO'G'RSIDA.**

### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi sug'urta faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

### **2-modda. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

### **3-modda. Sug'urta hamda sug'urta faoliyati**

Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi.

### **4-modda. Sug'urta sohalari va turlari (klasslari)**

Sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **5-modda. Sug'urta faoliyati subyektlari**

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining subyektlari hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar.

Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti sug'urta vositachilari hisoblanadilar.

## **6-modda. Sug'urtalovchi**

Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuzaga kelishini bartaraf etish va oldini olishga oid chora-tadbirlarni maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda moliyalashtirishga haqli.

Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasnodir:

maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;  
sug'urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyat;  
sug'urta agenti sifatidagi sug'urta vositachiligi.

## **7-modda. Sug'urta brokeri**

Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug'urta brokeri hisoblanadi.

Sug'urta brokerining faoliyati sug'urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borilishi mumkin emas, qayta sug'urta brokerining faoliyati bundan mustasnodir.

## **8-modda. Qayta sug'urta brokeri**

O'z nomidan va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeri hisoblanadi.

## **9-modda. Sug'urta agenti**

Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblandi.

Sug'urtalovchining boshqariuv organlari rahbarlari sug'urta agenti bo'la olmaydilar.

Sug'urtalovchilar o'zlari vakolat bergan sug'urta agentlarining reestrallarini yuritishlari lozim.

## **10-modda. Maxsus vakolatli davlat organi**

Sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi:

ijro etilishi majburiy bo'lgan to'lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar jaming yo'l qo'yilvdigan ko'p yoki eng kam miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari rioya etishini, to'lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalaydi;

sug'urtalovchilar tomonidan hisob-kitobni yuritish, sug'urta zahiralarning mablag'larini shakllantirish va joylashtirishga oid hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

sug'urtalovchining ijro etuvchi organi rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan ijro etilishi majburiy bo'lgan malaka talablarini belgilaydi;

sug'urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning shakli, tartibi va muddatlarini belgilaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini to'liq yoki ayrim sug'urta turlariga (klasslariga) nisbatan to'xtatib qo'yadi, shuningdek ularning amal qilishini tugatadi;

har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sug'urta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat to'g'risida yillik hisobotlarni, shuningdek sug'urta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati to'g'risida statistika ma'lumotlarini e'lon qiladi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi va uning xodimlari sug'urta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek sug'urta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar.

### **11-modda. Sug'urtalovchilarni tuzish va davlat ro'yxatidan o'tkazish**

Sug'urtalovchilar qonunlarda nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tuziladi.

Sug'urtalovchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

### **12-modda. Sug'urtalovchilarning ustav fondi**

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug'urtalovchining muassislari tomonidan to'langan bo'lishi kerak.

### **13-modda. Sug'urtalovchilarning firma nomiga qo'yiladigan talablar**

Sug'urtalovchilarning firma nomida ilgari tashkil etilgan sug'urtalovchilarning nomi bilan bir xil yoki ular bilan chalkashtirib yuboriladigan darajada o'xshash belgilar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi, sug'urtalovchilarning filiallari, shuningdek unitar korxona shaklida boshqa sug'urtalovchilar tomonidan tashkil etilgan sug'urtalovchilarning nomlari bundan mustasnodir.

### **14-modda. Sug'urtalovchining firma nomini, tashkiliy-huquqiy shaklini yoki joylashgan manzilini o'zgartirish**

Sug'urtalovchining firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan manzili o'zgargan taqdirda sug'urtalovchi bu haqda sug'urta qildiruvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali, o'z ijrosidagi bir yildan ortiq muddatli sug'urta shartnomalari bo'yicha esa – yozma ravishda xabardor qilish shart.

### **15-modda. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash**

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yohud umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

### **16-modda. Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishi to'xtatib turilishining o'ziga xos xususiyatlari**

Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to'xtatib turilishi uning yangi sug'urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan amaldagi sug'urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo'ladi. Bunda sug'urtalovchi ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir.

### **17-modda. Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishi tugatilishining o'ziga xos xususiyatlari**

Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug'urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to'xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlangan sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyatiga o'tadi. Muvaqqat ma'muriyat sud qaror chiqargunga qadar bo'lgan davrda o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug'urtalovchini tugatish to'g'risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo'llangan sudga taqdim etiladi.

Sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyati o'z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug'urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma'muriy xarajatlari), sug'urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga yozish va ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash bilan bog'liq hollar bundan mustasnodir.

Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining ishlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning qoidalari sug'urtalovchining arizasiga binoan litsenziya bekor qilingan hollarga, shuningdek uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchining boshqaruv organi qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yohud tugatilishiga taalluqli emas.

### **18-modda. Sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari**

Sug'urtalovchilarni qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi bilan amalga oshirilishi mumkin.



Sug'urtalovchi qayta tashkil etishga ruxsatnoma olish uchun maxsus vakolatli davlat organiga tegishli ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

muassislarning (ishtirokchilarning) yoki ta'sis hujjatalarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchi boshqaruv organining qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;

tuzilayotgan sug'urtalovchining balansi va faoliyatining taxminiy moliyaviy natijalari;

qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shartnomasining loyihasi (qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda).

Sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishni o'tkazish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berishni rad qilishga haqli, agar:

sug'urtalovchini qayta tashkil etish natijasida yangitdan tashkil qilinadigan sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligiga doir talablar buzilishi mumkin bo'lsa;

sug'urtalovchilarning qayta tashkil etilishi sug'urta bozorida raqobatning cheklanishiga yoki bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin bo'lsa;

sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilishi so'rab taqdim qilingan hujjatlarda ishonchsiz ma'lumotlar bo'lsa yohud bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq bo'lsa;

sug'urtalovchilarni qayta tashkil etish qonun hujjatlariga zid bo'lsa.

Qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida qayta tashkil etilganda sug'urtalovchi (sug'urtalovchilar) litsenziyasining amal qilishi tugatiladi. Qayta tashkil etish natijasida yangitdan tuzilgan sug'urtalovchilarga litsenziyalarni berish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida qayta tashkil etilayotgan davri uchun hamda yangitdan tuzilgan sug'urtalovchilar litsenziya olgunga qadar bo'lgan davrda ular yangi sug'urta shartnomalarini tuzishga, amaldagi sug'urta shartnomalarini uzaytirishga haqli emaslar, ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmlariga olingan, huquqiy vorislik tartibida o'zlariga o'tgan majburiyatlarni bajarish hollari bundan mustasnodir.

Qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda o'ziga boshqa sug'urtalovchi qo'shilayotgan sug'urtalovchi, agar qo'shib olish natijasida litsenziyaning shartlari o'zgarmasa, amaldagi litsenziyani saqlab qoladi.

### **19-modda. Sug'urtalovchilarni tugatilishining o'ziga xos xususiyatlari**

Sug'urtalovchi o'zining muassislari (ishtirokchilari) yoki sug'urtalovchining ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organining qaroriga binoan tugatilayotganda maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi talab qilinadi.

Muassislar (ishtirokchilar) yoki sug'urtalovchining ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organi tomonidan tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan keyin sug'urtalovchi maxsus vakolatli davlat organiga tugatishga ruxsatnoma olish uchun ariza bilan yozma ravishda murojaat etgan holda quyidagi hujjatlarni ilo qiladi:

sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi qaror;

majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanagacha bo'lgan, auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan balans hisoboti;

sug'urtalovchini tugatish muddatlari va shartlari ko'rsatilgan holdagi tugatish rejasini.

Sug'urtalovchini tugatishga ruxsatnoma olish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to'g'risida sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish uchun ruxsatnoma berish bilan bir vaqda sug'urtalovchining taqdim etilgan tugatish rejasiga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sug'urtalovchini tugatishga ruxsatnoma berishni rad etishga haqli, agar:

tugatish natijasida sug'urta qildiruvchilarning hamda sug'urtalovchi kreditorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilsa;

sug'urtalovchini tugatishga ruxsatnoma berilishi uchun taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz ma'lumotlar bo'lsa yoki bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq bo'lsa.

## **20–modda. Tugatilayotgan sug'urtalovchi kreditorlarining talablarini qanoatlantirish navbati**

Tugatilayotgan sug'urtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek tugatiladigan sug'urtalovchining asosiy vazifalarini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadigan xarajatlar to'langanidan so'ng quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda – hayotni sug'urta qilish sohasida majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilarning talablari;

ikkinchi navbatda – sug'urta qildiruvchilarning boshqa majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha talablari;

uchinchi navbatda – boshqa sug'urta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talablari;

to'rtinchi navbatda – budjetga, budjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni nazarda tutuvchi to'lov (ijro) hujjatlari bo'yicha talablar. Ko'rsatilgan talablar to'liq qanoatlantirilgandan keyin ijtimoiy sug'urta bo'yicha talablar hamda jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik tufayli fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha talablari qanoatlantiriladi;

beshinchi navbatda – sug'urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

## **21-modda. Sug'urtalovchining sug'urta zahiralari**

Qabul qilingan sug'urta majburiyatlari bajarilishini ta'minlash sug'urtalovchilar ham so'mda, ham chet el valyutasida to'langan sug'urta mukofotlaridan maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda sug'urta zahiralari shakllantiradilar hamda joylashtiradilar.

Sug'urtalovchining sug'urta zahiralari mos keluvchi aktivlari olib qo'yilishi mumkin emas.

## **22-modda. Sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatining kafolatlari**

Sug'urtalovchilar ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdordan va majburiyatlar jamiyati yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdordan ortiq majburiyatlarni o'z zimmlariga olishlari mumkin emas, ularning bu majburiyatni bajarish qobiliyati to'lovga qobiliyatlilik normativlariga va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablariga muvofiq qayta sug'urta qilingan hollar bundan mustasnodir. O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lmish sug'urtalovchilar O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilishga haqlidirlar.

## **23-modda. Sug'urtalovchilarlar buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari**

Sug'urtalovchilar sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadilar.

## **24-modda. Monopolistik faoliyatga yo'l qo'yilmasligi**

Sug'urta bozorida raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga, bir sug'urtalovchilarga boshqalariga qaraganda asossiz afzalliklar berilishiga yoki olinishiga, sug'urta qildiruvchilar va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga qaratilgan faoliyatga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilariga o'z uyushmalari (ittifoqlari) va boshqa birlashmalaridan sug'urta bozorini monopollashtirishga qaratilgan bitimlarga erishish yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

## **25-modda. Axborot olish huquqi**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, shuningdek tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari va boshqa tashkilotlar sug'urtalovchilarning so'roviga ko'ra sug'urta hodisalarining yuz berishi sabablari va holatlari to'g'risidagi hamda sug'urta to'voni miqdorlari sug'urtalovchi tomonidan aniqlanishi maqsadida yetkazilgan zarar to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va xulosalarni taqdim etishlari shart.

Maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchilar yoki sug'urta brokerlaridan qabul qilingan pul mablag'lari va majburiyatlarining miqdorlari haqidagi axborotni, shuningdek boshqa axborotni o'z vakolati doirasida talab qilib olishga haqli. Bunday axborotni talab qilib olish yozma ravishda, so'rov sabablari ko'rsatilgan holda amalga oshirilmog'i lozim.

Maxsus vakolatli davlat organi o'zi olgan axborotning sir tutilishiga rioya etishi shart, axborotning oshkor qilinishi qonunda ruxsat etilgan hollar bundan mustasno.

## **26-modda. Sug'urta siri**

Sug'urta qildiruvchilar, sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar, sug'urta qildiruvchilarning va sug'urtalangan shaxslarning sog'lig'i, sug'urtalangan mol-mulk, sug'urta puli, bank hisobvaraqlari mavjudligi, ushbu hisobvaraqlardagi pul qoldiqlari va pul harakati haqidagi ma'lumotlar oshkor qilinishi mumkin emas.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar sug'urta qildiruvchi. Shuningdek sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar o'zlariga taalluqli ma'lumotlarga doir yozma rozilik berganda uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar sug'urta qildiruvchilarning roziligini olmagan holda sug'urtalovchilar tomonidan sudga, prokurorga, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda esa surishtiruv va tergov organlariga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Tuzilgan sug'urta shartnomalari va amalga oshirilgan hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotnomalar sug'urta qildiruvchi – jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda quyidagilarga beriladi:

sug'urta qildiruvchi o'z vasiyatnomasida ko'rsatgan shaxsga;

sud va notariusga – ularning ish yurituvida bo'lgan merosga oid ishlar bo'yicha sudning qarori yoki notariusning o'z muhri bilan tasdiqlangan yozma so'rovi asosida. Notariusning yozma so'roviga sug'urta qildiruvchi vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi ilova qilingan bo'lishi kerak;

konsulga – uning ish yurituvida bo'lgan merosga oid ishlar yuzasidan.

## **27-modda. Chet el sug'urta tashkilotlarining faoliyati**

Chet el sug'urta tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxslar – sug'urta bozori professional ishtirokchilarining muassislari (ishtirokchilari) bo'lishlari mumkin.

Chet el sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi hududida qayta sug'urta qilishni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar hamda mexanizmlar egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashni amalga oshirishga haqlidirlar. Bunda ana shunday sug'urta shartnomalarini tuzish sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilari – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari orqali amalga oshiriladi.

**28-modda. Nizolarni hal etish**

Sug'urta faoliyati sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**29-modda. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun  
javobgarlik**

Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**I. KARIMOV**

Toshkent shahri,  
2002-yil 5 aprel.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK KODEKSI

### 52-BOB. SUG'URTA

#### 914-modda. Ixtiyoriy va majburiy sug'urta

Sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi.

Qonunda ko'rsatilgan shaxslarga sug'urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkini yoxud o'zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o'z hisobidan yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug'urta qilish (majburiy sug'urta) majburiyati qonun bilan yuklangan hollarda sug'urta ushbu bobning qoidalariga muvofiq shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Majburiy sug'urtada sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi bilan sug'urtaning ushbu turini tartibga soladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzishi shart.

Qonunda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini davlat budjeti mablag'lari hisobidan majburiy sug'urta qilish hollari (davlat majburiy sug'urtasi) nazarda tutilishi mumkin.

#### 915-modda. Mulkiy sug'urta shartnomasi

Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'voni to'lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar sug'urtalanishi mumkin:

muayyan mol-mulkning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

fuqarolik javobgarligi xavfi - boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo'yicha javobgarlik xavfi;

tadbirkorlik xavfi - tadbirkorning kontragentlari o'z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga ko'ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o'zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

#### 916-modda. Sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlar

G'ayriqonuniy manfaatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Qimor, lotereyalar va garov o'yinlarida ishtirok etishda ko'riladigan zararni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urta shartnomalarining ushbu modda birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlariga zid bo'lgan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas.

### **917-modda. Mol-mulkni sug'urta qilish**

Mol-mulk uning asralishidan qonun hujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega bo'lgan shaxs (sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi) foydasiga, uning mulkdori, mol-mulkka nisbatan boshqa ashyoviy huquqqa ega bo'lgan shaxs, ijarachi, pudratchi, saqlovchi, vositachi va boshqa shu kabilar foydasiga sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin.

Sug'urtalangan mol-mulkning asralishidan sug'urta qildiruvchida va naf oluvchida manfaat bo'lmagan paytda tuzilgan mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi haqiqiy emas.

Naf oluvchi foydasiga mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi naf oluvchining ismi yoki nomi ko'rsatilmasdan tuzilishi mumkin. Bunday shartnoma tuzilganda sug'urta qildiruvchiga egasining nomi ko'rsatilmagan polis beriladi. Bunday shartnoma bo'yicha huquqlarni amalga oshirishda bu polisini sug'urtalovchiga taqdim etish zarur.

### **918-modda. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni sug'urta qilish**

Boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfi sug'urtalangan shaxs sug'urta shartnomasida ko'rsatilishi lozim. Agar bu shaxs shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchining o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalangan hisoblanadi.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi, hatto shartnoma zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo'lgan sug'urta qildiruvchi yoki boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud shartnomada u kimning foydasiga tuzilgani ko'rsatilmagan taqdirda ham, zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan shaxslar (naf oluvchilar) foydasiga tuzilgan deb hisoblanadi.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni sug'urta qilish majburiy bo'lgani sababli sug'urtalangan taqdirda, shuningdek qonunda yoki bunday javobgarlikni sug'urta qilish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda sug'urta shartnomasi o'z foydasiga tuzilgan deb hisoblanuvchi shaxs zararni sug'urta puli doirasida to'lash to'g'risida bevosita sug'urtalovchiga talab qo'yishga haqli.

### **919-modda. Shartnoma bo'yicha javobgarlikni sug'urta qilish**

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilishga qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin. Ushbu talabga muvofiq bo'lmagan sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfi, bu shartnoma shartlariga ko'ra sug'urta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zimmasiga olishi lozim bo'lsa, o'sha taraf - naf oluvchi foydasiga, hatto sug'urta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham, sug'urtalangan hisoblanadi.

### **920-modda. Tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish**

Tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'z tadbirkorlik xavfi va faqat uning foydasiga sug'urtalanishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning foydasiga tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi sug'urta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi.



## **921-modda. Shaxsiy sug'urta shartnomasi**

Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi.

Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

Sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, shartnoma sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

## **922-modda. Majburiy sug'urta**

Qonunda quyidagilarni sug'urta qilish majburiyati belgilab qo'yilishi mumkin:

qonunda ko'rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulki ularning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimolini nazarda tutib;

boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zining fuqaroviy javobgarligi xavfi.

Sug'urta qildiruvchi bo'lish majburiyati qonun bilan unda ko'rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi.

Qonunda majburiy sug'urtaning boshqa turlari ham belgilanishi mumkin.

Fuqaroga o'z hayoti yoki sog'lig'ini sug'urtalash majburiyati qonun bilan yuklatilishi mumkin emas.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki unda belgilangan tartibda xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida davlatga qarashli mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslarga bu mulkni sug'urtalash majburiyati yuklanishi mumkin.

Mol-mulkni sug'urta qilish majburiyati qonundan kelib chiqmaydigan, balki mol-mulkning egasi bilan tuzilgan shartnomaga yoki mol-mulkning mulkdori hisoblanuvchi yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga asoslangan hollarda, bunday sug'urta ushbu moddaning ma'nosi jihatidan majburiy hisoblanmaydi va ushbu Kodeksning 924-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

## **923-modda. Majburiy sug'urtani amalga oshirish**

Majburiy sug'urta bunday sug'urta qilish majburiyati yuklangan shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasi tuzishi vositasida amalga oshiriladi.

Majburiy sug'urta sug'urta qildiruvchi hisobidan amalga oshiriladi, yo'lovchilarni majburiy sug'urtalash bundan mustasno bo'lib, bu sug'urta qonunda nazarda tutilgan hollarda ularning o'z hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Majburiy sug'urtalanishi lozim bo'lgan obyektlar, ular sug'urtalanishga sabab bo'ladigan xavflar va sug'urta pulining eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

### **924-modda. Majburiy sug'urta to'g'risidagi qoidalarni buzish oqibatlari**

Qonun bo'yicha foydasiga majburiy sug'urta amalga oshirilishi lozim bo'lgan shaxs, agar sug'urta amalga oshirilmagani unga ma'lum bo'lsa, sug'urta qildiruvchi sifatida zimmasiga sug'urtalash majburiyati yuklangan shaxs uni amalga oshirishini sud tartibida talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi sifatida sug'urtalash majburiyati zimmasiga yuklangan shaxs uni amalga oshirmagan bo'lsa yoki sug'urta shartnomasini naf oluvchining ahvolini qonunda belgilangan shartlarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarda tuzgan bo'lsa, u sug'urta hodisasi yuz berganida basharti tegishli sug'urtalangan taqdirda sug'urta to'lovni to'lashga asos bo'lishi kerak bo'lgan shartlarda javobgar bo'ladi.

### **925-modda. Sug'urtalovchi**

Tijorat tashkilotlari hisoblangan va tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, sug'urtalovchilar sifatida sug'urta shartnomalarini tuzishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlariga qo'yiladigan talablar, ularga litsenziya berish va ularning faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

### **926-modda. Sug'urta shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning sug'urta qildiruvchi va naf oluvchi tomonidan bajarilishi**

Naf oluvchi foydasiga sug'urta shartnomasi tuzish, shu jumladan u sug'urtalangan shaxs bo'lganda ham, sug'urta qildiruvchini, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoxud sug'urta qildiruvchining zimmasidagi majburiyatlar foydasiga shartnoma tuzilgan shaxs tomonidan bajarilmagan bo'lsa, ushbu shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Naf oluvchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini yoxud shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lashni talab qilganida sug'urtalovchi undan, shu jumladan sug'urtalangan shaxs naf oluvchi bo'lgan taqdirda ham, sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni, shu bilan birga sug'urta qildiruvchining zimmasida bo'lgan, lekin u bajarmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilishga haqli. Ilgari bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik oqibatlari xavfi naf oluvchining zimmasida bo'ladi.

### **927-modda. Sug'urta shartnomasining shakli**

Sug'urta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim.

Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi.

Sug'urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga uning yozma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtalovchi imzolagan, sug'urta shartnomasining shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitantsiyasi)ni topshirish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug'urta mukofoti to'lash yoxud - sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'langanda - birinchi badalni to'lash orqali tasdiqlanadi.

Sug'urtalovchi shartnoma tuzish chog'ida sug'urtaning alohida turlari bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ning o'zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo'llanishga haqli.

## **928-modda. Bosh polis bo'yicha sug'urtalash**

Bir turdagi mol-mulk (tovarlar, yuklar va hokazoning) turli turkumlarini muayyan muddat davomida bir xildagi shartlarda muntazam sug'urtalash sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi bilan kelishuviga binoan bitta sug'urta shartnomasi - bosh polis asosida amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning har bir turkumi to'g'risida sug'urtalovchiga bunday polisda shartlashilgan ma'lumotlarni unda nazarda tutilgan muddatda, agar muddat nazarda tutilmagan bo'lsa - ular olinganidan keyin darhol xabar qilishi shart. Agar hatto bunday ma'lumotlarni olish paytigacha sug'urtalovchi to'lashi lozim bo'lgan zarar ko'rish ehtimoli o'tib ketgan bo'lsa ham, sug'urta qildiruvchi bu majburiyatdan ozod bo'lmaydi.

Sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning alohida turkumlari bo'yicha sug'urta polislarini berishi shart.

Sug'urta polisining mazmuni bosh polisga nomuvofiq bo'lgan taqdirda, sug'urta polisi afzal ko'riladi.

## **929-modda. Sug'urta shartnomasining muhim shartlari**

Mulkiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

sug'urta obyekti bo'lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to'g'risida;

yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;

sug'urta puli miqdori to'g'risida;

sug'urta to'voni miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida, agar shartnomada uni sug'urta pulidan oz miqdorda to'lash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa;

sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;

shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

sug'urtalangan shaxs to'g'risida;

sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;

sug'urta puli miqdori to'g'risida;

sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;

shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

## **930-modda. Sug'urta shartnomasi shartlarini sug'urta qoidalarida belgilab qo'yish**

Sug'urta shartnomasini tuzish shartlari sug'urtalovchi yoxud sug'urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug'urtaning standart qoidalari (sug'urta qoidalari)da belgilab qo'yilishi mumkin.

Sug'urta qoidalarida mavjud bo'lgan va sug'urta shartnomasi (polisi) matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada (polisda) shunday qoidalar qo'llanilishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan va qoidalarining o'zi shartnoma (polis) bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida bayon qilingan yoxud unga ilova qilingan bo'lsa, sug'urta qiluvchi (naf oluvchi) uchun majburiydir. Ilova qilingan

taqdirda, shartnomani tuzish paytida sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoidalari topshirilgani shartnomada yozuv bilan tasdiqlab qo'yilishi lozim.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi sug'urta qoidalarining ayrim bandlarini o'zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo'lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to'g'risida kelishishlari mumkin.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) o'z manfaatlarini himoya qilib, sug'urta shartnomasida (polisida) ko'rsatib o'tilgan tegishli turdagi sug'urta qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko'ra uning uchun majburiy bo'lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

### **931-modda. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi taqdim etadigan ma'lumotlar**

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sug'urtalovchiga xabar qilishi shart.

Sug'urta shartnomasi (polisi)ning standart shaklida, sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida yoki yozma so'rovda sug'urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo'yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi.

Agar sug'urta shartnomasi sug'urtalovchining qandaydir savollariga sug'urta qildiruvchining javoblari bo'lmagan holda tuzilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli holatlar sug'urta qildiruvchi tomonidan ma'lum qilinmaganligiga asoslanib keyinchalik shartnomani bekor qilishni yoxud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Agar sug'urta shartnomasi tuzilganidan keyin, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga bila turib yolg'on ma'lumot berganligi aniqlansa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va ushbu Kodeks 123-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan oqibatlar qo'llanilishini talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi aytib qo'ymagan holatlar o'tib ketgan bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

### **932-modda. Sug'urtalovchining sug'urta xavfini baholash huquqi**

Mol-mulkni sug'urtalash shartnomasi tuzilayotganida sug'urtalovchi sug'urta qilinayotgan mol-mulkni ko'zdan kechirishga, zaruriyat bo'lgan taqdirda uning haqiqiy qiymatini belgilash maqsadida ekspertiza tayinlashga haqli.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzilayotganida sug'urtalovchi sug'urta qilinayotgan shaxs sog'lig'ining haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirtirishga haqli.

Ushbu modda asosida sug'urtalovchi tomonidan sug'urta xavfini baholash boshqa holatni isbotlashga haqli bo'lgan sug'urta qildiruvchi uchun majburiy emas.

### **933-modda. Sug'urta siri**

Sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs va naf oluvchi, ularning sog'lig'ining holati to'g'risidagi, shuningdek bu shaxslarning mulkiy ahvoli to'g'risidagi o'z kasb faoliyati natijasida o'zi olgan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas. Sug'urta sirini buzganlik uchun sug'urtalovchi buzilgan huquqlarning turi va buzish xususiyatiga qarab ushbu Kodeksning 985, 1021 va 1022-moddalari qoidalariga muvofiq javobgar bo'ladi.

### **934-modda. Sug'urta puli**

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladigan yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lash majburiyatini oladigan summa

(sug'urta puli) sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi bilan kelishuviga ko'ra ushbu modda qoidalariga muvofiq belgilanadi.

Mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sug'urta qilishda, agar sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta puli ularning haqiqiy qiymatidan (sug'urta qiymatidan) oshmasligi lozim, quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

mol-mulk uchun - uning sug'urta shartnomasini tuzish kuni turgan joyidagi haqiqiy qiymati;

tadbirkorlik xavfi - sug'urta hodisasi yuz berganida sug'urta qildiruvchi tadbirkorlik faoliyatidan ko'rishi mumkin bo'lgan zarar.

Shaxsiy sug'urta shartnomalarida va fuqaroviy javobgarlikni sug'urtalash shartnomalarida sug'urta pulini taraflar o'z ixtiyorlariga ko'ra aniqlaydilar.

### **935-modda. Mol-mulkning sug'urta qiymati**

Sug'urta shartnomasini tuzish paytida taraflarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan mol-mulk qiymati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qiymati (sug'urta bahosi) deb hisoblanadi.

Mol-mulkning shartnomada ko'rsatilgan sug'urta qiymati ustida keyinchalik nizolashish mumkin emas, shartnoma tuzilgunga qadar sug'urta xavfini baholash bo'yicha o'z huquqidan foydalanmagan sug'urtalovchi bu qiymat borasida bila turib chalg'itilgan hol bundan mustasno.

### **936-modda. To'liq bo'lmagan mulkiy sug'urta**

Agar mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sug'urtalash shartnomasida sug'urta puli sug'urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganida sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) u ko'rgan zararni sug'urta pulining sug'urta qiymatiga bo'lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplashi shart.

### **937-modda. Qo'shimcha mulkiy sug'urta**

Agar mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi faqat sug'urta qiymatining bir qismi miqdorida sug'urtalangan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) qo'shimcha sug'urta qilishga, shu jumladan boshqa sug'urtalovchida sug'urta qilishga haqli, ammo barcha sug'urta shartnomalari bo'yicha umumiy sug'urta puli sug'urta qiymatidan oshib ketmasligi lozim.

Ushbu modda birinchi qismining qoidalariga rioya etmaslik, ushbu Kodeksning 938-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

### **938-modda. Sug'urta qiymatidan ortiq miqdorda sug'urta qilish oqibatlari**

Agar sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfining sug'urta puli sug'urta qiymatidan ortiq bo'lsa, shartnoma sug'urta pulining sug'urta qiymatidan ortiq bo'lgan qismida o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Bu holda sug'urta mukofotining ortiqcha to'langan qismi qaytarib berilmaydi.

Agar sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'lansa va ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar aniqlangan paytgacha uning hammasi to'lanmagan bo'lsa, qolgan sug'urta badallari sug'urta puli miqdorini kamaytirishga mutanosib tarzda kamaytirilgan miqdorda to'lanishi lozim.

Agar sug'urta shartnomasidagi sug'urta pulini oshirib yuborish sug'urta qildiruvchi tomonidan aldashning oqibati bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va o'ziga yetkazilgan zarar uning sug'urta qildiruvchidan olgan sug'urta puli summasidan ortiq miqdorda qoplanishini talab qilishga haqli.

### **939-modda. Qo'shaloq sug'urta**

Ushbu Kodeksning 938-moddasida nazarda tutilgan qoidalar sug'urta puli ayni bitta mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini ikki yoki bir necha sug'urtalovchida sug'urta qilish (qo'shaloq sug'urta) natijasida sug'urta qiymatidan oshib ketgan taqdirda ham tegishincha suratda qo'llaniladi.

Mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi qo'shaloq sug'urta qilinganda har bir sug'urtalovchi sug'urta tovonini o'zi tuzgan shartnoma doirasida to'lashga majbur bo'ladi, biroq barcha sug'urtalovchilardan olingan sug'urta tovonlarining umumiy summasi haqiqiy zarardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Bunda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta tovonini istalgan sug'urtalovchidan u bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan sug'urta puli doirasida olishga haqli. Olingan sug'urta tovon haqiqiy zararni qoplamagan taqdirda, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) yetishmayotgan summani boshqa sug'urtalovchidan olishga haqli.

Etkazilgan zarar boshqa sug'urtalovchilar tomonidan qoplangani sabali sug'urta tovonini to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilingan sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga sug'urta to'lovlarining tegishli qismini qilingan xarajatlarni chegirgan holda qaytarishi shart.

Ushbu modda qoidalari har bir sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs va naf oluvchi oldidagi o'z sug'urta majburiyatlarini, boshqa sug'urtalovchilar majburiyatlarini bajarganligidan qat'i nazar, mustaqil bajaradigan qo'shaloq shaxsiy sug'urtada qo'llanilmaydi.

### **940-modda. Turli xildagi sug'urta xavflaridan mulkiy sug'urta**

Mol-mulk va tadbirkorlik xavfi turli xildagi sug'urta xavflaridan xoh bitta, xoh alohida sug'urta shartnomalari bo'yicha, shu jumladan turli sug'urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta qilinishi mumkin.

Bunday hollarda barcha shartnomalar bo'yicha umumiy sug'urta puli miqdori sug'urta qiymatidan oshib ketishiga yo'l qo'yiladi va tegishli suratda ushbu Kodeksning 939-moddasi qoidalari qo'llaniladi.

### **941-modda. Birgalikda sug'urta qilish**

Sug'urta obyekti bitta shartnoma bo'yicha bir necha sug'urtalovchi tomonidan o'rtada sug'urtalanishi mumkin (birgalikda sug'urta qilish). Agar bunday shartnomada sug'urtalovchilardan har birining huquq va majburiyatlari belgilanmagan bo'lsa, ular mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lash uchun sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) oldida solidariy javobgar bo'lalilar.

Yirik va alohida yirik xavflarni o'rtada sug'urta qilish uchun birgalikda sug'urtalovchilar birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma asosida oddiy shirkatlar (sug'urta sherikchiligi) tuzishlari mumkin.

Birgalikda sug'urtalovchilar o'rtasida tegishli kelishuv bo'lgan taqdirda, ulardan biri sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning oldida faqat o'z ulushi uchun javobgar bo'lib qolgani holda, u bilan o'zaro munosabatlarda barcha birgalikdagi sug'urtalovchilar nomidan vakil bo'lishi mumkin.

### **942-modda. Sug'urta mukofoti va sug'urta badallari**

Sug'urta mukofoti deganda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi tushuniladi.

Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdorini belgilashda sug'urta obyekti va sug'urta xavfi xususiyati hisobga olingan holda o'zi tomonidan ishlab chiqilgan, sug'urta puli birligidan undiriladigan mukofotni aniqlaydigan sug'urta tariflarini qo'llashga haqli.



Qonunda nazarda tutilgan hollarda sug'urta mukofotining miqdori davlat sug'urta nazorati organlari tomonidan joriy etilgan yoki tartibga solinadigan sug'urta tariflariga muvofiq belgilanadi.

Agar sug'urta shartnomasida sug'urta mukofotini bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, shartnomada navbatdagi sug'urta badallarini belgilangan muddatlarda to'lamaslik oqibatlari ko'rsatib qo'yilishi mumkin.

Agar sug'urta hodisasi to'lash muddati o'tkazib yuborilgan navbatdagi sug'urta badali to'lanishidan oldin yuz bergan bo'lsa, sug'urtalovchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'voni yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli miqdorini sug'urta mukofotining o'ziga to'langan qismiga mutanosib summada cheklashga va muddati o'tkazib yuborilgan sug'urta badali summasini hisobga olishga haqli.

#### **943-modda. Sug'urta shartnomasining haqiqiy emasligi**

Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda o'z-o'zidan haqiqiy emas:  
shartnoma tuzilayotgan paytda sug'urta obyekti mavjud bo'lmasa;  
jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan, jinoyat narsasi hisoblanuvchi yoki musodara qilinishi lozim bo'lgan mol-mulk mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan bo'lsa;  
shartnoma bo'yicha g'ayrihuquqiy manfaat sug'urtalangan bo'lsa;  
sug'urta shartnomasida sug'urta hodisasi sifatida yuz berish ehtimolligi va tasodifiylik belgilari bo'lmagan voqea nazarda tutilgan bo'lsa.

Sug'urta shartnomasi ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

#### **944-modda. Sug'urtalangan shaxsni almashtirish**

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchidan boshqa shaxsning javobgarligi sug'urtalangan hollarda, shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi bu shaxsni sug'urta hodisasi yuz berguncha istalgan vaqtda, sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, boshqa shaxsga almashtirishga haqli.

Shaxsiy sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urtalangan shaxs sug'urta qildiruvchi tomonidan shu sug'urtalangan shaxs va sug'urtalovchining roziligi bilangina boshqa shaxsga almashtirilishi mumkin.

#### **945-modda. Naf oluvchini almashtirish**

Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan naf oluvchini boshqa shaxsga, bu haqda sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, almashtirishga haqli. Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan shaxsning roziligi bilan tayinlangan naf oluvchini almashtirishga faqat shu shaxsning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Naf oluvchi sug'urta shartnomasi bo'yicha birona majburiyatni bajarganidan yoki sug'urta tovonini yoxud sug'urta pulini to'lash to'g'risida sug'urtalovchiga talab qo'yganidan keyin u boshqa shaxs bilan almashtirilishi mumkin emas.

#### **946-modda. Sug'urta qildiruvchini almashtirish**

Mol-mulkni sug'urtalash shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari bu mol-mulkni meros tartibida qabul qilib olgan shaxsga o'tadi. Mulk huquqi o'tishining boshqa hollarida sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari, agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, sug'urtalovchining roziligi bilan yangi mulkdorga o'tadi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasini sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzgan sug'urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, ushbu shartnoma bilan belgilanadigan huquq va majburiyatlar sug'urtalangan

shaxsning roziligi bilan unga o'tadi. Sug'urtalangan shaxs sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishi mumkin bo'lmasa, uning huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlariga muvofiq uning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi shaxslarga o'tishi mumkin.

Agar sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilsa, bunday sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlarini uning vasiyi yoki homiysi oladi. Bunda sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi sug'urtasi uning muomala layoqati tugagan yoki cheklangan paytdan boshlab tugaydi.

Yuridik shaxs bo'lgan sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi davrida qayta tashkil etilganida uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari sug'urtalovchining roziligi bilan tegishli huquqiy vorisga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda o'tadi.

#### **947-modda. Sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanishi**

Sug'urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langan paytda kuchga kiradi.

Agar shartnomada sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomada shartlashilgan sug'urta sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan tatbiq etiladi.

#### **948-modda. Sug'urta shartnomasining muddatidan ilgari bekor bo'lishi**

Sug'urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi. Quyidagilar shunday holatlar jumlasiga kiradi, chunonchi:

sug'urtalangan mol-mulkning yuz bergan sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lishi;

tadbirkorlik xavfini yoki ana shu faoliyat bilan bog'liq fuqaroviy javobgarlik xavfini sug'urtalangan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini belgilangan tartibda to'xtatishi.

Sug'urta shartnomasi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha muddatidan oldin bekor bo'lganda, sug'urtalovchi sug'urta mukofotining bir qismini sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi), agar voz kechish paytiga kelib sug'urta hodisaning yuz berish ehtimoli ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yo'qolmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasidan muddatidan ilgari voz kechgan taqdirda, sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qaytarib berilmaydi.

#### **949-modda. Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta xavfining ortishi oqibatlari**

Mulkiy sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) va sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida aytib qo'yilgan o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi.

Sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasining shartlari o'zgartirilishiga yoki sug'urta mukofotiga qo'shimcha to'lashga e'tiroz bildirsa, sug'urtalovchi ushbu Kodeksning 28-bobida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq shartnomani bekor qilishni talab etishga haqli.

Sug'urta qiluvchi yoxud naf oluvchi ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatini bajarmagan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini bekor qilishni va shartnomani bekor qilish tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab etishga haqli.

Sug'urtalovchi, agar sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar yo'qolgan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli emas.

Shaxsiy sug'urtada, sug'urta shartnomasining amal qilishi davrida ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan sug'urta xavfining o'zgarishi oqibatlarini, agar ular shartnomada to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsagina, yuzaga kelishi mumkin.

#### **950-modda. Sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan huquqlarning boshqa shaxsga o'tishi**

Sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan huquqlar sug'urta shartnomasi tuzilganida manfaati nazarda tutilgan shaxsdan boshqa shaxsga o'tganida ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlar mol-mulkka bo'lgan huquq qaysi shaxsga o'tgan bo'lsa, o'sha shaxsga o'tadi, ushbu Kodeksning 197 va 199-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha mol-mulkning majburiy olib qo'yilishi hollari bundan mustasno.

Sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan huquqlar o'ziga o'tgan shaxs bu haqda sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

#### **951-modda. Sug'urta hodisasi yuz bergani to'g'risida sug'urtalovchini xabardor qilish**

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi yuz bergani o'ziga ma'lum bo'lganidan keyin bu haqda darhol sug'urtalovchini yoki uning vakilini xabardor qilishi shart. Agar shartnomada xabar qilish muddati va (yoki) usuli nazarda tutilgan bo'lsa, bu shartlashilgan muddatda va shartnomada ko'rsatilgan usulda qilinishi lozim. Agar naf oluvchi o'zining foydasiga tuzilgan shartnoma bo'yicha sug'urta tovoniga bo'lgan huquqdan foydalanish niyatida bo'lsa, ayni shunday majburiyat naf oluvchi zimmasida bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatning bajarilmasligi sug'urtalovchiga, agar sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganini o'z vaqtida bilganligi, yoxud bu haqda sug'urtalovchida ma'lumotlar yo'qligi uning sug'urta tovonini to'lash majburiyatiga ta'sir etmasligi isbotlanmasa, sug'urta tovonini to'lashni rad etish huquqini beradi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar, agar sug'urtalangan shaxsning vafoti yoki uning sog'lig'iga zarar yetkazilishi sug'urta hodisasi bo'lsa, tegishli suratda shaxsiy sug'urta shartnomasiga nisbatan qo'llaniladi. Bunda sug'urtalovchini xabardor qilishning shartnomada belgilanadigan muddati yigirma kundan kam bo'lishi mumkin emas.

#### **952-modda. Sug'urta hodisasidan ko'riladigan zararni kamaytirish**

Mulkiy sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganida, sug'urta qildiruvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun oqilona va mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi shart. Sug'urta qildiruvchi bunday choralarni ko'rar ekan, agar o'ziga ma'lum qilingan bo'lsa, sug'urtalovchining ko'rsatmalariga amal qilishi lozim.

Zararni kamaytirish maqsadida qilingan, sug'urtalovchi qoplashi lozim bo'lgan xarajatlar, agar bunday xarajatlar zarur bo'lgan bo'lsa yoki sug'urtalovchining ko'rsatmalarini bajarish uchun qilingan bo'lsa, tegishli choralar foydasiz bo'lib chiqsa ham, sug'urtalovchi tomonidan qoplanishi lozim. Bunday xarajatlar sug'urta summasining sug'urta qiymatiga nisbatiga mutanosib ravishda, boshqa zararlarni qoplash bilan birgalikda ular sug'urta pulidan oshib ketishi mumkinligidan qat'i nazar, qoplanadi.

Sug'urta qiluvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun qasddan choralar ko'rmagani oqibatida ko'rilgan zararni qoplashdan sug'urtalovchi ozod qilinadi.

**953-modda. Sug'urta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sug'urtalangan shaxsning aybi bilan sug'urta hodisasi yuz berishining oqibatlari**

Agar sug'urta hodisasi sug'urta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sug'urtalangan shaxsning qasd qilishi oqibatida yuz bergan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashdan ozod qilinadi, qasddan qilingan harakatlar ular tomonidan zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida, shuningdek ushbu moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda sodir etilishi bundan mustasno.

Qonunda sug'urta hodisasi sug'urta qiluvchining yoki naf oluvchining qo'pol ehtiyotsizligi oqibatida yuzaga kelganda sug'urtalovchini mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilish yoki tovon miqdorini kamaytirish hollari nazarda tutilishi mumkin.

Sug'urtalovchi sug'urtalangan shaxsning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun fuqaroviy javobgarlikni sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini to'lashdan, agar zarar sug'urtalovchi uchun javobgar shaxsning aybi bilan yetkazilgan bo'lsa, ozod qilinmaydi.

Sug'urtalovchi shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta pulini to'lashdan, agar uning vafoti o'z joniga qasd qilish oqibatida ro'y bergan bo'lsa va bu vaqtgacha sug'urta shartnomasi kamida ikki yil amal qilgan bo'lsa, ozod qilinmaydi.

**954-modda. Sug'urtalovchini sug'urta tovonini va sug'urta pulini to'lashdan ozod qilish asoslari**

Sug'urtalovchi, agar qonunda yoki sug'urta shartnomasida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa va sug'urta hodisasi quyidagilar oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, sug'urta tovonini va sug'urta pulini to'lashdan ozod qilinadi:

yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish ta'sirida;

harbiy harakatlar, manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar.

Agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo'yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi oqibatida ko'rilgan zarar uchun sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi.

**955-modda. Sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish**

Sug'urtalovchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) sug'urta tovonini yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lashni quyidagi hollarda rad etishga haqli, chunonchi:

sug'urta shartnomasining amal qilishi sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar, shu jumladan ushbu Kodeksning 948 va 950-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bekor qilinganda;

sug'urta shartnomasi ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaganda;

sug'urtalovchi ushbu Kodeksning 951-954-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha sug'urta tovonini yoki sug'urta puli to'lashdan ozod qilinganda;

sug'urtalovchi ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta shartnomasini haqiqiy emas deb topish to'g'risida yoxud sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi holatlarini tekshirib ko'rishga yoki yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashga to'sqinlik qilgani tufayli sug'urta shartnomasini bekor qilish to'g'risida da'vo qo'zg'atganida.

Sug'urtalovchining sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ular sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni

so'rab murojaat etganlaridan keyin o'n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Sug'urtalovchining sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etishiga qarshi unga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atish yo'li bilan e'tiroz bildirilishi mumkin.

#### **956-modda. Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lash**

Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy ta'minot bo'yicha, boshqa sug'urta shartnomalari bo'yicha yoki zararni qoplash tartibida sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga yoki naf oluvchiga tegishli summalardan qat'i nazar, shartnoma kimning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga to'lanadi.

Ushbu Kodeks 921-moddasining uchinchi qismi asosida shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlariga to'lanadigan sug'urta puli sug'urtalangan shaxsning merosi tarkibiga kirmaydi.

#### **957-modda. Sug'urta qildiruvchining zarar qoplanishiga bo'lgan huquqlarining sug'urtalovchiga o'tishi (subrogatsiya)**

Agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug'urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta tovonini to'lagan sug'urtalovchiga o'tadi. Biroq shartnomaning bila turib zarar yetkazgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi sug'urtalovchiga o'tishini istisno qiladigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqi uning tomonidan sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) va zarar uchun javobgar bo'lgan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to'langan summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

#### **958-modda. Sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan huquqlarning sug'urtalovchiga o'tkazilishi**

Mol-mulk sug'urta qilinganda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urtalovchining roziligi bilan sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan o'z huquqlarini unga o'tkazishi va sug'urta tovonini sug'urta pulining to'liq hajmida olishi mumkin.

#### **959-modda. Qayta sug'urta qilish**

Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug'urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu bobning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish borasida qo'llanishi lozim bo'lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug'urta qilish shartnomasini tuzgan sug'urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo'yicha sug'urtalovchi keyingi shartnomada sug'urta qildiruvchi hisoblanadi.



Qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi oldida ushbu shartnoma bo'yicha sug'urtalovchi javobgar bo'lib qolaveradi.

Biroq asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga o'tadi.

Ikki yoki bir nechta qayta sug'urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo'l qo'yiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sug'urta shartnomasi deb hisoblanadi.

#### **960-modda. Ikki tomonlama sug'urta**

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z mol-mulkларini hamda ushbu Kodeks 915-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan boshqa mulkiy manfaatlarini ikki taraflama asosda, buning uchun ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatlarida zarur mablag'larni birlashtirish yo'li bilan sug'urta qilishlari mumkin.

Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatlari o'z a'zolarining mol-mulki hamda boshqa mulkiy manfaatlarini sug'urta qilishni amalga oshiradi va tijoratchi bo'lmagan tashkilot hisoblanadi.

Ikki tomonlama sug'urta qilish tashkilotlari tomonidan o'z a'zolarining mol-mulki va mulkiy manfaatlarini sug'urta qilish, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida bunday hollarda sug'urta shartnomalari tuzish nazarda tutilmagan bo'lsa, bevosita a'zolik asosida amalga oshiriladi.

Ushbu bobning qoidalar, agar qonunda, tegishli jamiyatning ta'sis hujjatlarida yoki jamiyat belgilagan sug'urta qilish qoidalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyati bilan uning a'zolari o'rtasidagi sug'urtaga doir munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Ikki tomonlama sug'urta qilish yo'li bilan majburiy sug'urtani amalga oshirishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyati sug'urtalovchi sifatida, agar uning ta'sis hujjatlarida sug'urta faoliyatini amalga oshirish nazarda tutilgan, jamiyatning o'zi tijorat tashkiloti shaklida tuzilgan, tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lsa va qonunda belgilangan boshqa talablarga javob bersa, jamiyatning a'zolari bo'lmagan shaxslarning manfaatlarini sug'urta qilishni amalga oshirishi mumkin.

Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatining a'zosi bo'lmagan shaxslarning manfaatlarini sug'urta qilish jamiyat tomonidan sug'urta shartnomalari asosida ushbu bobning qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatlari huquqiy holatining xususiyatlari va ularning faoliyat yuritish shartlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

#### **961-modda. Majburiy davlat sug'urtasi**

Fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida qonunda hayot, sog'liq va mol-mulkning majburiy davlat sug'urtasi belgilab qo'yilishi mumkin.

Majburiy davlat sug'urtasi ana shu maqsadlar uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Majburiy davlat sug'urtasi bevosita sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida unda ko'rsatilgan davlat sug'urta tashkilotlari yoki davlatning boshqa tashkilotlari (sug'urtalovchilar) tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu bobning qoidalar, agar sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa va sug'urta bo'yicha mavjud munosabatlar mohiyatidan kelib chiqmasa, majburiy davlat sug'urtasiga nisbatan qo'llaniladi.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### 1. Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Гвозденко А.А. Основы страхования: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 320 с.
2. Mahmudova L. Sug'urta ishi-O'quv qo'llanma—T.-TAKI 2004
3. Основы страховой деятельности: Учебник./ Отв. ред. Проф. Т.А. Федорова. - М.: Издательство БЕК, 2002.-768 с.
4. Сплетухов Ю.А. Страхование ответственности. Учебное пособие - М.: Аудитор, 2004.-172с.
5. Страховое дело: Учебник. В 2 т. (пер. с нем. О.И. Крюгер и Т.А. Федоровой). - т.1: Основы страхования / под ред. О.И. Крюгер. - М.: Экономист, 2004. - 447 с.
6. Хо'jaev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma.-T.: Soliq akademiyasi, 2005.

### 2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2001. 39 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.:«Adolat», 1996
3. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni. – Toshkent, 2002-yil 5 aprel
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-618-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21 may 2008-yildagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.:“O'zbekiston”, 2009.-56 b.
7. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009-yil 14 fevral.
8. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16-yilligiga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan ma'ruzasi (2008-yil 5 dekabr).
9. O'zbekistonning 16-yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16-yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi//Xalq so'zi, 2007-yil 31 avgust.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24 iyun 2008-yildagi 141-sonli ««Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27 noyabr 2002-yildagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2008-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida»gi Qarori. 2009-yil 13 fevral. //“Xalq so'zi” gazetasi, 17 fevral.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 26-iyuldagi 292-sonli «Madad» sug'urta agentligi tashkil qilish to'g'risidagi qarori

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 14-martdagi 144-sonli «Kafolat» davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasini tashkil qilish to'g'risidagi qarori
15. 2008-yilda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi // Xalq so'zi, 2008-yil 12 fevral.
16. Абдурахимова Н. Развитие страхового бизнеса./Биржа,24.05.2008, №66-67(857-858) стр.11
17. Абдурахимова Н. Страховой рынок: по пути дальнейшего развития и совершенствования./Биржа,10.05.2008, №60(851) стр.1
18. Аскарлова М. О перспективах развития рынка страховых услуг Республики Узбекистан.//ж. Рынок, деньги и кредит, №2, 2009, стр.36-37
19. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Страхование. Учебник для вузов - СПб.: Питер, 2001. - 256 с.
20. Baxtsiz hodisalardan oilaviy sug'urtalash qoidalarini. //«O'zagrosug'urta» DASK, - T.: 2003
21. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. - 102 b.
22. Bekmurodov A.Sh., Safarov B.J. Qishloq joylarida savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish yo'nalishlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. - 23 b.
23. Бланд М. Финансовый кризис. – М.: АСТ-Астрил-Харвест. 2008. - 288 с.
24. Кабанцева Н.Г. Страховое дело: учебное пособие.-М.: ФОРУМ, 2008.-272 с.
25. Milliy istiqbol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: «O'zbekiston», 2000
26. Новый этап в развитии страхового дела./ БВВ, 26.04.2007, №50(899) стр.7
27. Пути повышения доверия к страхованию./ БВВ, 03.05.2007, №53(902) стр.8
28. Программа мер по нейтрализации последствий мирового кризиса – в действии. // Бизнес-вестник Востока. № 12, от 19 февраля 2009 г.
29. Sug'urta bozori holati va istiqbollari./Region.uz, 22.05.2008, №21(40), 1-b.
30. Сухов В.А. Государственное регулирование финансовой устойчивости страховщиков. — М- Анкил, 2005.
31. Финансовый кризис приведет к перестановке сил мирового сообщества. // Бизнес-вестник Востока, №18, от 12 марта 2009г.
32. Финансы. Учебник под ред. В.М. Родионовой. –3-е изд. М.: Финансы и статистика, 2003.-468 с.
33. Финансы. Уч.пос. под ред. А.М. Ковалевой.-2-е изд. М.: Финансы и статистика, 2003.-386с.
34. Финансы, денежное обращение и кредит. Под ред. Л.А. Дробозиной. –2-е изд. М.: Юнити.,2003.-574 с.
35. Xodiev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish – milliy taraqqiyotimizning mantiqiy bosqichi / Ilmiy-ommabop risola.- T.: TDIU, 2008, 57 b.
36. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Globallashuv jarayoni va moliyaviy inqiroz sabablari. // Adolat, 2009-yil 27 fevral.
37. Shoxa'zamiy Sh. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, davomiyligi va saboqlar. // "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali. 2008-yil 4-son.
38. Yusupov R.Sug'urta hayotingiz kafolati./Turkiston, 09.01.2009, №2, 3-b.
39. Hamidov B. Sug'urta xizmati – ishonchli kafolat./SBX, 15.05.2008, №20(720), 13-b.
40. Хэмптон Д. Финансовое управление в страховых компаниях Перевод с англ. — М.: Анкил. 2005. г
41. Шахов В.В. Страхование. Учебник для вузов.-М.: «ЮНИТИ», 2001. -311 с.
42. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2000-yil 28-martdagi 28-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirayotgan sug'urta agentlari to'g'risida Nizom». /«O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari», 2000, 16-son, 89-b.

43. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2000-yil 28-iyundagi 60-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urta rezervlarini sug'urta tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining hududida joylashtirish to'g'risida Muvaqqat Nizom»./«O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari», 2000, 16-son, 96-b.
44. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2000-yil 20-sentyabrdagi 104-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlari bo'yicha sug'urta rezervlarini shakllantirishning tartibi to'g'risida Muvaqqat Nizom». /«O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari», 2000, 16-son, 104-b.
45. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004-yil 19-yanvardagi 18-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilarning aktivlari va majburiyatlari to'g'risida Nizom». /«O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari», 2004, I-4, 144-b.
46. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004-yil 25-martdagi 52-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilarning ijro etuvchi organi rahbarlariga va bosh buxgalterlariga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risida Nizom». /«O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari», 2004, I-6, 125-b.

*«Internet» tarmog'i bo'yicha veb-saytlar*

1. <http://www.afn.by>
2. <http://www.agros.uz>
3. <http://www.alscom.uz>
4. <http://www.anews.ru>
5. <http://www.finansy.ru>
6. <http://www.finiz.ru>
7. <http://www.garmed.ru/insur/ins.htm>
8. <http://www.insur-today.ru>
9. <http://www.kafolatdask.uz>
10. <http://www.mf.uz>
11. <http://www.sugurta.uz>
12. <http://www.unic.gov.uz>
13. <http://www.uzbekinvest.uz>
14. <http://www.vpk-news.ru>

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Soʻz boshi.....                                                                                                                | 3   |
| 1-mavzu. Milliy iqtisodiyotda sug'urtaning oʻrni va roli .....                                                                 | 4   |
| 2-mavzu. Makroiqtisodiy va mikroiktisodiy darajada risklarni boshqarish.<br>Sug'urta risklarni boshqarishning muhim usuli..... | 8   |
| 3-mavzu. Sug'urtaning asosiy tushunchalari va tamoyillari.....                                                                 | 16  |
| 4-mavzu. Sug'urta klassifikatsiyasi.....                                                                                       | 22  |
| 5-mavzu. Sug'urta munosabatlarini tashkil etish shakllari.....                                                                 | 28  |
| 6-mavzu. Mustaqillik yillari O'zbekistonda sug'urtani rivojlanish<br>bosqichlari.....                                          | 31  |
| 7-mavzu. Sug'urta kompaniyasining tashkiliy asoslari.....                                                                      | 36  |
| 8-mavzu. Sug'urta kompaniyasining moliyasi.....                                                                                | 43  |
| 9-mavzu. Sug'urta kompaniyasining investitsiya faoliyati.....                                                                  | 50  |
| 10-mavzu. Sug'urta bozori va uni rivojlanish qonuniyatlari.....                                                                | 57  |
| 11-mavzu. Sug'urta bozorining tartibga solinishi.....                                                                          | 71  |
| 12-mavzu. Chet mamlakatlar sug'urta bozoriga umumiy tavsif.....                                                                | 80  |
| 1-ilova. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi<br>qonuni.....                                        | 88  |
| 2-ilova. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 52-Bob.....                                                            | 96  |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....                                                                                        | 110 |

[illegible]





